

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



# **PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA PEDAGOGIK MAHORAT**

**Mutaxassislik fanlarini o'qitishning  
innovatsion muhitini loyihalashtirish**



**MODULI BO'YICHA  
O'QUV-USLUBIY MAJMUUA**



**TOSHKENT-2022**



**Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchi: TDPU huzuridagi tarmoq markazi katta o'qituvchisi M.J.Mutalipova**

**Taqrizchi: Seul pedagogika universiteti (Janubiy Koreya), professor. Lee Yu Mi**

***O'quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustdagi 1/3.6- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.***



## **MUNDARIJA**

<b>I. IShChI DASTUR.....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>10</b>
<b>III. NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI.....</b>	<b>16</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI .....</b>	<b>79</b>
<b>V. GLOSSARIY .....</b>	<b>100</b>
<b>VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>103</b>



## I. IShChI DASTUR

### KIRISH

Ta'lim tizimli bilim olishning eng muhim va ishonchli usuli ekan, zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish asosida faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirish, nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi.

Pedagogning kompetentligi, kreativligi, tajribasi va mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi. Shu sababli u pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay bilishi lozim. Ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lgan pedagogning pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqei, u tomonidan innovatsion texnologiyalarning yetarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi.

Zero, bugungi kundagi, ya'ni axborot globallasuvi asrida aqliy faoliyat, xususan pedagogik faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassislar ta'lim mazmuni, metodlari, qonuniyatlari, ta'limni tashkil qilish shakllari, pedagogik va innovatsion texnologiyalar va ularning turlari, ularni dars jarayonida qo'llashni bilish tajribasiga ega bo'lishlari lozim.

Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4732-sonli, 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmonlari, shuningdek 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy mahorati va kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ushbu dastur mazmunida ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari va tamoyillari, ta'lim jarayonini loyihalashning mazmun mohiyati, pedagogik loyihalashtirishning tipologik belgilari, innovatsion jarayonlar rivojlanishining



umumiy tendensiyalari, pedagogik innovatsiyalarning rivojlanish shart-sharoitlari, innovatsion faoliyatning nazariy omillari, pedagogning innovatsion faoliyatga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari, ta'lim tizimida olib borilayotgan innovatsion jarayonlarning mazmun mohiyati, pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati) va uni ilmiy tashkil etish, pedagogik faoliyatni loyihalash bosqichlari va darajalari, pedagogik faoliyatni loyihalash ta'minoti, innovatsion faoliyatning asosiy funksiyalari va bosqichlari, innovatsion pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish yo'llari kabi masalalar bayon etilgan.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

**“Mutaxassislik fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish” modulining maqsadi:** pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi tinglovchilarini innovatsion texnologiyalarning xususiyatlariga doir nazariy bilimlarini takomillashtirish, “Mutaxassislik fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish”ga doir zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali mutaxassislik fanlarini o'qitish sifatini oshirish.

**“Mutaxassislik fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish” modulining vazifalari:**

- tinglovchilarning mutaxassislik fanlarini o'qitishda ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari va tamoyillari, ta'lim jarayonini loyihalashning mazmun mohiyatiga doir bilimlarini takomillashtirish;
- ta'lim jarayonida innovatsion muhitni rivojlantirish yo'llarini aniqlashtirish;
- tinglovchilarda pedagogning innovatsion faoliyatga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari, ta'lim tizimida olib borilayotgan innovatsion jarayonlarning mazmun mohiyatini amalga oshirishni yanada rivojlantirish;
- tinglovchilarda innovatsion faoliyatning asosiy funksiyalari va bosqichlari haqidagi bilimlarni tarkib toptirib, innovatsion pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish yo'llari bo'yicha ko'nikma-malakalarini rivojlantirish.

## **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

“Mutaxassislik fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

### **Tinglovchi:**

- mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion muhitni yaratish;
- ta'lim jarayonini loyihalashning mazmun mohiyati;
- ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari va tamoyillari;
- pedagogik loyihalashtirishning tipologik belgilari;



- ta'lim tizimida olib borilayotgan innovatsion jarayonlarning mazmun mohiyati haqida **bilimlarga ega bo'lishi**;

### **Tinglovchi:**

- innovatsion jarayonlar rivojlanishining umumiy tendensiyalari,
- pedagogik innovatsiyalarning rivojlanish shart-sharoitlari,
- innovatsion faoliyatning nazariy omillari,
- pedagogning innovatsion faoliyatga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlariga doir **ko'nikmalarni egallashi**;

### **Tinglovchi:**

- pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati) va uni ilmiy tashkil etish,
- pedagogik faoliyatni loyihalash funksiyalari, bosqichlari va darajalarini o'rganishga doir metod va texnologiyalarni to'g'ri tanlash;
- mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion muhitni loyihalashtirish bo'yicha ilg'or tajribalardan foydalanish;
- kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga **malakalarini egallashi**;

### **Tinglovchi:**

- pedagogik faoliyatning qayta tushunilishi va mustaqil takomillashtirilishini ta'minlovchi mustaqil tahlilni egallash (refleksiv);
- mustaqil ta'lim va o'z kasbiy-metodik darajani oshirib borish (kognitiv);
- konstruktiv ravishda harakat qilishga imkon beradigan axborotni olish, qayta ishlash va tatbiq qilish, texnologik qarorlar, tamoyil va yondashishlar tizimini loyihalashtirish (axborot);
- kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi og'zaki va yozma muloqot texnologiyalarini egallash (kommunikativ) **kompetensiyalarni egallashi lozim**.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar:**

“Mutaxassislik fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish” modulini o'qitish ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

“Mutaxassislik fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish” modulini o'qitish jarayonida quyidagi innovatsion ta'lim shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalari yordamida interfaol ma'ruzalarni tashkil etish;
- amaliy mashg'ulotlar jarayonida keys, loyiha va assisment texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Mutaxassislik fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Pedagogning mahorati va kompetentligi”, “Kreativ pedagogika asoslari” kabi o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda



innovatsion ta’lim muhitini loyihalashtirish bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

**Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar pedagogik mahorat va kompetentlikni o‘zlashtirish, joriy etish va amaliyotda qo‘llashga doir proektiv, kreativ va texnologik kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

**Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Jami auditoriya soati	Jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	“Mutaxassislik fanlarini o‘qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish”ning mazmun mohiyati	4	2	2
2.	Innovatsion jarayonlar rivojlanishining umumiy tendensiyalari	4	2	2
3.	Pedagogning innovatsion faoliyatini shakllantirish hamda pedagogik faoliyatni loyihalash bosqichlari va darajalari	4	2	2
4.	Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari	6	2	4
5.	Innovatsion yondashuv asosida mustaqil loyiha ishlari mazmuni va namunalar	2		2
6.	Mutaxassislik fanlariga oid loyiha ishlarini tayyorlash	2		2
<b>Jami</b>		<b>22</b>	<b>8</b>	<b>14</b>

**NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1- mavzu: Ta’lim jarayonida innovatsion muhitni loyihalashtirishning mazmun mohiyati.**

Ta’lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari va tamoyillari. Ta’lim jarayonini loyihalash: loyiha – mazmun – faoliyat. Ta’lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirishning tipologik belgilari. Loyihalash “g‘oya – maqsad – kutiladigan natija – taxmin qilish – bashoratlash – rejalashtirish” tizimi sifatida.



## **2-mavzu: Innovatsion jarayonlar rivojlanishining umumiy tendensiyalari**

Pedagogik innovatsiyalarning rivojlanish shart-sharoitlari. Innovatsion faoliyatning nazariy omillari. Pedagogning innovatsion faoliyatiga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari. Hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda innovatsion jarayonni bosqichlarga bo'lish sxemasi. Innovatsion faoliyat – pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuch sifatida.

## **3-mavzu: Pedagogning innovatsion faoliyatini shakllantirish hamda pedagogik faoliyatni loyihalash bosqichlari va darajalari**

Ta'lim tizimida olib borilayotgan innovatsion jarayonlarning mazmun mohiyati. Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati) va va uni ilmiy tashkil etish. Pedagogik faoliyatni loyihalash bosqichlari va darajalari. Pedagogik faoliyatni loyihalash ta'minoti. Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning sifati va samaradorligi.

## **4-mavzu: Mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish yo'llari**

Innovatsion faoliyatning asosiy funksiyalari va bosqichlari. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish yo'llari. Innovatsiya – so'zining ma'nosi. Pedagogik jaraenga yangiliklar kiritish bilan uning sifati va samaradorligini oshirish. O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jaraeni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qarash. Innovatsion faoliyatning asosiy funksiyalari.

### **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

#### **1-mavzu: Ta'lim jarayonida innovatsion muhitni loyihalashtirishning mazmun mohiyati.**

Ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirishning tipologik belgilari. Loyihalash “g'oya – maqsad – kutiladigan natija – taxmin qilish – bashoratlash – rejalashtirish” tizimi sifatida o'rganish.

#### **2-mavzu: Innovatsion jarayonlar rivojlanishining umumiy tendensiyalari**

Pedagogning innovatsion faoliyatiga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari. Hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda innovatsion jarayonni bosqichlarga bo'lish sxemasi.

#### **3-mavzu: Pedagogning innovatsion faoliyatini shakllantirish hamda pedagogik faoliyatni loyihalash bosqichlari va darajalari**

Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati) va va uni ilmiy tashkil etish. Pedagogik faoliyatni loyihalash bosqichlari va darajalari. Pedagogik faoliyatni loyihalash ta'minoti. Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning sifati va samaradorligi.





## **4-mavzu: Mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish yo'llari**

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish yo'llari. Pedagogik jaraenga yangiliklar kiritish bilan uning sifati va samaradorligini oshirish. O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jaraeni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qarash.

## **5-mavzu: Innovatsion yondashuv asosida mustaqil loyiha ishlari mazmuni va namunalar**

Innovatsion yondashuv asosida "Pedagogik akmeologiya" mavzusida o'quv loyihasini tayyorlash. Loyiha mavzusining dolzarbligini asoslash, maqsad vazifalarni belgilash. O'quv loyihasini tayyorlash bosqichlarini aniqlash.

## **6-mavzu: Mutaxassislik fanlariga oid loyiha ishlarini tayyorlash**

Mutaxassislik fanlariga oid o'quv loyiha ishlarini tayyorlash va guruhviy taqdimot qilish. O'quv loyihasini tayyorlashda izchillikka amal qilish.

### **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'ruza-munozara, muammoli ma'ruza, vebinar ma'ruza, vizual ma'ruza, virtual amaliy mashg'ulotlar);
- o'quv munozarasi (og'zaki va yozma davra suhbat, forum, aqliy hujum, bahs-munozara, debat);
- fasilitatsion ta'lim (Open Space – "Ochiq muhit" strategiyasi. World Cafe – Jahon kafesi strategiyasi. Appreciative Inquiry – "Ijobiy o'zgarishlar paradigmasi" strategiyasi. Dynamic facilitation – Dinamik fasilitatsiya strategiyasi. Graphic facilitation – Grafikli fasilitatsion strategiyalar. Action Learning – Boshqalar tajribasi asosida o'qitish).



## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

### 1. BIR NECHA MANBALARDAN FOYDALANIB MA'RUZA TAYYORLASH

Tinglovchilar interfaol mashg'ulotlarda samarali ishtirok etishlari uchun ma'ruzalarga tayyorlanib kelishlari lozim. Buning uchun tinglovchilariga ma'ruzalar tayyorlash yo'llari va imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarni kengaytirish lozim. Ana shunday imkoniyatlardan biri – bu bir necha manbalardan foydalanib ma'ruza tayyorlash hisoblanadi. Mazkur ma'ruza javdval holatida tayyorlanib, tinglovchiga javob berish uchun tayanch signal vazifasini bajaradi. Buning uchun tinglovchi besh ustundan va materilning hajmiga qarab bir necha ustundan iborat oddiy jadval tuzadi. Yuqoridagi qatordagi ustunlarda axborotning turli manbalari nomini ko'rsatishadi: darsliklar, jurnal maqolalari, internet materiallari, intervyular.

Chap tomondan birinchi katakning har bir qatoriga tinglovchi mavzuga tegishli yoki javob olinishi zarur bo'lgan savolni yozadi:

Savollar	Darslik	Jurnal maqolalari	Internet materiallari	Intervyu
Ta'lim jarayoni-ni loyihalash-ning mazmun mohiyati				
Innovatsion jarayonlar rivojlanishining umumiy tendensiyalari				
Pedagogning innovatsion faoliyatga bo'lgan qobiliyatlari				
O'qituvchining kas-biy kompetentligi deganda nimani tushunamiz?				
Pedagogik faoliyatni loyihalash				



bosqichlari va darajalari				
Innovatsion pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish yo‘llari				

### **2. YoZMA VA OG‘ZAKI “DAVRA SUHBATI”**

Yozma “Davra suhbatı” – bu birgalikdagi o‘qitish metodi bo‘lib, bunda qog‘oz va ruchka doimo aylana bo‘ylab, o‘yin ishtirokchilarining kichik guruhi orasida uzatib turiladi. Misol uchun, sheriklardan bir qandaydir g‘oyani yozib, keyin varaqni chap tomonidagi sherigiga uzatadi. U o‘sha g‘oyaga o‘zining qandaydir mulohazalarini qo‘shadi va varaqni keyingi kishiga uzatadi. Ushbu rusum-qoidaning boshqa variantida har bir ishtirokchi yozuvini o‘zining rangi bilan yozadi. Bu umumiy fikrni shakllantirishda qo‘shilgan hissani ko‘rinarli darajada ko‘rsatib turadi va o‘qituvchiga tushunishga va har birining ishtirokini qayd qilishga yordam beradi.

Og‘zaki “Davra suhbatı” - bu birgalikda o‘qitish metodi bo‘lib, oldingisiga o‘xshaydi, faqat u og‘zaki shaklda o‘tkaziladi. Har bir ishtirokchi navbati bilan oldingi odam aytgan fikrni ilg‘ab oladi va rivojlantiradi.

### **3. «DIALOG» treningi.**

**Treningni maqsadi:** o‘z fikr-mulohazalarini, manfaatlarini himoya qila olish malakasini shakllantirish, bu sohada o‘zida mavjud vositalarni boyitish, ziddiyatli vaziyatlarda o‘z xatti-harakatini boshqara olish orqali kasbiy kompetentlikni shakllantirish

Guruhning ikki qatnashchisiga o‘zaro dialog vaziyatida ikki xil vazifa, maqsad qo‘yiladi. Ulardan biri ikkinchisini biror- bir narsaga (Masalan: sport tugragiga qatnashish, qaysidir badiiy kitobni mutoala qilishga, yangi kinofilmni ko‘rishga va boshqalarga) ko‘ndirishga, ikkinchisi esa unga yordam berishni butunlay rad etishga harakat qiladi. Shu bilan birga ular suhbat davomida axloq me‘yorlari doirasidan chiqmasliklari, o‘z xoxishlarini ishonchli dalillashlar asosida bayon etishlari lozim bo‘ladi. Trening dialog qatnashchilaridan biri ikkinchisining fikriga bo‘ysunmaguncha davom etadi.

### **4. TUSHUNCHALARNI ANIQLASH**

**Maqsadi:**

- tinglovchilarni gapdagi har bir xorijiy tildagi so‘zni tushuna olishga o‘rgatish;



- tinglovchilarning gapdagi har bir so'zga e'tiborli munosabatda bo'lish zaruriyatini anglashlariga yordam berish;

- o'quv topshirig'ini bajarishda guruhlarda hamkorlikda ishlash ko'nikmasini shakllantirish.

O'qituvchi izohni **tushunish** – bu tinglovchilarning narsa yoki hodisalarda bildiradigan obrazlarni tasavvur eta olish ekanligini aytishdan boshlaydi. Bu faqatgina tasavvur etishgina emas, balki so'zni tushunishning birinchi darajasi.

So'zni to'liq tushunish qachonki, tinglovchilar narsa yoki hodisaning tuzilishiga oid tarkibiy qismlar(nimalardan tashkil topgan) va uning funksional o'ziga xosliklari (nimaga yordam beradi, u bilan nima qila olish mumkin va boshqalar)ni aytib bera olganda, yuzaga keladi.

### **Mashg'ulot quyidagi tarzda o'tkaziladi:**

1. Barcha tinglovchilar kichik guruhlariga bo'linishadi.
2. Har bir guruh matnni oladi. Barcha guruhlardagi matnlar bir xil yoki turli xil bo'lishi mumkin.

O'qituvchi gaplardagi notanish so'zlarni topish va izohli lug'atlar, o'qituvchining yordamida ularning ma'nosini izohlab berishni so'raydi.

3. Guruhlarda matn ustida ishlash boshlanadi. Tinglovchilar birgalikda notanish, tushunarsiz so'zlarni topishadi va ularning ma'nosini birgalikda izohlashadi.

4. Topshiriq bajarib bo'linganidan so'ng, "kichik guruhlariga hujum" boshlanadi. Savol beruvchi va javob beruvchi guruhlar qur'a tashlash yo'li bilan aniqlanishi mumkin. Barcha guruhlar navbati bilan dastlab birinchi guruhga savol berishadi, ikkinchi va boshqalar. Masalan:

Bir guruh savol beradi.

Savol berilgan guruh a'zosi tezda javobni aytishi lozim.

Guruh javob bergandan so'ng uning to'g'riligi ekspertlar guruhi tomonidan baholanadi. Baholash 0 ball dan 5 ball gacha bo'lishi mumkin.

5. Yakunlarini chiqarish. O'qituvchi ko'p ball yig'gan guruhni e'lon qilishi mumkin. Mazmuni noto'g'ri tushunilgan so'zlarga izoh beriladi.

## **5. KONSEPTUAL JADVAL**

Uchta va undan ko'p jihatlar yoki savollarni taqqoslash taqozo etilganida ushbu metod, ayniqsa foydali bo'ladi. Jadval quyidagicha tuziladi: vertikal bo'yicha taqqoslanadigan narsalar, gorizontaal bo'yicha esa, ushbu taqqoslash bajariladigan xususiyat va xossalari joylashtiriladi.

Masalan, konseptual jadval orqali loyihalash texnologiyasining bosqichlarini taqqoslab ko'rsatish mumkin.



<b>Bosqichlar</b>	<b>Qaysi kasbiy kompeten-siyaga taaluqli ekanligi</b>	<b>Qo‘llanilish doirasi</b>	<b>Ahamiyati</b>

### **6. T-Chizma**

T-chizma munozara vaqtida qo‘shaloq javoblar (ha/yo‘q, tarafdor/qarshi) yoki taqqoslash-zid javoblarni yozish uchun universal grafik organayzer hisoblanadi. Masalan “Pedagogik nizolar” matnini “tarafdor va qarshi” tamoyiliga asoslanib o‘qilganidan so‘ng, bir juft tinglovchi quyida keltirilganidek, T-chizmani tuzishi va besh daqiqadan keyin, chizmaning chap tomonida pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi sabablarni yozishi mumkin. So‘ngra besh daqiqa mobaynida ular bu fikrga qarshi iloji boricha ko‘p sababni keltirishlari kerak. Ana shu vaqt oxirida ular yana besh daqiqa mobaynida o‘z T-chizmalarini boshqa juftlik chizmalari bilan taqqoslashlari mumkin.

Pedagogik faoliyat (o‘qituvchi mehnati) va va uni ilmiy tashkil etish bilan bog‘liq pedagogik nizolarni yuzaga keltiruvchi sabablar	Pedagogik faoliyat (o‘qituvchi mehnati) va va uni ilmiy tashkil etish bilan bog‘liq pedagogik nizolarning oldini olish imkoniyatlari

### **7. TUSHUNCHALAR ASOSIDA MATN TUZISH**

“Tushunchalar asosida matn tuzish” metodi bilish-izlanish turidagi mustaqil ishlar sirasiga kirib, bu ish turli xil mantiqiy amallarni talab etadi: tahlil qilish va umumlashtirish, dalil va hodisalarni qiyoslash, ulardagi mushtaraklik va farqli tomonlarni aniqlash, asosiy va ikkinchi darajali belgilarni ajratish, sabab-oqibat aloqalarini ochib berish va hokazo. Odatda tinglovchilar noma’lum hodisalar, yangi materiallarga duch keladilar, yangi bilimlarni egallash va o‘quv muammosini hal qilish yo‘llarini izlab topishni talab etadigan muammoli vaziyat paydo bo‘ladi.

#### **Mazkur metodni qo‘llash texnologiyasi:**

Masalan, “**Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda loyiha texnologiyasi**” mavzusi bo‘yicha:

loyiha, pedagogik loyiha, innovatsion muhit, faoliyat, pedagogik faoliyat (o‘qituvchi mehnati), pedagogik faoliyat (o‘qituvchi mehnati)ni tashkil etish, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, loyiha ta’limi, pedagogik loyihalash, pedagogik loyihalash shakllari.



## 8. BLIS-O'YIN

O'yinni o'tkazish tartibi:

- 1) tinglovchilarga jadvalning chap tomonida berilgan tushunchalar bilan tanishib chiqish taklif etiladi;
- 2) dastlab individual ravishda tushunchalarga mos javobni o'ng tomondagi fikrlar orasidan tanlab, tartiblangan raqamini "indiv. javob" ustuniga (masalan "1" raqamli tushunchaga "10" raqamdagi javob) yozish so'raladi;
- 3) so'ngra xuddi shunday tartibdagi ish kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Ya'ni "guruh javobi" ustuni to'ldiriladi. Kichik guruh a'zolarida mazkur ustunga yozish uchun yagona javob bo'lishi lozim;
- 4) o'qituvchi to'g'ri javoblarni o'qiydi. Tinglovchilar o'zlariga berilgan qog'ozning "kalit" ustuniga javoblarni yozib chiqishadi.
- 5) tinglovchilar mustaqil ravishda kalitga asoslanib, "individual xato" va "guruh xatosi" ustunlarini to'ldiradi. Har bir tinglovchining va kichik guruh natijalari tahlil etiladi.

## 9. "ASSESSMENT" METODI

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

"Assesment"lardan ma'ruza mashg'ulotlarida tinglovchilarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

## 10. INSERT" METODI

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;



➤ ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

<b>Belgilar</b>	<b>1-matn</b>	<b>2-matn</b>	<b>3-matn</b>
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

#### **14.“PORTFOLIO” METODI**

“Portfolio” – ( ital. portfolio-portfel, ingl.hujjatlar uchun papka) ta’limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o‘quv-metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig‘indisi sifatida aks etadi. Jumladan, tinglovchi yoki tinglovchilarning modul yuzasidan o‘zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshirish mumkin bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

<b>Faoliyat turi</b>	<b>Ish shakli</b>	
	<b>Individual</b>	<b>Guruhiy</b>
Ta’limiy faoliyat	Tinglovchilar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Tinglovchilar guruhi, tinglovchilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O‘qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.



### III. NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

#### 1-mavzu: Ta'lim jarayonida innovatsion muhitni loyihalashtirishning mazmun mohiyati.

##### **Reja:**

1. Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari va tamoyillari.
2. Ta'lim jarayonini loyihalash: loyiha – mazmun – faoliyat.
3. Ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirishning tipologik belgilari.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** faoliyat, pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati), pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ni tashkil etish, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, loyiha ta'limi, pedagogik loyihalash, pedagogik loyihalash shakllari.

1. Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga to'la javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o'zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo'yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va erishilgan qator ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan, ta'lim samaradorligining rivojlanish dinamikasini yanada jadallashtirish, bunda yaratilgan shart-sharoitlar va imkoniyatlardan samarali foydalanish, bo'lajak mutaxassislarni yetkazib berish bugungi kunda eng dolzarb masala sanaladi.

Ma'lumki, yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiya bo'lganligi bois, bugun barcha davlatlar ta'lim tizimiga imkon qadar ko'p yangiliklar kiritishga intilmoqda. Madaniyatshunoslarning ta'kidlashicha, an'anaviy jamiyatda an'ana novatorlik ustidan xukmronlik qiladi, zamonaviy jamiyatda esa novatorlik bazaviy qadriyat hisoblanadi. Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti xukm surishi lozim. Ana shunday dolzarblikdan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonining innovatsion muhitini loyihalashtirishni jadal rivojlantirish muhim ahamiyatlilikni kasb etadi.

**Loyiha** – aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli bo'lib, dastur, model, texnologik xarita va b. ko'rinishda namoyon bo'ladi. Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g'oya tashkil etadi.

**Loyihalash metodi-** pedagogikaning pragmatik yo'nalishiga asoslangan holda, ta'lim jarayonida o'quvchilarga beriladigan amaliy topshiriqlarni loyihalash va ularni o'quvchilarning bajarishlari jarayonida bilim va ko'nikmalarni namoyon qilishlarini ta'minlovchi ta'lim shakli.





**Loyihalash** – boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat.

Loyihalash “**g'oya – maqsad – kutiladigan natija – taxmin qilish – bashoratlash – rejalashtirish**” tizimiga asoslanadi. Loyihalash turli vositalar, ya'ni moddiy buyum, qurollar, m: kompyuter texnologiyasi, vatmon yoki oddiy ish qog'ozi, chizg'ich, qalam, marker, nusxa ko'chirish apparati (printer) va b. yordamida amalga oshiriladi.

Loyihani yaratish uchun pedagog:

- loyihani yaratish;
- jarayonni bosqichma-bosqich yoritish;
- maqsadni aniq belgilash;
- maqsadga mos vazifalarni aniqlash;
- o'quv materialini mazmunini shakllantirish;
- savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- jarayon yoki tadbirning metodik tuzilishini asoslash;
- talaba bilim darajasini tashxislash va uning tarbiyalanganlik darajasini baholash kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur.

**Ta'lim jarayonini loyihalash** – alohida olingan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqish.

***Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari va tamoyillari:***

Pedagogik amaliyot mohiyatini tahlil etish natijasida ta'lim jarayonini loyihalashning bir necha qonuniyatlari ajratiladi, chunonchi:

1) ta'lim jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik jarayon, texnologik jarayonni boshqarish, vosita, axborot, ijtimoiy-iqtisoiy ta'minot)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi bilan ta'minlanadi;

2) ta'limning texnologik vositalari talabalarning individual xususiyatlariga bog'liq holda tanlanadi;

3) loyihalash strategiyalari pedagogning individual uslubiga muvofiq tanlanadi;

4) loyihalash sifati teskari aloqa (pedagog va talaba o'rtasidagi) ko'lami, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar samaradorligiga bog'liq.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlarida ta'lim jarayonini loyihalashda bir qator tamoyillarga tayaniladi. Ayni o'rinda dastlab tamoyil tushunchasining mohiyatini anglab olish zarur.

Tamoyil (latincha principium-boshlang'ich asos)- muayyan nazariya, fan, dunyoqarash, ijtimoiy-siyosiy tuzilma va hakazolarning asosiy boshlang'ich holati ma'nosini anglatadi.



*Ta'lim jarayonini loyihalash tamoyillari:*

1. Markazlashtirilgan tamoyil;
2. Refleksiv tamoyil;
3. Natijaviylik tamoyil;
4. Ko'p omillik tamoyili;
5. O'quvchi shaxsini ta'lim jarayoniga moslashtirish tamoyili;

6. Ta'lim tamoyillari – eng umumiy rahbariy nizom bo'lib, unda talabalarga ta'limning mazmuni, uni tashkil etish, texnologiyasi, uslubiyatiga nisbatan talablar ifodalanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, didaktik tamoyillar OO'Yuda pedagogik jarayonni tashkil etish tamoyillari bilan o'quvchilarning bilim olish faoliyatini boshqarish bevosita o'zaro bog'liqlikga egadir. Lekin ular shu bilan birga o'z xususiyatlariga va tarixiga egadirlar, ular ustida batafsilroq to'xtalishga to'g'ri keladi.

Sharq pedagogikasining mashhur namoyondalari Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Hayyom, Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy asarlarida ta'lim va tarbiyaning tajriba, kuzatuv, induksiya va deduksiya, amaliy-sinov, algoritmik ketma-ketlikdagi savol-javob, taqqoslash va boshqa uslublarini ilmiy holda asoslab berilgan, shu bilan birga bilim olish faoliyatini faollashtirish, bilimlarni amalda qo'llanishini, tizimlilik va ketma-ketlilik, mantiqiy-ligini ilmiy jihatdan yoritib berishgan. Allomalar tomonidan birlikning, xususiylikning va umumiylikning, yagonalikning, sabab-xulosaviy aloqalar, kuch yetadiganlik, materialni soddadan murakkabga tomon bayon etilishi, ko'rsatmalilik va shu kabi tamoyillar keng foydalanilgan.

Sharq qomusiy allomalari ta'lim va tarbiyaning shakllari, uslublari va tamoyillarini ishlab chiqdilar, ular hozirgi kunda ham o'z kuchini yo'qotgan emas. Ularning ishidagi qimmatli tomonlaridan biri shuki, ular barcha fanlarni ikkiga ajratganlar - amaliy va nazariy, ular orasidagi bevosita aloqani yoritib berganlar. Masalan:

Abu Ali Ibn Sino ta'limning quyidagi tamoyillarini aniqlagan:

- a) bolani birdaniga kitobga bog'lab qo'yish kerak emas;
- b) bola bilan o'tkaziladigan mashqlar me'yorlangan, kuchi yetadigan, jamoaviy bo'lishi, jismoniy mashqlar bilan birgalikda olib borilishi, bolaning mayllari va qobiliyati e'tiborga olinishi lozim;
- v) ta'lim yengildan og'irga tomon yo'nalgan bo'lishi kerak;
- g) ko'rsatmalilik tamoyiliga tayanib ish ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Burxoniddin Zarnujiy ta'limni hayot bilan bog'lashni, onglilikni, o'tilganlarni takrorlash, ketma-ketlikni va tizimlilikni taklif etadi.

Umar Hayyom bilimni chuqur, tushunib o'zlashtirilishi, mustaqil o'rganilishini, mustaqil fikriy faoliyat, hayotiy voqe'larni o'rganishga doir amallar, jarayonlarni ko'p martalab takrorlashga asosiy diqqat-e'tiborni qaratdi.



Alisher Navoiy, bolaning o'ziga xos xususiyatlariga, bilim orttirishga intilishining rivojlanganligiga, materialning ketma-ketlikda tushunarli bayon qilinishi, kishining xar tomonlama kamolot topishiga asosiy e'tiborni qaratadi.

Bir so'z bilan aytganda, ular quyidagilarga tayanishga chaqirganlar:

- ta'limning ilmiyligi;
- ta'limning sezib bo'ladiganligi, hayotning akslanishi sifatida; ta'limda tizimlilik, ketma-ketlik, ko'rsatmalilik (o'rganiladigan predmet va voqelikni to'liq o'zlashtirilishi uchun barcha sezgi organlaridan foydalanish);
- ta'limning mustahkamligi;
- o'quvchilarning yosh va o'ziga xos, yakka holdagi xususiyatlari, imkoniyatlarini bilish;
- o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishga ongli yondoshuv;
- o'quvchilarga ta'lim berishda turli faol shakllar va uslublardan foydalanish va shu kabilar.

Shunday qilib, IX-XIV asrlarda yashab ijod etgan Sharq olimlarining asarlarida ko'plab didaktik g'oyalar yoritilgan va ularning o'ziga xos qirralari ochib berilgan, ular hozirgi zamon pedagogikasida, Yevropa pedago-gikasida, ayniqsa ulug' chex pedagogi Ya.A.Komenskiyning harakatlari tufayli alohida tadqiqotlar predmetiga aylandi. U «Buyuk didaktika» asarida maktabda o'qitish tizimini amalga oshirishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilishni tavsiya etadi:

- ko'rsatmalilik tamoyili;
- onglilik tamoyili;
- izchillik va tizimlilik tamoyili;
- mashq qilish, bilim va malakalarni puxta egallash tamoyillari.

Bizning fikrimizcha, loyihaviy faoliyat tamoyillari deb, faoliyatni me'yorlaydigan umumiy ko'rsatkichlar yig'indisi tushuniladi, ular loyihalashning tabiati bilan aniq asoslanadi va shunga ko'ra pedagogning u yoki boshqa harakatlarini loyiha sohasiga tegishli ekanini ko'rsatadi. Ularni batafsil ko'rib chiqamiz.

Bashoratlilik tamoyili ob'ektning kelajagiga yo'nalgan loyihalash tabiatiga asoslangan. Ayniqsa, bu yangi loyihalarni yaratish uchun loyiha-lashdan foydalanilganda namoyon buladi. Loyiha kerakli kelajakni qadam-lab amalga oshirish sifatida ta'riflanishi mumkin.

Bosqichma-bosqichlilik tamoyili. Loyihaning faoliyati, tabiati, loyihaviy niyatdan maqsadga va harakatlar qiyofasini shakllantirishga asta-sekin o'tishni belgilaydi. Undan esa - harakatlar dasturiga va uni amalga oshirishga. Bunda har qaysi keyingi harakat oldingisining natijalariga asoslanadi.

Me'yorlash tamoyili loyihani tuzishning barcha bosqichlarining chegaralangan jarayonlar, birinchi navbatda fikriy faoliyatni tashkil etish-ning barcha shakllari bilan aloqadorlik chegarasidan o'tishlarini talab qiladi.



Teskari aloqadorlik tamoyili har bir loyiha jarayoni amalga oshirilganidan keyin uning natijaliligi haqida ma'lumotlar olish va harakatni tegishlicha tahrir qilishni nazarda tutadi.

Samaradorlik tamoyili loyihaviy faoliyatning mahsuldorligini, uning amaliy ahamiyatli natijani olishga yo'nalganligi shart ekanini uqtiradi. Boshqacha aytganda, loyihalash jarayoni natijalarning "mahsulli rasmiylashtirilganligidir".

Madaniy o'xshashlik tamoyili loyihalash natijalarining ayrim mada-niy namunalarga o'xshashligini ko'rsatadi. Madaniy sohadan tashqarida yotgan loyiha natijasini olish xavfi agar loyiha faoliyati qatnashuvchilarida o'quvchi yoki pedagogning yakka tartibdagi ijodiyoti o'z-o'zicha yetarli emasligi haqida tushuncha bor bo'lganida yo'qoladi. Madaniy jarayonga qo'shilish uchun uning o'zining o'rnini qanday bo'lishini bila olish, madaniy-tarixiy o'xshat-malarini o'rganish asosida odamzod erishganlarga nisbatan o'z karashlarini bayon qila olishga o'rganish lozim. Bunda ilmiy bilim olish va madaniy qadriyatlar bilan tanishish o'z mulohazalari va bilim faoliyati natijalari bilan solishtirgan holda amalga oshirish muhim o'rin tutadi.

O'z-o'zini rivojlantirish tamoyili ishtirokchilarning tarmoqlana-digan faollik darajasida loyihalash sub'ektiga, shuningdek, qo'yilgan maqsadni amalga oshirish natijasida yangi loyihalarning vujudga kelishiga taalluqli. Bir turdagi masalalar va muammolarning hal qilinishi loyiha-lashning yangi shakllarining rivojlanishi uchun yangi vazifalar va muammo-larni paydo qiladi.

Ta'lim jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyili.

O'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishning asosiy bosqichi – o'quv jarayonini loyihalashtirish hisoblanadi. O'quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni aniq mezonlari oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

**Dars maqsadi va natijasini belgilash** – o'qitish va o'qish jarayonlarining eng muhim omili bo'lib, ta'lim jarayonida aynan ular yetakchi o'rin tutadi. Darsning maqsad va natijasi DTS talablaridan kelib chiqib aniqlanadi. Ayni o'rinda shuni ham qayd etib o'tish kerakki, darsning maqsadi o'qituvchi tomonidan talabaga qanday bilim, ko'nikma va malakalarning berilishi nuqtai nazaridan emas, balki talabalar tomonidan darsda qanday bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi muhimligidan kelib chiqib belgilanishi zarur. O'z mohiyatiga ko'ra darsning maqsadi o'qituvchi va talabalarnig umumiy natijalarga qarab harakatlanishlarini belgilaydi. Shu sababli darsning maqsadi tashxisli ifodalanishi lozim. Ya'ni dars maqsadi aniq bo'lishi kerak.



Dars maqsadining aniq bo'lishiga erishish uchun o'qituvchidan quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi:

1) darsda yuzaga keladigan didaktik jarayon ma'lum sharoit va belgilangan vaqt ichida ta'lim maqsadiga erishishni to'la ta'minlay olishi;

2) o'qitish jarayonining yakuni bo'yicha maqsadni amalga oshirish darajasi to'g'risida aniq xulosa chiqarish imkoniyatining mavjudligi.

Shunga ko'ra aytish mumkinki, ta'lim maqsadlari talabalarning harakatlarida ifodalanadigan ta'lim natijalari belgilanadi.

Ta'lim texnologiyasining keyingi eng muhim komponenti – kutilayotgan natijadir. Binobarin, u o'qitish jarayonining samaradorligini aks ettiradi va maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi, o'qitish va o'qish jarayoni, natija qo'yilgan maqsadga mos kelganda yakunlanadi.

**Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish** – darsning didaktik maqsadi, kutilayotgan natija, o'quv materialning mazmuni asosida nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish, ularning hajmi, bajarilganlik darajasi, bajarilish sifati, vaqtiga ko'ra baholash mezonlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

**Ta'lim resurslarini tanlash** – mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan holda o'qituvchi, talaba va darsni tashkil etish uchun ta'lim vositalarining o'rinli tanlanilishini, ulardan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanishni ko'zda tutadi.

**O'qitish va o'qish strategiyasi** – belgilangan o'quv materiallarini talabalar ongiga yetkazish yo'llarini, ya'ni tanlangan ta'lim metodi, shakllarining amalda qo'llanilishini ko'zda tutadi.

**Darsning turini tanlash** – o'qituvchining mahoratiga ko'ra darsning didaktik maqsadi, o'quv materialining mazmuni, dars uchun ajratilgan vaqt, shuningdek, zarur shart-sharoitning tanlanilishini ifodalaydi.

**Darsning texnologik xaritasi** – dars ishlanmasining asosiy o'zagini tashkil etadi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Darsning texnologik xaritasi xususida ma'ruzaning keyingi o'rinlarida alohida to'xtalib o'tiladi.

**2. Ta'lim jarayonini loyihalash: loyiha – mazmun – faoliyat uchligi** asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihani yaratishdir.

Ta'lim jarayonini loyihalash quyidagi bosqichlarda kechadi:

1. Loyihani yaratish
2. Talabalar faoliyatini tashxislash
3. Pedagogik jarayonni tashkil etish
4. Pedagogik jarayonning samarali kechishini ta'minlash
5. Talabalar faoliyatini nazorat qilish

Ta'lim jarayonini loyihalashda bajariladigan **asosiy vazifalar** quyidagilardir:



- 1) pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
- 2) natijalarni oldindin ko'ra bilish;
- 3) rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish.

**Dars ishlanmasi** – bu ta'limiy mazmunga ega loyiha, shuningdek, o'qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo'lgan hujjat hisoblanadi. Uni tuzishda o'qituvchining dars jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, dars mazmuni boyitish, ta'lim samaradorligini oshirish **maqsadi** ko'zlanadi. Dars ishlanmasini yildan-yilga takomillashtirib va mukammallashtirib borish, yangi metodlarni qo'llash, yangi materiallarni kiritish bilan yangilab turilishi lozim. Binobarin, ta'lim jarayoniga yangi DTS, o'quv dasturlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalarning joriy etilishi, o'qituvchi tomonidan yangi axborot texnologiyalari, zamonaviy texnik vositalarining qo'llanishi bilan dars ishlanmalariga qo'yilgan talablar ham o'zgarib boradi. Dars loyihasi (ishlanmasi)ni uchun tayyor, standart qolip mavjud emas. Chunki dars “jonli” tashkil etilishi zarur. Darsning bu xususiyatiga ko'ra uni hech qanday qolipga solib bo'lmaydi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Ta'lim jarayonini loyihalash, odatda, texnologik pasport va texnologik xaritalar vositasida amalga oshiriladi.

**Texnologik pasport** (pedagogikada) – ta'lim yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirning asosiy ko'rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat.

**OTMdagi o'quv mashg'ulotining texnologik pasporti**

<b>Ma'ruza mavzusi</b>	
<i>Ma'ruzaga ajratilgan vaqt</i>	<i>Talabalar soni</i>
O'quv mashg'ulotining shakli va turi	
O'quv mashg'ulotining tuzilishi	
O'quv mashg'ulotning maqsadi:	
<b><i>Pedagogik vazifalar:</i></b>	<b><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></b>
Ta'lim metodlari	
Ta'limni tashkil etish shakli	
Didaktik vositalar	
Ta'limni tashkil etish sharoiti	
Nazorat	

**Texnologik xarita** (pedagogikada) – pedagogik (ta'lim va tarbiya) jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum ob'ektga texnik xizmat ko'rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan hujjat.



**OTMdagi o‘quv mashg‘ulotlarining texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich. Boshlang‘ich qism – o‘quv mashg‘ulotining tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi (15 daqiqa)		
2-bosqich. Asosiy qism – bilimlarni mustahkamlash bosqichi (55 daqiqa)		
3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)		

Ta’lim jarayonida yangi innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda o‘quv dasturi mazmunining mukammalligi, darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarining zamonaviy talablar asosida yaratilganligi, o‘quv rejasi mohiyatining nazariy va amaliy jihatlariga ko‘ra yagona maqsadga erishish uchun xizmat qilishi, mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik shart– sharoitlarning mavjudligi, pedagog va talabalar o‘rtasida samimiy, ijobiy munosabatlarning qaror topishi kabi masalalar inobatga olinadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizday, respublikaning ta’lim tizimi va ilmi oldida turgan asosiy vazifalardan biri bu madaniy va bilimli yoshlarni tarbiyalashdir, chunki ular mamlakatdagi o‘zgarishlarni davom ettirishlari va butun jamiyatning gullab-yashnashi uchun bunyodkorlik ishlarini olib borishlari kerak. Mamlakatimizning barcha ta’lim muassasalari o‘qituvchilari oldida turgan muhim vazifa - bu o‘quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishdir.

Ta’limdagi innovatsiya deganda pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni, metodlar, usullar va o‘quv qo‘llanmalar to‘plami tushuniladi. Zero, hozirgi vaqtda innovatsion pedagogik faoliyat har qanday ta’lim muassasasining o‘quv faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Innovatsion faoliyat ta’lim xizmatlari bozorida ta’lim muassasasining raqobatbardoshligini yaratish uchun asos yaratadi, o‘qituvchining kasbiy o‘sish yo‘nalishlarini, uning ijodiy izlanishlarini belgilaydi va o‘quvchilarning shaxsiy o‘sishiga yordam beradi.

O‘qituvchining yangi tipi - bu zamonaviy ta’lim metodlari va texnologiyalari, psixologik-pedagogik texnologiya usullarini biladigan, muayyan amaliy faoliyat sharoitida pedagogik jarayonni mustaqil ravishda loyihalashtirish usullariga ega bo‘lgan va pedagogik faoliyat natijasini oldindan bashorat qila oladigan ijodiy fikrlovchi o‘qituvchidir. Maxsus fanlar o‘qituvchilari oldida o‘z fanini hamma uchun qiziqarli bo‘lishi, talabalarda bilimga qiziqish uyg‘otishi va o‘z



qobiliyatlarini kashf etishlariga yordam berishi, ularning bilim faolligini oshirish kabi vazifalar turibdi.

Ta'limga joriy qilingan yangi axborot texnologiyalari uning sifat jihatidan yangi bosqichlarga ko'tarilishiga yordam beradi.

Innovatsiyalar yoki yangiliklar kiritish insonning har qanday kasbiy faoliyatiga xosdir va shu sababli tabiiy ravishda o'rganish, tahlil qilish va amalga oshirish predmetiga aylanadi. Innovatsiyalar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, ular ilmiy izlanishlar, alohida o'qituvchilar va butun jamoalarning ilg'or pedagogik tajribasi natijasidir. Ushbu jarayon o'z-o'zidan bo'lishi mumkin emas, uni boshqarish kerak.

Zamonaviy tezkor o'zgarishlar asrida siz o'zingiz shug'ullanayotgan ishingiz haqidagi odatiy tasavvurlardan voz kechishingiz, ba'zi yangi yo'nalishlarda doimo takomillashib borishingiz kerak bo'ladi. Ilmiy va ijtimoiy taraqqiyot odamlarning mehnat sharoitlari va mazmunini tezlik bilan tubdan o'gartirmoqda. So'nggi o'n yillikdagi milliy pedagogik tizimda ham juda ko'p o'zgarishlar yuz berdi.

Bunday sharoitda o'qituvchi keng qamrovli innovatsion texnologiyalar, g'oyalar, yo'nalishlar bo'yicha harakat qilishi, ma'lum bo'lgan narsalarni kashf qilish uchun vaqt sarflamasligi kerak. Bugungi kunda ta'lim texnologiyalarining butun katta arsenalini o'rganmasdan turib, pedagogik jihatdan malakali mutaxassis bo'lish mumkin emas. "Kasbiy pedagogika" da quyidagi ta'rif berilgan: "Innovatsiya - bu texnika, texnologiya, pedagogika, ilmiy izlanishlar sohasida yangi amaliy vositalar (yangilik, innovatsiya)ni yaratish, tarqatish va ulardan foydalanishdan iborat bo'lgan kompleks jarayondir".

Demak, yangi amaliy vositalar bo'lmasa, yangilik ham bo'lmaydi. Biroq, hammasi ham shunchaki oddiy emas: pedagogikada "yangi amaliy vositalar" unchalik ko'p emas. Demak, innovatsiyaga faqat vositalarni yaratish deb qarash kerak emas. Innovatsiya bu ham g'oyalar, ham jarayonlar, ham vositalar va natijalar bo'lib, bu pedagogik tizimni sifat jihatidan takomillashtirish birligida amalga oshiriladi. Innovatsiya ob'ektlari quyidagi muammolarni o'z ichiga oladi: ta'limiy va tarbiyaviy faoliyat motivatsiyasini oshirish, darsda o'rganiladigan materiallar hajmini qanday oshirish; o'rganish tezligini qanday tezlashtirish; vaqtni behuda sarflashni qanday bartaraf etish va m.k.

O'quv -tarbiyaviy jarayonning faol shakllaridan hamda ta'lim va tarbiyaning yangi texnologiyalaridan foydalanishning puxta o'ylangan metodlarini joriy etish - innovatsion g'oyalar ishlanmasining doimiy yo'nalishlaridandir. Faoliyat samaradorligining darajasi to'g'ridan-to'g'ri professionallik darajasi bilan bog'liq bo'lib, uning eng yuqori namoyon bo'lishi uning texnologik jihati hisoblanadi.

Bugungi kunda innovatsion pedagogik texnologiyalarga katta qiziqish tug'dirgan quyidagi sabablarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, pedagogikaga tizimli-faoliyatli yondashuvini joriy etish zarurati. Ikkinchidan, ta'lim





jarayonini individuallashtirish va individual rivojlantiruvchi ta'limni joriy etish zaruriyati. Uchinchidan, bilimlarni uzatishning samarasiz verbal usullarni istisno qilish. To'rtinchidan, o'qitish natijalarini kafolatlovchi va malakasi past o'qituvchilar ishining salbiy oqibatlarini kamaytiruvchi usullar, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir shakllarining texnologik zanjirini loyihalashtirishni rag'batlantirish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar raqobat sharoitida mavjud bo'lib, o'qitishning ma'lum bir darajasiga erishishni kafolatlashi, natijalar vaqt, kuch va mablag'larning optimal sarflanishi bo'yicha samarali bo'lishi kerak. Hozirgi kunda ta'limning turli xil innovatsion texnologiyalari rivojlandi. Barcha texnologiyalar asosida har bir talaba uchun adaptiv sharoit yaratish g'oyasi yotadi, ya'ni ta'lim mazmuni, usullari, shakllari va mustaqil shaxsga maksimal yo'naltirilganligi talabaning xususiyatlariga moslashadi.

Innovatsion pedagogika butun pedagogik jarayonni ham ta'lim, ham tarbiya sifatida qayta ko'rib chiqishni, o'quvchiga faoliyat sub'ekti sifatida qarashni talab qiladi. Qayta o'ylash zarurati fikrlashning yangi turlariga va voqelikni o'zgartirishning yangi usullariga o'tish bilan bog'liq holda paydo bo'ladi. Bugungi kunga kelib ta'lim amaliyotida bilimlar, ko'nikma va malakalarni uzatish, muammoli, dasturlashtirilgan, ko'p darajali, moslashuvchan, modulli mashg'ulotlar va boshqalar texnologiyasi ishlab chiqilgan va qo'llanilmoqda. Ta'lim texnologiyalari bilan tanishish va ishlab chiqishda ularning o'ziga xos xususiyatlari qanday psixologik va pedagogik nazariyalar va yondashuvlardan foydalanilganligini tushunish imkonini beradi.

"Innovatsiya" tushunchasi bizning kasbiy hayotimizda mustahkam o'rnashgan. Bugungi kunda innovatsion hodisalar pedagogik jarayonning barcha elementlarida uchraydi. O'qitishdagi innovatsiyalar - bu yangi o'qitish metodlari, ta'lim mazmunini tashkil qilishning yangi usullari, ta'lim natijalarini baholash usullaridir.

Demak, bo'lajak raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mazmunini yangilash pedagog kadrlarning bilim va kasbiy malakalari darajasini yuqori bosqichga ko'tarishga qaratilgan bo'lib, ularning shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirish jarayonini innovatsion usullarda tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi. **Ta'lim jarayonini loyihalash ana shunday innovatsion usullardan biri hisoblanadi.** Innovatsion pedagogik loyihalashtirish konsepsiyasi o'zida tizimli, faoliyatli va informatsion yondashuvlar g'oyalariga asoslangan nazariy-metodologik va metodologik-texnologik bilimlar tizimini namoyon etadi.

Ta'lim sohasida loyihalashtirish metodini qo'llash 1990-yillarning ikkinchi yarmida ta'limni standartlashtirish g'oyalarining rivojlanishi bilan bog'liq holda faollashdi. Loyihalashtirish g'oyalari pedagogik tizimlar, ta'lim muhiti, shaxs, ta'lim va tarbiya mazmuni, shaxs rivojlanishining taxmin qilinadigan natijalari



darajalarida tarqaldi. Yangi o'quv rejalarida bo'lajak mutaxassislarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadida kasbiy bilim va ko'nikmalarni puxta egallashga ustuvor ahamiyat berilgan, maxsus va umumkasbiy fanlarni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari vositasida o'qitishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa ta'lim jarayonlarini loyihalash mazmuni va metodologik asoslarini aniq belgilashni taqozo etadi. O'qitish mazmunini belgilashda ikki asosiy strategiyaga tayanish mumkin:

1) bo'lajak mutaxassislar shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim strategiyasi;

2) bo'lajak mutaxassislarni kasbiy shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim strategiyasi.

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim strategiyasi mutaxassisning aniq kasbiy faoliyatini tahlil qilishga tayanadi. Bunday loyihalashning afzalligi shundaki, ta'lim mazmuni mutaxassis tayyorlashga qo'yilayotgan talablarga qat'iy mos keladi, bu esa, shak-shubhasiz, mutaxassislar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zero, loyihalash jarayon sifatida me'yoriy va ijodiy xarakterga ega ekani ta'kidlanadi. Bir tomondan, loyihalash jarayoni me'yorlangan, o'z bosqichlari, amalga oshirish tamoyillari va usullariga ega. Boshqa tomondan, pedagogning ijodiy qadriyatli yo'nalganligiga tayanadi.

**3. Ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish quyidagi tipologik belgilarga ko'ra tavsiflanishi mumkin:**

1. Pedagogik loyihalashtirish tizimlilik tabiatiga ega bo'lgan murakkab tuzilmali ob'ekt hisoblanadi.

2. Pedagogik loyihalashtirish jarayonlari yaxlitligi tizimlilikka erishish tushunchasi bilan bir ma'noni, ularning uyg'unligini anglatib, bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish maqsadlarini o'zida mujassamlashtiradi.

3. Axborot texnologiyalari ta'lim muhiti, ta'lim jarayonlari sifati va samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lishi bilan birga uning vositasi hamdir, ya'ni pedagogik loyihalashtirish aniq bir maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini ta'minlovchi dasturiy, axborot-texnik, o'quv-metodik tizimlar majmuasidir.

Pedagog olimlarning fikricha, ta'lim paradigmalari almashayotgan hozirgi vaqtda loyihalash-dasturlash borasida ilmiy qarashlar shakllanmoqda. Uning asosini ishlab chiqish, shakllantirish va yaratish bilan xarakterlanadigan, ta'lim tizimlari amaliyotida hali mavjud bo'lmagan loyihalashtirish va dasturlash faoliyati tashkil etadi. Bunda mavjudlaridan farq qiladigan, prinsipial yangi ta'lim tizimlari va ularning fragmentlarini ilmiy asoslash va konstruktiv ishlab chiqish ta'minlanadi.



Hozirgi sharoitda o'qituvchi faoliyatining sifati uning pedagogik loyihalashtirish ko'nikmalariga ko'p jihatdan bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, pedagogik loyihalashtirish mohiyatini aniq va ravshan tushunib olish va uni pedagogik innovatika qonuniyatlari va tamoyillarini hisobga olgan holda amalga oshirish talab etiladi. Pedagogik loyihalashtirishning innovatsion loyihalarni yaratish bosqichi sifatida tadqiqotchilar quyidagi g'oyalarga tayanib ish tutadi:

1. Pedagogik loyihalashtirish ta'lim jarayoniga kiritiladigan innovatsiyalarni yanada sifatli tayyorlashga xizmat qiladi.

2. Pedagogik loyihalashtirish boshqariladigan jarayon bo'lib, uning asosini pedagogning ijodi tashkil qiladi va u murakkab ichki tuzilmaga ega bo'lgan tizimdir.

3. Pedagogik loyihalashtirish variativ xarakterga ega bo'lib, loyihalashtirilgan ob'ekt va pedagog o'rtasida eksperimental harakatlar orqali amalga oshiriladigan qaytar (aks) aloqa bo'lishini nazarda tutadi.

4. Pedagogik loyihalashtirish samaradorligiga tashqi muhit katta ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik loyihalashtirish ob'ektlari sifatida pedagogik va o'quv faoliyatining innovatsion metodlari va usullari, pedagogik texnologiyalar, ta'limning yangi texnologiyalari va tashkiliy-pedagogik jarayonlarni qarash mumkin.

Loyihalashtirish faoliyati metodologiyasining asosini loyihalashtirish texnologiyasi, uning mantiqiyliги va bosqichliligi tashkil etadi. Loyihalashtirishning umumiy ta'rifiga muvofiq, pedagogik loyihalashtirishni faoliyat sifatida quyidagicha ta'riflash mumkin:

- samarali ta'lim jarayonlari va pedagogik faoliyat turlarini ishlab chiqish maqsadida amaliy yo'naltirilgan faoliyat;

- zamonaviy bilimning rivojlanayotgan yangi sohasi, pedagogik voqelikni talqin qilish uslubi;

- pedagogikaning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish, o'zgartirish, takomillashtirishga oid masalalarni hal qilish va mavjud pedagogik ziddiyatli holatlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan ilmiy amaliy yo'nalishi va tashkil etiladigan amaliy faoliyat shakli.

Ta'lim jarayonlariga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini pedagogik loyihalashtirish orqali tatbiq etishda asosiy vazifalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- yangi axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishning zaruriy moddiy-texnik bazasini yaratish;

- ta'lim jarayoni uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini loyihalash va qo'llash;

- bo'lajak o'qituvchining zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish;



- zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim jarayonlarini loyihalab, samaradorlikka erishish.

Ta'lim maqsadlariga erishishda pedagogik dasturiy vositalar: ta'lim jarayonini individuallashtirish va differensiyalash; talabning o'z o'quv faoliyatini o'zi nazorat qilishi va to'g'ri yo'naltirishi; kompyuterning hisoblash imkoniyatlaridan foydalanish tufayli o'quv vaqtini tejash; o'quv materiallarini vizuallashtirish; o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish, ularni imitatsiyalashtirish; talabalarning o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyati; turli pedagogik vaziyatlarda optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish; fikrlashning aniq bir shaklini (ko'rgazmali-obrazli, nazariy) rivojlantirish; kasbiy bilimlarni egallash motivlarini kuchaytirish; bilish faoliyati madaniyatini shakllantirish imkoniyatlarini yaratadi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonida ham loyihalar bilan ishlashga asoslangan loyiha ta'limi faol qo'llanilmoqda.

**Loyiha ta'limi** – ta'limiy xarakterdagi aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ta'lim

Ta'lim jarayonida loyihani ishlab chiqish turli manbalar: maxsus adabiyotlar, monografiya, jurnal maqolalari, gazeta nashrlari, Internetdan ma'lumotlarni izlash, maxsus va ijtimoiy so'rovnomalarni tashkil etish orqali axborotlarga ega bo'lish bilan bog'liq.

Loyiha natijasi (mahsuloti) – buklet, nashr ishi, elektron o'quv-ta'lim resursi shaklida taqdim etilgan, tanlab olingan, tahlil qilingan, umumlashtirilgan hamda tizimlashtirilgan axborotlar sanaladi.

Ta'lim-tarbiya umumiy tizimining pedagogni shaxsiy-kasbiy shakllantirish tomon yo'nalganligi keyingi yillarda talabalarni pedagogik oliy o'quv yurtlari sharoitida tayyorlash tarkibi, mazmuni va texnologiyalarida jiddiy o'zgarishlar vujudga kelishiga olib keldi. Pedagogik ta'limning insonparvarlashtirish, tabaqalashtirish va xalqchillashtirish uzluksiz ta'lim tizimini nisbatan tez moslashuvchan, o'zgaruvchan, ochiq qildi. Natijada talaba-o'quvchilarning o'zlari tomonidan ta'lim olish yo'llarini tanlashga aniq zamin vujudga keldi, bu esa ularning shaxsiy – kasbiy ehtiyojlari va intilishlariga ancha to'liq javob bera oladi. Ta'limni insonparvarlashtirish dastavval shaxsga yo'naltirilgan ta'lim g'oyasiga asoslanadi, bu esa savodxonlik pedagogikasidan rivojlantirish pedagogikasiga o'tishda namoyon bo'ladi. Demak, ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirishning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasiga daxldorligi uning asosiy holatlarini aniqlashtirishni talab qiladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limdan kuzatilgan maqsad – kishida o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini yo'naltira olish, o'z taqdirini o'zi belgilay olish mexanizmlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishki, bular shaxsiy, o'ziga xos obrazning shakllanishi, kishilar, tabiat, madaniyat bilan dialogik



o'zaro munosabatlari uchun zarurdir. Shu bilan birga biz o'zining imkoniyatlarini amalga oshirish, deb kishi tomonidan unda mavjud iste'dod va qobiliyatni eng yuqori darajada rivojlantirish jarayoni va natijasini, ularning amaliyotda tadbqiq qilinishini tushunamiz. Bu, shuningdek, shaxsning o'z-o'zini doimiy rivojlantirishidan xam iboratdir.

O'z-o'zini anglash – shaxsning o'z harakatlari, muomalalari, intilishlari, manfaatlarini boshqa kishilar manfaatlarini, harakatlari, intilishlari bilan moslashtirishga doimiy intilishidan, o'zida ijtimoiy manfaatlarga amal qilishni vujudga keltirishdan, bunda o'zidagi shaxsiy va takrorlanmas o'ziga xoslikni yo'qotmaslikdan iborat.

O'z o'rnini belgilab olish – shaxsning ma'naviy, axloqiy o'rnini shakllanishi, o'zida "Men"ning o'rin olishi, o'ziga, jamiyatdagi, hayotdagi o'z o'rniga tushunib yetishidan iborat. Oliy ta'lim muassasasida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning amalga oshirilishiga bo'lgan zaruriyat oliy maktabni isloh qilish yo'nalishida muhim yo'nalishlarni ishlab chiqarish jarayonida rasmiylashtirilgan ta'lim taraqqiyoti bilan o'z tasdig'ini topadi.

Uning asosiy qismlari "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning va "Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturi» ijro hujjatlarida bayon qilingan. Dasturning o'zaro bog'langan qismlari shaxsni shakllantirish va uning manfaatlarini qondirish, uzluksiz ta'lim tizimini yaratish, ijtimoiy rivojlanishning hozirgi zamon an'analari mos ravishda fanni rivojlantirishdan iboratdir". Oliy o'quv yurtlari tomonidan mutaxassislarni tayyorlashni insonparvarlashtirish muammosini yechish yo'llarini izlash xam o'quv fanlarining o'qitilishini ixchamlashtirish va jadallashtirish yo'li bo'yicha, xam talabalarning yakka tartibda bilim orttirish fazilatlarini, ularning qiziqishlari, moyilliklarini hisobga olinishini ta'minlash bo'yicha olib borilmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'limni takomil-lashtirish sharoitida aniq metodologik asoslarni izlash dolzarb tus oldi. Kasbiy ta'lim sifati muammolarini tahlil qilish jarayonida metodologik asos sifatida pedagogik loyihalash namoyon bo'ladi.

"Pedagogik loyihalash – pedagogning pedagogik masalalarni yechishga qaratilgan ketma-ket o'zaro bog'liq harakatlari tizimi yoki oldindan rejalashtirilgan pedagogik jarayonning amaliyotga ketma-ket mujassamlanishi sanaladi".

Loyihalash muammosi o'zining rivojlanish tarixiga ega. "Pedagogik loyiha" atamasi ko'proq quyidagi ma'noga ega bo'lgan pedagogik ishlarda uchraydi: loyiha – ta'lim tizimini loyihalashtirishga qaratilgan holda rasmiylashtirilgan pedagogik g'oyalar, pedagogik jarayonlar va texnologiyalar majmuasi, shuningdek, ularning amaliy joriy etilish dasturlaridir. Bu holda loyihalash, pedagog-olim Ye.S.Zair-Bekning fikricha, mavjud narsani nimagadir aylantirish zarurligi yuzasidan g'oyalar va harakat dasturini ishlab chiqarishdan iborat. Ishlab chiqilgan g'oyalar va harakat dasturi loyihalash mahsuli sifatida ro'y beradi.



Loyihalash dastlab kasbiy faoliyat sohasi sifatida texnika, qurilish, ishlab chiqarishda paydo bo'ldi, so'ng iqtisodiyot, boshqarish, ijtimoiy sohadagi faoliyatga, xususan, pedagogik faoliyatga tatbiq etilgan. Pedagog-olim V.E.Radionovanning fikricha, loyihalashning ko'p qirrali madaniy-tarixiy fenomeni o'z faoliyatining barcha sohalarida hozir bo'lgan istalgan kishining hayotiy faoliyatning tub mohiyatidan kelib chiqadi.

Ilmiy yoki amaliy jihatdan kasbiy pedagogik faoliyat bu qatorda mustasno emas. Kishining maqsadga muvofiq harakati shu faoliyatdan olinishi mumkin bo'lgan natijalarni rejalashtirilishiga bog'liqligi oldindan aniqlangan. Asrlar davomida pedagog o'zining kundalik ta'lim berish va tarbiyalash amaliyotida turli-tuman qarorlarni qabul qilishga to'g'ri kelgan va bu aynan uning shu kabi qarorlarning oqibatlarini yakka tartibda rejalashtirishiga, uning oldingi amaliy tajribasi ostida ishlab chiqilgan kasbiy his-tuyg'usiga asoslangan.

O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlarining asarlarida, jumladan, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Muhammad Tarag'ay Mirzo Ulug'bek, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiylarning asarlarida, shuningdek, qadimgi yunon faylasuflari Aristotel, Sokrat, Platonning asarlarida, hozirgi kunda ham biz uchun g'oyat darajada qiziqarli bo'lgan, xususan, ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifasi, mazmuni va usullariga oid tashhisiy mulohazalar va fikrlar mavjud.

Ulug' alloma Abu Ali ibn Sino, ulug' qomusiy olim, inson mohiyati va mohiyaviy kuchi muammosini tadqiq qilar ekan, abstrakt narsalarning g'oyaviy yetilish ma'nosini "hayotiy narsalarni fikran qarash" sifatida aniqladi. Shunga ko'ra har bir uchun bilim borliqda mo'ljalni to'g'ri olish uchun, hodisalarni tushuntirish va oldindan ko'rish uchun, faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirish va boshqa bilimlarni ishlab chiqish uchun zarur bo'ladi. Bilim – voqelikni o'zgartirishning juda muhim quroli. U tez rivojlanayotgan o'zgaruvchan tizimdan iborat, uning o'sishi hozirgi sharoitda o'zining sur'ati bo'yicha boshqa har qanday tizimning o'sishiga qaraganda jadalroqdir. Kishilarning qayta o'zgartuvchi amaliy faoliyatida bilimlardan foydalanish qoidalarning maxsus guruhi bo'lishini taqozo qiladiki, bu qoidalar qanday holatda, qaysi vosita yordamida va qanday maqsadlarga erishish uchun u yoki bu bilim zarur bo'lishini ko'rsatadi.

Ulug' matematik, astronom Mirzo Ulug'bek o'z shogirdlariga tez-tez shunday deb turgan: "Agar Yerdagi voqelikni yaxshi tushunishni istasang, kelajakni yaxshi rejalashtira ol". Astronomiya, matematika, fizika, tibbiyot, geografiya, tarix va lingvistikaga oid ko'plab asar yozgan buyuk mutafakkir Abu Rayhon al-Beruniy ta'kidlagan: "Aqlli kishi kelajak avlod uchun foyda keltirib, u aql va idrok bilan hammani mushohada eta olsagina, ruhan qanoat hosil qilgan".

O'zbekistonda faol ijtimoiy-pedagogik tafakkur rivojlanishiga Toshmuhammad Qori-Niyoziy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori Abdurashidxonovlar katta hissa qo'shdi. Ularning asarlarida kelajak kishi siymosini yaratish g'oyasi muammosi alohida



o'rin egallaydiki, unga erishish yo'lida tarbiyaning tegishli tizimi barpo bo'lishi lozim edi. Mashhur o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy o'z asarlarida ko'p marta o'z diqqatini pedagogikaning vazifalarini tahlil qilishda, uning tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaviy faoliyatning san'at sifatidagi ahamiyatini yoritishga qaratdi. Abdulla Avloniyning fikricha, "tarbiya san'atlarning oliysidir, san'at esa hali mavjud bo'lmagan tomon intiladi, uning oldida ijodiyotning kelajakdagi maqsadi va g'oyaviy siymosi gavdalanadi".

Mutafakkir pedagoglar qoldirgan boy ijodiy merosdan olingan misollar shuni ma'lum qiladiki, ular pedagogik rejalashtirish (loyihalashtirish) qadimdan muhokama markazida bo'lganligini ko'rsatadi. Keltirilgan fikrlar, shubhasiz, hozirgi zamon pedagoglarining ishlarida mavjud bo'lgan pedagogik rejalashtirish vazifalarini chuqurroq tahlil qilish uchun boshlang'ich nuqta vazifasini o'taydi.

Loyihalash – muhitni fikran o'zgartirishdir. Loyiha axborot muhiti doirasidagi faoliyat natijasi, buyum esa – moddiy ob'ektlar muhitidagi faoliyat natijasidir. Shu yondashuvdan kelib chiqib, pedagog-olim Ya.Ditrix tomonidan loyiha buyumni mavhum tasavvur etishni beruvchi tushunchalar tizimi, deb tushuntiriladi; yig'ma tahlil natijasida olingan moddiy jamlanma xususiyatlari majmuasi, u yig'ma tahlil natijasida olinadi va ijodiy yoki ijro etish niyatini ifodalaydi. U holda loyihalashga harakatning ayrim usulini tanlash sifatida qaraladi, xususi holda – tizimli harakatning mantiqiy asosi sifatida tushuniladi.

Loyiha – loyihachi tomonidan bunyod etilgan yangi bino, u holda loyihalash jarayonining o'zini ijodiyot tarzida qarash mumkin, ya'ni biror yangi narsani hosil qilish jarayoni, deb. Ijodiyotning mohiyati falsafada o'rganiladi. Dialektik materializm nuqtai nazaridan, "ijodiyot – kishining haqiqatning ob'ektiv qonunlari asosida shaxs va insoniyat maqsadi va ehtiyojiga muvofiq tabiiy va sotsial dunyoni o'zgartiruvchi faoliyatidir". Ijodiyot o'zining takrorlanmaslik, asillik va ijtimoiy-tarixiy noyobligi tavsiflanadi. Ijodga qo'yilgan vazifani amalga oshirish maqsadi bo'lgan ixtirochilikday pragmatik qarash ham tuzish-qurishdek tuyuladi.

Loyihalash ijodiy jarayon sifatida quyidagi bosqichlarni bosib o'tadi:

- 1) ilhomlanish;
- 2) hissiy cho'kish;
- 3) tafakkur;
- 4) tasavvurning birgalikda ishlashi;
- 5) ongning eng ko'p o'tkirlashuvi;
- 6) qo'yilgan maqsadga erishish yo'llari;
- 7) maqsad natijasining munavvarligi;
- 8) maqsad natijasining yorqinligi.

Loyihalash muammolari tadqiqotchilari bu faoliyatning ijodiy turdaligi haqidagi fikrni quvvatlaydi. Amerikalik pedagog P.Xill ijodiyotni "fikrning ma'lumlar



chegarasidan tashqari tomonga muvaffaqiyatli uchishidir”, “loyihalay olish – bu bir vaqtda ham fan va ham san’atdir” deb umumlashtiradi, ya’ni ham ilmiy va ham amaliy ijodiyotning belgilariga egadir.

Loyiha faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil qilish bir qator talablarni bajarishga bog‘liq. Sohalilikni talab etish, ya’ni, loyihalash predmetni himoyalanganligini tasvirlash, ma’lum sohalar bilan bog‘lash, degan so‘zdir. Ta’lim tizimining ishlashi va rivojlanishi nafaqat psixologik-pedagogik muammolarni, balkim, falsafiy, madaniyatshunoslik, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, fiziologik va boshqa muammolarni ham e’tiborga olishni talab qiladi, pedagogik loyihalash fanlarning keng ko‘lamini yorituvchi fanlararo mazmundagi bilimlar bilan ishlay olishga aloqadordir. Agar biz loyihalashtirish natijasida ta’limning yangi modelini olishni istasak, oldin u qamrab oluvchi barcha ijtimoiy-ta’limiy sohalarini tahlil qilish kerak. Loyihaviy qarash doirasiga modelning harakat muhitidagi ta’limning ijtimoiy vaziyati, bir butun ta’lim mazmuni, o‘quvchilarning taqdiri kirgan bo‘ladi; barcha unga qo‘shimcha ta’lim shakllari va qadamlari, qonunchilik me’yorlari va shu kabilar kiradi. Masalan, maqsadi ingliz tili bo‘yicha bitirish imtihonining yangi shaklini tayyorlash bo‘lgan ta’lim loyihasi chegarasida yetarlicha keng ijtimoiy-didaktik sohani tahlil qilishga to‘g‘ri keldi. Unga maktab bolalarini til bo‘yicha tayyorlashning barcha aylanmalari, nazorat shakllari, xorijiy tillar o‘qituvchilariga kasbiy ta’lim tizimi, o‘quvchilar va pedagoglarning boshqa fanlar bo‘yicha testlar bilan ish tajri-balari, mavjud o‘quv qo‘llanmalari tizimi, ma’muriy munosabatlar tizimi va shu kabilar kirdi.

Ta’lim-tarbiyaga manfaatdor tomonlar – shaxslar, davlat, jamiyat ehtiyojlarining turliligi bilan jamiyat hayotida alohida o‘rin tutadi va uning barqaror rivojlanishga layoqatini ifoda qiladi. Ta’lim tizimining samarali ishlashi masalasi bilan haqiqatda mamlakatning barcha fuqarolari qiziqadi: dastlab ular umumiy ta’lim muassasalarida o‘qiydilar, so‘ng bolalari o‘qiydi, o‘zlari esa malakalarini oshirish imkoniyatiga egadirlar. Bu holat odamning barcha hayot davrida uzluksiz ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga imkon beradi.

Pedagogik loyihalashga qo‘yiladigan talablar. Faollikning ifodalaridan biri – loyihaga ixtiyoriy tarzda qo‘shilish va hissiyotli-qadrlil tarzda yashashdir. Loyihani tuzish jarayonida, nafaqat bevosita qatnashuvchilarning, shuningdek, bunga shunchaki aralashayotgan-larning, loyiha muammolarini muhokama qilishda ishtirokchilarning faolligini e’tiborga olish muhim sanaladi. Loyihalashning xususiyati shundaki, unda barcha fikrlar va takliflar nazarda tutilishi, barcha qabul qilingan qarorlar ilmiy asoslangan bo‘lishi kerak. Agar pedagogik loyiha-ning muhokamasida malakali mutaxassislar, olimlar, jamiyat tashkilotlari faol ishtirok etsalar, uning sifati yuqori bo‘ladi.

Ta’lim tizimini loyihalashtirishda samarali natijaga mualliflar jamoalarini tuzish orqali erishiladi, bunga jamiyatning turli qatlam-lardagi, davlat, nodavlat, jamiyat





tashkilotlarining vakillari kiradi. Aniqlikka talab loyihaviy maqsadlarga erishish uchun kafolatning ta'min-langanligiga bog'lik. Buning uchun loyihaviy faoliyatga qatnashayotgan kishi-lar belgilangan o'zgarishlarni amalga oshirishda zarur bo'ladigan vakolat darajasiga ega bo'lishlari, loyiha esa zahiralar nuqtai nazaridan ta'min-langan bo'lishi xam zarur.

Boshqarishga quyiladigan talablar. Loyihani boshqarishning unumliligi ko'p jihatdan loyiha intizomi mavjudligiga bog'liq, bu esa harakatlarning vaqtinchalik chegaralanganligini, bajariladigan ishlarning mazmunan va texnologik muayyan bo'lishini talab qiladi. Boshqaruvning muvaffaqiyatli bo'lishi, shuningdek, har qaysi loyihaviy ishlarning axborotli ta'minlanganligining to'liq bo'lishiga bog'liq, bu esa o'z navbatida boshlang'ich tashxisli, xulosaviy va boshqa ma'lumotlarni olishni talab qiladi.

Loyihalash faoliyatining texnologikligi qayta o'zgartirish harakatlarning birgalikda olib borilishiga, cheklangan bosqichining samarasiga asoslanadi. Bunda qayta o'zgartiruvchi samara ham birgalikdagi natijaga va ham loyiha ishtirokchilariga taqaladi. Loyihalashtirish tabiatidan kelib chiqib, pedagogik loyihalarda bir qiymatli qarorlar yo'qligini e'tirof qilish lozim, loyihaviy faoliyat esa mazmunni va texnologik ko'p ko'rinishlilikdir.

Pedagogik ob'ektni loyihalash bo'yicha amallar tartibi:

### **Tayyorlov ishlari:**

- 1.Loyihalash ob'ektini tahlili
- 2.Loyihalash mazmunini aniqlash
- 3.Loyihalashning nazariy ta'minoti
- 4.Loyihalashning uslubiy ta'minoti
- 5.Loyihalashning fazoviy-vaqtli ta'minoti
- 6.Loyihalashning moddiy-texnik ta'minoti
- 7.Loyihalashning huquqiy ta'minoti

### **Loyihani ishlab chiqish:**

8. Tizimni shakllantiruvchi omilni tanlash
9. Qismlarning o'zaro aloqadorligi va bog'liqligini aniqlash
10. Hujjatlarni tayyorlash

### **Loyihaning sifatini nazorat qilish:**

11. Loyihani qo'llanilishini xayoliy tajribadan o'tkazish
12. Loyihani ekspert tomonidan baholanishi
13. Loyihani tahrir qilish,tuzatish
14. Loyihadan foydalanish bo'yicha qaror qabul qilish

Loyihalash ob'ektining tahlili dastlab nimani loyihalamoqchi ekanligini aniqlashni talab etadi: bu tizimmi, jarayonmi yoki vaziyatmi? Bu ob'ektlarning har birining xususiyati fazoviy tuzilishdan iborat. Bu esa katta tizimlar va kichik vaziyatlar chiziqli emas, ko'pgina ustma-ust tushadigan tuzilmalarga, qatlamlar, va qavatlariga ega



ekanliklarini ko'rsatadi. Fazoviy tuzilish tizim, jarayon yoki vaziyat ichida ro'y beradigan o'zaro ta'sirlar, munosabatlar, qatlamlar, tuzilmalar, o'rtasidagi aloqalarni bildiradi.

Loyihalash ob'ektining tahlili dastavval uning tuzilmalarining har birining alohida holati, shuningdek, ular o'rtasidagi aloqani ko'zda tutadi. Tahlil davomida ijtimoiy-davlat va shaxsiy talablar nuqtai nazaridan ob'ektdagi kamchiliklar, ojiz tomonlar aniqlanadi. Ziddiyatlar, ya'ni, ob'ekt qismlari o'rtasidagi nisbatan muhim nomuvofiqliklar yoki uning bir butun holati va unga quyilgan ham talablar aniqlanadi. Aynan ana shu tugun loyihalash davomida o'zgartirishlarga duchor qilinadi.

Loyihalash ob'ekti naqadar murakkab va katta bo'lsa, uning bosqichi xam shu qadar keng tahlil talab qilinadi. Masalan, ta'lim tizimi yoki kasb-hunar o'quv yurti tizimi modelini yetakchi shaklida tuzishda boshlang'ich holatni aniqlash uchun nisbatan chuqur va keng tahlil talab qilinadi, bu hech qanday yangilik tayanchini aniqlamay vujudga kelmaydi, mavjud ob'ektni yoki uning nusxasimi, har qaysi yangilik oldingini qayta tuzilishidir.

Loyihalash shaklini tanlash qanday bosqich tanlanganligi va necha bosqichni o'tish kerakligiga bog'liq. Shunday qilib, hozirda uzluksiz ta'lim umumiy o'rta va o'rta maxsus hamda oliy ta'lim muassasalari tomonidan beriladi. Shu maqsadda kasb-hunar kollejlarning asosiy g'oyalari, uning nizomi, bitiruvchilarning kasbiy tavsifnomalari, o'quv rejaları ishlab chiqilgan. Bunda ko'rsatilgan shakllar ikki bosqichni o'z ichiga oladi: modellashtirish va loyihalash. Agar pedagogik jarayon mashg'ulotlarda loyihalalanayotgan bo'lsa, u holda uning modellashtirilishi pedagog va talabalarning tafakkuriga kiritilgan, deb tushuniladi. Mashg'ulotning yetakchi g'oyasi shundan iborat. Mashg'ulotning bevosita loyihalani tuzish bosqichidan – mashg'ulotlar rejasi, matnini yoki ko'rinishlarini tuzishdan boshlanadi. Loyihalashning istalgan shakli maqsadga muvofiq talab etiladigan, talabalar va pedagoglarning xususiyatlariga, imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. Aks holda ular yuzakigina qabul qilinadi.

Loyihalashning nazariy ta'minlanishi - bu axborotni izlash:

- boshqa joylardagi shunga o'xshash ob'ektlar faoliyatining tajribalari haqida;
- shu kabi ob'ektlarni loyihalashda boshqa pedagoglar tajribasi;
- pedagogik tizimlar va jarayonlarning insonga ta'siri, pedagogik vaziyatlar yechimining nazariy va amaliy, tajribaviy tadqiqotlari.

Loyihalashning metodik ta'minoti loyihalash jihozlarini tashkil qilish chizmalar, namunalar, hujjatlar va shu kabilarni tayyorlash; nisbatan qulay va maqsadga muvofiq tuzilmalarni tanlash kabilarni o'z ichiga oladi. Bunga pedagogik jarayonlar yoki vaziyatlarni loyihalashni mazmuniy ta'minlash ham kiradi. Shu maqsadda, masalan, darslar yoki mavzular jildiga ega bo'lish tavsiya etiladi. Ularda o'qituvchi yoki usta aniq ixtisoslikka ega o'quv guruhi uchun alohida mavzular bo'yicha turli materiallarni to'playdi. Bunday darslar jildiga quyidagilar kiradi: oliy va kasbiy ta'limning o'zaro



aloqadorlikligi ifodalanuvchi topshiriqlari; hujjatli material; talabalarning ma'ruzalari, ishlanmalari; ko'rgazmali qurollar yoki ularning jamlanmasi; talabalarning mustaqil ishlari uchun yozma-topshiriqlar va shunga o'xshash, blokli-modulli ifodalovchi ish qog'ozlari.

Loyihalashning fazoviy vaqtli ta'minoti agar uni tayyorlashda muayyan vaqt va muayyan fazo e'tiborga olinganidagina aniq qiymatga ega va undan foydalanish mumkin bo'ladi. Fazoviy vaqtli ta'minot – pedagogik loyihalashning zaruriy shartidir.

Fazoviy ta'minlash deb mazkur model, loyiha yoki tuzilmani amalga oshirish uchun eng samarali joy aniqlash (tayyorlash)ni, joyning tizimlar, jarayonlar yoki vaziyatlarni amalga oshirishga joyning ta'sirini hisobga olish tushuniladi. Istalgan model, loyiha yoki tuzilma aniq fazoga bog'lanadi. Bu esa pedagogik jarayon ishtirokchilarining harakatlarini oldindan aytishga yordam beradi.

Loyihalashni vaqt bo'yicha ta'minlash - bu uning hajmi bo'yicha vaqt bilan o'zaro nisbati, ya'ni ma'lum vaqtga sig'adigan va bajarilish sur'ati bo'yicha, maromi bo'yicha faoliyati ketma-ketligi, tezligi va shu vaqtda unga joylashadigan jarayon bilan o'lchanadi. Masalan, vaqtni kasbiy qobiliyat, kasbiy tajriba, ustalikning shakllanishining davom etishi sifatida, shuningdek, tadbirlar, pedagogik vaziyatlarning (tizimlar, jarayonlar, vaziyatlarning) ta'sir etishi, rivojlanish bosqichlari davom etishi sifatida bilish talab qilinishi mumkin. Bularning hammasi pedagog va talabalarning kuchi, quvvati, diqqati va vaqtini to'g'ri taqsimlashga imkon beradi. Shu bilan birgalikda o'zlarida vaqt maromi, chastotasi, oralig'i, ketma-ketligi, tezligi, hajmini namoyon etadi.

Har bir uslub o'ziga sermehnatligi, mazmuni ham uni berish va o'zlashtirish uchun vaqt talab qiladi. Har bir shakl ma'lum vaqtga mo'ljallangan. Moddiy-texnik ta'minot loyihalash jarayonida bir necha vazifani bajaradi. Birinchidan, u loyihalash bo'yicha bevosita faoliyatning o'zini amalga oshirish uchun pedagogik texnika va vositadir. Ikkinchidan, moddiy-texnik qismi turli manbalardan ta'minlanishi sababidan, tabiiydirki, u ham loyihalash kerak, ya'ni modellashtirish, loyihalash va tuzish-qurish ob'ekti bo'lishi lozim. Uchinchidan, moddiy-texnik ta'minot xar vaqt tarbiyaviy maqsadlarni yechish vositasi bo'lganligiga ko'ra u pedagogik modellar, loyihalar va tuzilmalar tarkibiy qismi sifatida, tizimlar, jarayonlar, vaziyatlar loyihalash kerak. Loyihalash jarayonida pedagogik tizimlar, jarayonlar, vaziyatlarning moddiy-texnik ta'minlanishi to'liq bo'lishiga, ularning faoliyatning bosh yo'nalishlarida to'plamiga, vositalardan ko'chma holda foydalanishga, ularning eng maqbul birikuviga, o'zaro almashtirilishi va o'zaro to'ldira olinishiga erishish lozim. Loyihalashning moddiy-texnik ta'minlanganligiga loyihalashning sodda bo'lishi va loyihani amalga oshirilishi, pedagoglar va o'quvchilar faoliyatida qulayliklar, tarbiya natijalari va ishonchliligining turg'un bo'lishi bog'liqdir. Qoniqarsiz moddiy-texnik negiz pedagogik loyihalash yuzasidan barcha mehnatni yo'qqa chiqarishi mumkin. Bu holda istalgan model, loyiha, tuzilmali pedagogik xayoliy sharoitga tushib qoladi. Loyihalashning huquqiy ta'minoti –



talabalar va pedagoglarning tizimlar, jarayonlar, vaziyatlar chegarasida faoliyatini tayyorlashda huquqiy asosni yaratish yoki uni hisobga olishdan iborat. Hech qanday pedagogik loyiha respublika qonunchiligini, oliy hokimiyat qonunlari va farmonlarini, ta'limning bevosita boshqarish organlari buyruqlarini buzishi mumkin emas. Tizim tashkil etuvchi omilni tanlash butun bir loyihani uning barcha tarkibiy qismlari bilan o'zaro bog'langan xolda tuzish uchun zarur. Aloqalarni o'rnatish ixtiyoriy emas. Bu jarayon bosh bo'g'inni ajratishni talab qiladi, qolgan barcha aloqalar unga bog'lik ravishda belgilanadilar. Bosh bo'g'in – tizim tashkil etuvchisini, qismlarini birlashtiruvchi asos, o'zakdir.

Tizim tashkil etuvchi tarkibiy qism – u boshqa barcha tarkibiy qismlarni bir butun qilib birlashtira oladi, ularni maqsadga muvofiq yo'naltira oladi va rivojlantiradi. Bunda tizim tashkil etuvchi qismi erkin qoladi va boshqa qismlarning o'zgaruvchanligiga to'sqinlik qilmaydi. U bo'yicha yangi turg'un pedagogik tizimlarni bunyod etish mumkin, shunga ko'ra uni ta'riflash o'ta muhim. Tizim tashkil etuvchi omilni tanlash shaxsni tarbiyalash umumiy maqsadga erishish loyihasiga ta'sir ko'rsatadi. Psixologlar pedagogning loyihalash jarayonida ikki umumiy maqsadga erishish yo'lini belgilaydilar: mazmuniy va dinamik.

Pedagogik loyihalashning mazmuni, umumiy maqsadga erishishi asosi sifatida, shaxsni tarbiyalash maqsadi va vazifasini o'z ichiga oladi, ularning o'zgaruvchanligini saqlaydi, mazmuni, uslublari va shakllarini o'zgaruvchan qiladi. Maqsad va vazifalar boshlang'ich holda aniq berilgan hisoblanadi. Pedagog bu holda shaxsga ta'sir etishning shunday usullarini izlaydiki, ular quyilgan maqsadga muvofiq ravishda uni rivojlantirishga yordam beradi. O'zgaruvchan tuzilmalar tashkil etuvchi qismlari sifatida tarbiyalanuvchi va pedagogning shaxsiy imkoniyatlarini oladi. Bu umumiy maqsadga erishish yo'lida fikrlash mantig'i tizim, jarayon, vaziyat ishtirokchilarining aniq imkoniyatlaridan kelib chiqishlari, so'ng maqsad, tamoyil, mazmun, uslublari, vositalar va shakllarni aniqlashdan iborat. Tarkibiy qismlar o'rtasidagi aloqalar va bog'lanishlarni belgilash loyihalashning asosiy amallaridan biridir. Tizim, jarayon yoki vaziyat qismlari o'rtasidagi aloqalarning juda ko'p turlari mavjud. Ulardan asosiylari: vujudga kelish, tug'ilish, yasash, mazmun va boshqarish aloqalaridir. Vujudga kelish aloqalaridan ta'limning mujassamlashgan ko'rinishini, yoki mujassamlashgan o'quv fanini, yoki mujassamlashgan mashg'ulotni loyihalashda foydalanish mumkin. Mashg'ulot tuzilmalari, mazmuni, uslubiy qismlari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishda yangi ta'limotlar vujudga keladi: ta'limning yangi turi (masalan, muhandislik-pedagogik), yangi o'quv fani (ekologiya), mashg'ulotlarning yangi turi (mujassamlashgan mashg'ulotlar). Qurilish aloqalari jarayonlari qismlari, tarkibi, joylashuvini qamrab oladi. Ulardan foydalanib, mashg'ulotlarda boshqa fanlardan ma'lumotlar kiritish, qismlarini ko'paytirish yoki kamaytirish, joylarini almashtirish mumkin. Haqiqatda loyihalayotgan ob'ekt avvalgicha qoladi, u yengilgina takomillashtiriladi.<sup>7</sup>



Mazmuniy aloqalar aksincha, o'zaro ta'sir etuvchi qismlar – tarkib va mazmun mohiyatiga tegib o'tadilar. Chunonchi, ishlab chiqarishda mehnatning ilg'or shakllari, foydalaniladigan texnologiya xususiyatlari ta'siri ostida tegishli ixtisoslik bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda ta'lim berish uslubiyotini tubdan o'zgartirish mumkin. Boshqaruv aloqalari, loyihalash ob'ektiga an'anaviy yondoshuvni saqlagan holda, uni yangi muhitga, qo'shni tizimlarga, jarayonlar va vaziyatlarga moslashtirgan xolda yengilgina o'zgartirishi mumkin. Masalan, bunday aloqalar ularni kasbiy maqsadga muvofiq bo'lishi zarur bo'lganda o'rnatiladi. Hujjatlarni taqqoslash odatdagidek umumiy holda qabul qilingan tegishli ketma-ketlik, ya'ni, majburiy bo'limlar ro'yxati va ularning tuzilishi e'tiborga olingan xolda amalga oshiriladi.

Loyihaning ishlatilishini fikran tajriba-sinovlardan o'tkazish – uni xayolda o'tkazish, o'z-o'zini tekshirishda xayolan uning amaliyotdagi xususiyatlari, ishtirokchilarga ta'siri, natijalari tahlil etiladi. Xayoliy tajribalarda loyihalangan tizimda, jarayonda, vaziyatda o'quvchilar va pedagoglarning yurish-turishini oldindan o'ziga xos sifat tarzida taxminiy tekshirishni taqozo etadi. Loyihani xolis baholash – uning shaklini mutaxassislar, manfaatdor kishilar tomonidan tekshirishda, o'zga xolis mutaxassis loyihaning mustaqil tavsifnomasini tuzadi.

Loyihani tahrir qilish tajriba o'tkazilib, xolis baholangandan so'ng amalga oshiriladi. Loyihani tuzatuvchilar tegishli tushuntirishlar olib, kamchiliklarni aniqlab, uni yana bir marta qarab chiqadilar, tahrir qiladilar, tuzatadilar, takomillashtiradi, boyitadi. Bularning barchasi – tahrir qilishdir. Loyihadan foydalanish mumkinligi haqidagi qaror oxirgi ish bo'ladi. So'ng uning amalda qo'llanilishi boshlanadi. Barcha qabul qilingan qarorlar, xulosalar doimo ma'naviy-ruhiy hisoblanib, u loyihaning sifati va foydalanish natijalari uchun javobgarlik bilan bog'langandir.

Ta'kidlaymizki, bu bosqichlar istalgan pedagogik ob'ektni loyihalashning istalgan shaklida namoyon buladi. Bosqichlar anglash va to'g'ri ko'llashga, loyihalashni nisbatan tejamli va maqsadga yo'nalgan, to'g'ri tuzishga yordam beradi.

?

### **NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati) nima?
2. Loyiha ta'limining didaktik mohiyati nimadan iborat?
3. "Pedagogik loyihalash" deganda nimani tushunasiz?
4. Pedagogik faoliyatni loyihalash tamoyillari qaysilar?
5. Pedagogik loyihalashning qanday shakllari mavjud?
6. Loyihaning asosini nima tashkil etadi?
7. Loyihalash metodi bu-?
8. Loyihalash qanday tizimga asoslanadi?



9. Loyihani yaratish ketma-ketligini ayting.
10. Pedagogik faoliyatni loyihalash qonuniyatlari qaysilar?

#### **Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Kolesnikova I.A., Gorchakova–Sibirskaya M.P. Pedagogicheskoe proektirovanie: ucheb. Posobie dlya vyssh. ucheb. zavedeniy / Pod red. V.A.Slastenina, I.A. Kolesnikovoy. – 2-ye izd., ster. – M.: Izd-kiy sentr “Akademiya”, 2007.
2. Muslimov N.A., Urazova M.B. Proektivnaya deyatelnost budущеgo uchitelya. Ucheb.posob. – T.: GrandPaper, 2011. – 92 s.
3. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi / Darslik. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008.
4. Pedagogika / Bakalavriat yo'nalishi uchun darslik / Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010.
5. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 89-101-b.

### **2-mavzu: Innovatsion jarayonlar rivojlanishining umumiy tendensiyalari**

#### **Reja:**

1. Pedagogik innovatsiyalarning rivojlanish shart-sharoitlari.
2. Innovatsion faoliyatning nazariy omillari.
3. Pedagogning innovatsion faoliyatiga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari:

**Tayanch tushunchalar:** pedagogik innovatsiya, innovatsion jarayon, yangiliklar kiritish, motivatsiya, ilmiy tafakkur, ijtimoiy muhit, amaliy qo'llanilishi, innovatsion bosqich, pedagogik g'oya.

#### **1. Pedagogik innovatsiyalarning rivojlanish shart-sharoitlari.**

Ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar o'z-o'zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning motivatsiyasiga boq'liq jarayon. O'qituvchi faoliyatini o'zgartirmay turib, uning mas'uliyati va faolligini oshirmasdan ta'limda bir qadam oldinga siljib bo'lmaydi. Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish - pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida o'qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish «o'qituvchining innovatsion faoliyati» tushunchasi paydo bo'ldi.



Pedagogik innovatsion jarayonlar G'arbiy Yevropada 1950-yillarda, Rossiyada 1980-yillarda hamda O'zbekistonda 2000-yillarda maxsus o'rganish predmetiga aylandi. Bugungi kunda pedagogik innovatika uch asosiy elementi: pedagogik yangiliklarni yaratish; ularni amaliyotga joriy etish va o'zlashtirish; qo'llash va keng yoyishning birligi va o'zaro aloqadorligi haqidagi fan sifatida e'tirof etiladi.

Innovatsiya muammolarini hal qilish va ularni zamonaviy ilmiy tafakkurning eng muhim yo'nalishlari qatoriga ajratish jamiyatdagi innovatsion jarayonlarning o'sib borayotgan dinamikasidan xabardor bo'lish natijasidir. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy qiziqishlarning rivojlanishi ushbu hodisaning murakkabligi va ko'p qirraliligini ochib berdi, bu esa uni tahlil qilishda turli xil yondashuvlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu esa, innovatsiya jarayonlari ham yangiliklarning o'zi, ham ularning ijtimoiy-madaniy muhiti bilan bog'liq omillarni hisobga olgan holda tizimli, yaxlit o'rganishni talab qilishini anglash zarurligini belgilab berdi.

Mamlakatimizda pedagogik innovatsiyalarning rivojlanishi ommaviy ijtimoiy pedagogik harakat bilan, maktabni jadal rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj va o'qituvchilarning uni amalga oshirishga qodir emasligi o'rtasidagi ziddiyatning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Yangisidan ommaviy foydalanish ko'paygan. Shu munosabat bilan yangi bilimlarga, yangi "innovatsiya", "yangi", "yangilik", "innovatsion jarayon" va boshqalarni tushunishda ehtiyoj yanada keskinlashdi.

Lotincha "Innovatsiya" so'zi tarjimada yangilanish, o'zgartirish, yangi narsani kiritish, yangilikni kiritish demakdir. "Innovatsiya" tushunchasi ham yangilik, ham ushbu yangilikni amaliyotga joriy etish jarayoni sifatida belgilanadi.

Hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda innovatsion jarayonni bosqichlarga bo'lishning quyidagi sxemasi ishlab chiqilgan:

1. Yangi g'oyaning tug'ilish bosqichi yoki innovatsiya tushunchasining paydo bo'lishi; an'anaviy ravishda bu kashfiyot bosqichi deb ataladi, bu, qoida tariqasida, fundamental va amaliy ilmiy izlanishlar natijasidir (yoki tezkor "tushuncha"),

2. Ixtironing bosqichi, ya'ni ob'ekt, moddiy yoki ma'naviy namunadagi mahsulotda aks ettirilgan yangilik yaratish.

3. Qabul qilingan yangilik amaliy qo'llanilishini topadigan innovatsiya bosqichi, uni takomillashtirish; ushbu bosqich yangilikdan barqaror samara olish bilan yakunlanadi.

Shundan so'ng, innovatsiyalarning mustaqil mavjudligi boshlanadi, innovatsiya jarayoni keyingi bosqichga o'tadi, bu faqat innovatsiyalarni qabul qilish sharoitida keladi.

Innovatsiyalardan foydalanish bosqichida keyingi bosqichlar ajratiladi:

4. Innovatsiyani diffuziya bosqichi, uni keng joriy etish, yangilikning yangi yo'nalishlarda tarqalishi (tarqalishi) iborat.



5. Innovatsiyaning o'ziga xos sohada hukmronlik qilish bosqichi, yangilikning o'zi yangilikni yo'qotib, shunday bo'lishni to'xtatadi. Ushbu bosqich samarali alternativaning paydo bo'lishi yoki ushbu yangilikni samaraliroq bilan almashtirish bilan yakunlanadi.

6. Yangilikni yangi mahsulot bilan almashtirish bilan bog'liq holda qo'llash ko'lamini kamaytirish bosqichi.

Yangilikni har tomonlama, maqsadga yo'naltirilgan deb hisoblash mumkin bo'lgan innovatsiyalarni yaratish, taqsimlash va ulardan foydalanishning teng jarayoni, ularning maqsadi odamlarning ehtiyojlari va manfaatlarini yangi vositalar bilan qondirishdir, bu tizimda ma'lum sifat o'zgarishlariga olib keladi va uning samaradorligi, barqarorligi va hayotiyligini ta'minlash yo'llarini ko'rsatadi.

Shunday qilib, innovatsiya - bu ichki mantiq (innovatsion jarayon) bilan ham, uning atrof-muhit bilan o'zaro aloqasi vaqtidagi tabiiy hayot bilan (hayot aylanishi) xarakterli bo'lgan dinamik tizim. Innovatsiya bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishi bilan innovatsion jarayonning tuzilishi o'zgaradi.

"Innovatsiya" atamasiga konseptual jihatdan "o'zgarish", "takomillashtirish", "islohot" tushunchalari yaqin. Biroq, ular orasida ma'lum farqlar mavjud.

"O'zgarish" atamasi birining o'rnini boshqasiga almashtirish bilan, ya'ni har qanday o'zgarish yoki o'zgaruvchanlik bilan tavsiflanadi. Yoki - o'zgarishga qaratilgan harakat sifatida, ikkinchisidan voz kechish. Keyinchalik, o'zgarish avval sodir bo'lgan narsadan ko'rinadigan og'ish sifatida ko'riladi. Innovatsiya tushunchasi, maktablarda tez-tez ishlatib turilgani kabi, o'zgarish konsepsiyasi bilan sinonimdir. Agar ushbu o'zgarish keng ko'lamda va butun maktab tizimini qamrab olsa, u islohot deb ataladi. Biroq, har qanday o'zgarishni yangilik deb hisoblash noto'g'ri bo'ladi. U oldindan belgilangan maqsadlarga muvofiq takomillashtirishni o'z ichiga olishi kerak. O'zgarishlar mavjud vaziyat uchun yangi bo'lishi kerak, lekin har doim ham mutlaqo yangi g'oyalar yoki shakllar emas. Biz ba'zi o'zgarishlarni yangilik sifatida gapiramiz, garchi ular bir marta va biron bir joyda allaqachon o'zini namoyon qilgan bo'lsa ham, lekin hozirgi paytda va bu muhitda ular alohida ahamiyatga ega bo'lib, pedagogik jarayonni rag'batlantirishi mumkin.

❖ Innovatsion faoliyat – uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi.

O'qituvchi innovatsion faoliyati xususiyatlarini o'rganib chiqqan pedagog olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin:

- ✓ ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- ✓ pedagogik tadqiqot metodlarini egallash
- ✓ mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- ✓ tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;





- ✓ o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;
- ✓ hamkasblar bilan hamkorlik;
- ✓ fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;
- ✓ ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- ✓ yangiliklarni izlab topish va ularni o'z sharoitiga moslashtirib borish.

O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosiga murojaat etish jamiyatda innovatsion jarayonlar dinamikasining o'sib borayotganligini tushunish natijasida vujudga keldi. Uning tahlili faqat fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishni o'z ichiga olmasdan, balki yangiliklarni izlash, yaratish, moslashtirish, tatbiq etish va olingan natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonlarni ham qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning tuzilishini o'rganib chiqqan olimlardan biri V.Slastenin uni quyidagicha tuzilishga ega deb ko'rsatib o'tadi: «Innovatsion faoliyatning tuzilishi-ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyati.

Innovatsion faoliyatning darajalari: reproduktiv, evristik, kreativ bo'lishi mumkin».

Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma'noda ta'lim jarayoniga kirib keladi. Shu sababli ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi:

- ❖ Muammoni tahlil asosida aniqlash.
- ❖ Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash.
- ❖ O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
- ❖ O'zgarishlarni amalga oshirish.

Ta'lim muassasasida innovatsion faoliyatning samarali yo'lga qo'yilganligi innovatsion jarayon sub'ekti va innovatsion jarayonning faoliyatli tuzilish bilan bevosita bog'liqdir.

Innovatsion faoliyatning **maqsadi** – birinchidan, kutilgan natijaga erishish vaqtini aniqlash, ikkinchidan, belgilangan muddatda uni qo'lga kiritish imkoniyatlari, uchinchidan, maqsadga erishishdagi sub'ektining yo'nalganligi, to'rtinchidan, olingan natijani kutilayotgan bilan taqqoslash imkonini beruvchi yangilikning ta'lim jarayonining innovatsiyalanayotgan qismini o'zgartirishga qaratilishidir.

Innovatsion faoliyatning **vazifasi** – kutilgan natijaga imkon beruvchi ta'lim jarayonining innovatsiyalanayotgan qismining avvalgi va uni o'zgartirishga qaratilgan yangi modelining holatini o'zida aks ettirishidir.

Innovatsion faoliyat **shakli** deganda mazkur jarayon sub'ektlarning maqsadga erishish uchun tashkil etilgan faoliyati tuzilishini o'zaro muvofiqlashtirish,



innovatsion faoliyat **metodi** deganda esa, uning maqsadga erishish yo'lidagi, ma'lum bir ma'nodagi tizim faoliyatini tartibga solinishi tushuniladi.

Innovatsion faoliyat **natijasi** ob'ektning yangilanishidagi aniq o'zgarishlarni o'zida aks ettirib, erishilgan natijalarni baholashda uch guruh mezonlaridan foydalaniladi: 1) sifat mezonlari; 2) samaradorlik mezonlari; motivatsiya mezonlari.

**Innovatsion faoliyat** – pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. Innovatsion faoliyat uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi.

Innovatsion faoliyatning tuzilishini o'rganib chiqqan olimlardan biri V.A.Slastenin uni quyidagicha tuzilishga ega deb ko'rsatib o'tadi: "Innovatsion faoliyatning tuzilishi – ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyati. Innovatsion faoliyatning darajalari: reproduktiv, evristik, kreativ bo'lishi mumkin. Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo'lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi – loyihaga, loyihani – texnologiyaga aylantirishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Innovatsion faoliyatda ilmiy tasavvurlar akademik ilm mantig'i bo'yicha tug'ilmaydi, balki rivojlanish jarayonining modifikatsiyalari qo'llab-quvvatlanishi natijasida rivojlanayotgan amaliyot mulohazasidan paydo bo'ladi.

Ta'lim muassasida innovatsion faoliyatning samarali yo'lga qo'yilganligi innovatsion jarayon subekti va innovatsion jarayonning faoliyati tuzilishi bilan bevosita bog'liqdir. Innovatsion jarayon subekti deganda, ta'lim muassasalariga yangiliklar kiritish jarayoniga ishtirok etuvchi shaxslar va ta'limni boshqarish organlari tushuniladi. Ular harakatining birligi ma'lum bir natijalarga erishishga olib keladi. Ta'lim muassasidagi innovatsion faoliyatning maqsadga yo'naltirilganligi va tashkil etilganligi innovatsion jarayonning faoliyatli tuzilishini oqilona tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Mazkur holat har bir alohida harakat tuzilishini inobatga olishni taqozo etadi. Innovatsion jarayonning faoliyatli tuzilishi motiv-maqsad-vazifa-shakl-metod-natija kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga qamrab oladi.

**Motiv** – innovatsion faoliyat subektining talablarini qondirishdan innovatsion faoliyat subekti ehtiyojining majmuaviyligini anglash va shakllantirishgacha bo'lgan amaliy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi subektning yangilikni yaratish va o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlarini o'zida ifoda etuvchi undovchi kuch sababdir.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samardorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga - yangilik, maqbullik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi.



Oliy maktab o'qituvchisining innovatsion faoliyati oliy maktab pedagogikasining bosh muammolaridan biridir. O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim komponentlaridan biri yuksak professionalizm – akmeologiya, yunoncha eng oliy nuqta, eng gullagan davr, yuksak professionalizm ma'nolarini beradi. Kasbiy intellektual yetuklik va mahoratni bildiradi. Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- iste'dod nishonalari;
- uquvlilik;
- qobiliyat;
- iste'dod;
- oila tarbiyasi sharoiti;
- o'quv yurti;
- o'z xatti-harakati.

Motivatsiyaga tayyorlik, pedagogic yangiliklarga moyillik muammosi o'qituvchilarni tayyorlashda markaziy masalalardan biri hisoblanadi, chunki faqatgina innovatsion faoliyat maqsadlariga mos keladigan motivatsiya ushbu faoliyatning uyg'un amalga oshirilishini va o'qituvchiga shaxsning o'zini o'zi ochib berishini ta'minlaydi.

Intellektual sozi ingliz tilidan olingan bo'lib "aqliy" degan ma'noni anglatadi. Ta'lim jarayonida bilimlarni uzluksiz va izchil olib borilishi nazarda tutilgan. Ya'ni pedagog dars jarayonida "NOVATOR" bo'lishi kerak. Har bitta darsga yangilik olib kirish kerak. Pedagogik faoliyatda ham sifat muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi mehnatiga faqat uning o'z faoliyatiga qanchalik darajada ijodiy munosabatda bo'layotganligini aniqlash orqaligina xolis baho berish mumkin. Pedagogik vaziyatlarning rang-barangligi, ulardan kelib chiqadigan vazifalarni tahlil etish va yechishga nisbatan turli yondashuvlarni taqozo etadi.

Mutaxassisning pedagogik faoliyati ko'p jihatdan yangi pedagogik texnologiyalarni ijodiy o'zlashtirib, ulardan amalda unumli foydalanishdan iborat. O'z-o'zidan ravshanki, bu ishni malakali o'qituvchigina uddalay oladi. Ammo, o'qituvchining pedagogik texnologiyalarni bilish darajasini pedagogik mahorat bilangina bog'lash to'g'ri bo'lmaydi. Ayni bir texnologiyani ko'plab pedagoglar qo'llashi mumkin, lekin jarayon hech qachon bir xil bo'lmaydi, natijalar ham kafolatlanadi. Moxir pedagog ijodi aynan pedagogik texnologiyalarga o'ziga xos yondashuvdan iborat. Pedagogik texnologiya muayyan pedagogik g'oya asosida ishlab chiqiladi.

Ijod - bu mavjud tajriba hamda yangi bilim va ko'nikmalarning shakllanishi negizida yangilik yaratish bilan bog'liq faoliyatdir. Ijodning bir darajasiga mavjud bilimlardan foydalanish hamda ularni qo'llash sohasini kengaytirish xos bo'lsa, boshqa darajada ob'ektga nisbatan odatdagi munosabatni o'zgartiruvchi mutlaqo



yangi yondashuv vujudga keladi. Pedagogik faoliyat - bu muttasil ijod jarayonidir. Lekin boshqa sohalar (fan, texnika, san'at) dagi ijoddan farqli o'laroq pedagog ijodining maqsadi ijtimoiy jihatdan yangi hodisa yaratish emas, balki shaxsni rivojlantirishga qaratiladi. Albatta o'z ishiga ijodiy yondashadigan, novator pedagog o'z tajriba maktabini yaratadi, lekin mavjud pedagogik tajribalarni ijodiy o'zlashtirishga har bir o'qituvchi intilishi lozim. Pedagogik vaziyatlarni baholashdagi mustaqillik, tarbiyaning muayyan shakl, vosita va usullarini tanlay olish, voqealar qanday rivojlanishini oldindan ko'rib, ularni maqsadga yo'naltira bilish ijodiy xususiyatga ega bo'lgan kasbiy mahoratning muhim qismi hisoblanadi.

Mutaxassis mahorati amaliy ko'nikmalar sintezi hisoblanib, kasbiy faoliyatida o'z ifodasini topadi. Ayni vaqtda pedagogik ijodi shakllanayotgan, rivojlanayotgan o'quvchi shaxsi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'z o'rnida mutaxassisning bu boradagi imkoniyatlari vaqt doirasida qat'iy cheklangan. Qoida tariqasida u bo'lajak darsning oqilona metodikasini tez tasavvur qilishi, lahzalar ichida yangi qaror qabul qilishi lozim. Ko'pincha vaziyatni tez tahlil etish va zudlik bilan harakat qilish talab etiladi. Pedagogik ijodning mohiyati mustaqil harakat qilish va o'z faoliyatini ilmiy-pedagogik bilimlar nuqtai nazaridan o'zlashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Pedagogik ijodning muhim jihati shundan iboratki, u doim izchil, rivojlanuvchi xususiyatga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligiga imkoniyat yaratadi.

"Innovatsiya" atamasi zamonaviy ma'noda yangi elementlar yoki shakllarning namoyon bo'lishini anglatadi. Ushbu so'zning sinonimi "Yangilik". Zamonaviy o'qituvchi kengroq ma'noga ega bo'lsa-da, biroz chuqurroq deb hisoblanadi. Ta'lim jarayonini uni o'zgartirish va yaxshiroq ma'lumot olish uchun o'rganish va taqqoslash orqali o'z kasbiy tajribalarini tushunishga asoslangan o'qituvchining maqsadli ishi deb tushuniladi

Aytishimiz mumkinki, o'qituvchining innovatsion faoliyati bu o'qituvchining ijodiy salohiyati aks etadigan hodisa. Agar biz ushbu atamani uning umumiy o'quv jarayoniga qo'llanishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqsak, unda uning nisbiy yoshligi haqida gapirish mumkin. Innovatsiyalar nafaqat innovatsiyalarni yaratish va tarqatishni, balki bu yangilanishlar bilan bog'liq bo'lgan fikrlash tarzida va faoliyat tarzidagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Qanday bo'lmasin bu, progressiv, foydali, rivojlangan, zamonaviy va ijobiy narsa.

Ta'lim jarayoniga turli xil yangiliklarni kiritish jarayoni ko'p jihatdan o'qituvchining o'ziga bog'liq. O'qituvchining innovatsiyalarga tayyorligini qanday anglash mumkin? Bu holda shaxsning potentsiali quyidagi parametrlar bilan bog'liq:

- Yangi g'oyalar, g'oyalarni yaratish va ishlab chiqarish, shuningdek ularni amalda loyihalashtirish va modellashtirish uchun ijodiy qobiliyatning mavjudligi;



- Mavjud g'oyadan farq qiladigan yangi narsaga tayyorlik, uning asosi panoramik va fikrlash moslashuvchanligi, shuningdek xarakterga bag'rikenglik;
- Madaniy va estetik jihatdan Ta'lim va rivojlanish;
- O'z faoliyatini takomillashtirish istagi, shuningdek, uni ta'minlaydigan ichki usul va vositalarning mavjudligi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligi shuningdek ish uchun katta qobiliyat, kuchli tirnash xususiyati beruvchi omillarga qarshi tura olish qobiliyati, yuqori hissiy holat va o'z ishida ijodiy bo'lishni istash deb tushuniladi. Ammo o'qituvchiga shaxsiyatdan tashqari ba'zi fazilatlar ham kerak. Bularga yangi texnologiyalarni bilish, loyihalarni ishlab chiqish, o'qitishning eng yangi usullarini bilish, shuningdek, kamchiliklarning sabablarini aniqlash va aniqlash qobiliyati kiradi.

O'qituvchilarning innovatsiyalardagi ishtiroki o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu tegishli shkilotlar o'rtasida zarur darajadagi erkinlik mavjudligini anglatadi. Darhaqiqat, maktabgacha Ta'lim muassasasida va maktablardagi o'qituvchining innovatsion faoliyati o'ziga xosligi tufyli ko'pincha teginish orqali amalga oshiriladi. Haqiqat shundaki, bunday yechimlar mavjud tajribadan tashqarida. Shuni ham takidlash kerakki, bugungi kunda o'qituvchining innovatsion faoliyati qisman tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Shu munosabat bilan yangi yechim va haqiqatni izlash jarayonida qilgan barcha ishlari jamiyat manfaatlariga zarar yetkazmaydi deb o'ylab, innovatorga, tadqiqotchiga ishonish kerak. Ushbu yondashuv ijodkorlik erkinligi innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadigan o'qituvchining yuqori shaxsiy masuliyati bilan birga amalga oshirilishi kerakligini anglashga olib keladi.

### **2. Innovatsion faoliyatning nazariy omillari.**

Ta'limning bugungi vazifasi o'qituvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot Ta'lim muxiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qollash va axborot oqimlaridan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Shu maqsadda, o'qituvchilarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlar imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish zarur. Bu masalaning yechimi tabiiyki, mazkur jarayonning asosiy tashkilotchisi pedagoglarni tayyorlash sifatiga bog'liq. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan Ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni qo'llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- O'quv fanining aniq maqsadini aniqlash;
- Fanning hajmi va mazmunini aniqlash;
- Zarur bo'lgan Ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;



- Fanning moddiy texnik ta'minotini yaratish;
- Ta'lim oluvchilarning xususiyatlarini o'rganish;
- O'qituvchining tayyorligini va dars mashg'ulotini loyihalash.

Ta'limda ro'y berayotgan islohotlar chuqur o'zgarishlar ta'lim tizimining demokratiyalashuvi va insonparvarlashuvi ta'limni boshqarish tizimining yangilanishi ta'lim sifatiga bo'lgan ob'ektiv talabi pedagoglarni innovasion faoliyatga tayyorlash zarurligini ko'rsatmoqda. Demak, shaxsning pedagogik faoliyatga yo'nalganligi uning dunyoqarashi, pedagogik kasbiga qiziqishi, u bilanshug'ullanishga bo'lgan layoqati bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda ta'limdagi innovasion harakatlarning xususiyatini o'rganmagan, ta'lim sohasidagi innovasion faoliyatning mohiyatini tushunmaydigan, innovasion ta'lim texnologiyalarini keng egallamagan o'qituvchini zamonaviy pedagog, yetuk mutaxassis deb hisoblab bo'lmaydi. Pedagog-o'qituvchi innovasion faoliyatining rivojlanishi bu ta'limdagi strategik yo'nalishlardan biridir. Shu sababli, ta'limda pedagogik kadrlarni innovasion faoliyatga tayyorlash muammosi yuzaga keldi. Ro'y berayotgan innovasion jarayonlar ta'lim metodologiyasi va psixologik tadqiqotlarda yoritildi.

Ta'limdagi innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e'tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta'limga yo'naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o'rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o'tiladigan uzilishlardir. Yana kattaroq sabab esa ta'limiy bilim va amaliy pedagogik faoliyat o'rtasidagi uzilishdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo'llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an'analardagi o'zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak. Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas boq'liq. Shu sababli bu tushunchalar mazmunini izoqlamasdan turib, innovatsion faoliyat mazmunini anglash mumkin emas.

Innovatsiya - amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimidir. Bu g'oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va fikrlar mavjud bo'lib, uning mohiyati borasida fanda yagona fikr mavjud emas. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlar. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi, shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya-malum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun



yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir. Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma'qullanmoqda: Faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi) Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimi bo'lib, u ma'lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo'lishdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat.

Bugungi kunda talim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy talimda o'quvchirni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. O'qitish jarayonida o'quvchi asosiy shaklga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Pedagogning innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga pedagogning tayinli muloqoti, qarama-qarshi fikrlarga nisbatan munosabati, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida pedagog o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv) ga ega bo'ladi.

Pedagog faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi motivlari ahamiyat kasb etadi, bu esa pedagog shaxsining kreativligining faolligini shakllantirish imkonini beradi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida pedagog innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasini tubdan yangilashni talab qiladi, yangi yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishlardan iborat bo'ladi;

2. Ta'lim mazmunini insonpavarlashtirish doimo o'qitishning yangi tanqidiy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;

3. Pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tadbiq etishga nisbatan o'qituvchining harakteri va o'zgarishi.



Pedagog innovatsion faoliyatining taxlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan shartlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday meyorlarga - yangilik - maqbullik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi.

Pedagogning innovatsion faoliyati - o'z ichiga yangilikni taxlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish. Ushbu rejani amalga oshirish va taxlil qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

Innovatsion faoliyat tadqiqotlari pedagogning innovatsion faoliyatga hozirligi meyorlarini belgilashga imkon berdi (V.A. Slastinin).

- Innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyatni anglash;
- Ijodiy faoliyatga talab qilinishiga tayyorgarlik;
- Shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;
- Innovatsion faoliyatni ijro etish texnologiyasiga tayyorgarlik darajasi.

Innovatsion jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlarining pedagogik asoslarini o'rganish o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida, jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Demak, o'qituvchi, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalar muallifi, tadqiqotchi, foydalanuvchi va targ'ibotchi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsion faoliyatiga bo'lgan talablar quyidagilar bilan aniqlanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi metodologiya va o'quv jarayonining texnologiyasini tubdan yangilanishni talab qiladi. Bu sharoitda o'qituvchi innovatsion faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;

- ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish, o'qitishning yangi shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo etadi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining taxlili yangilik kiritishning samarasini belgilovchi muayyan meyorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday meyorlarga yangilik, optimallik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsion ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi. Yangilik pedagogik yangilik meyor sifatida, o'zida taklif qilinadigan yangilik, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagogik olimlar yangilikni qo'llash mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutloq, chegaralangan mutloq, shartli, subektiv darajalarini farqlaydilar.

Maqbullik meyor o'qituvchi va talabaning natijaga erishishi uchun sarflangan kuch va vositalarni bildiradi. Natijalilik o'qituvchi vositasidagi muayyan muhim ijodiy natijalarni bildiradi. Pedagogik yangilik esa o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim.





### 3. Pedagogning innovatsion faoliyatiga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari:

- Shaxsning ijodiy motivatsiyasini qo'llaganligi.

Bu qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o'z kamolotiga intilish;

- Kreateyalik bu - xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyati va o'z kamolotiga intilish;

• Kasbiy faoliyatni baholash, bu - ijodiy faoliyat metodologiyasi va pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik konsepsiyasi va ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyatlari; ijodiy faoliyatiga hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyati;

- O'qituvchining individual qobiliyati, bu - ijodiy faoliyat sur'ati va ish qobiliyati; qat'iyatlik, mas'uliyatlik va xalollik, o'zini tuta bilish;

Innovatsion faoliyat tadqiqotlari o'qituvchining innovatsion faoliyatiga sezgirligi meyorlarini belgilashga imkon beradi:

- Innovatsionfaoliyatga bo'lgan zaruratni aniqlash;
- Ijodiy faoliyatga jalb qilishga tayyorgarlik;
- Shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;
- Ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni engishga tayyorlik;
- Innovatsionfaoliyatni kasbiy mustaqillikka ta'siri.

Innovatsion faoliyatni eng muhim masalalardan biri - o'qituvchi shaxsi: u novator, sermaxsul ijodiy shaxs, keng qamrovli qiziqish, ichki dunyosi boy, pedagogik yangilikka o'ch bo'lishi lozim.

Innovatsion faoliyat motivatsion, texnologik va refleksiyalik qismlardan tashkil topadi.

O'qituvchini bu faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshiradi: yangilikni idrok qilishga innovatsion tayorgarlikni shakllantirish va yangicha harakat qilishga o'rgatish. Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega. Innovatsiya jarayonlari, funksiyalari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari va boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida tashkil etish imkonini beradi.

Hozirgi kunda talim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy talimda o'quvchirni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham



o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Talim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini taminlaydi.

Innovatsiyalar miqyosi yangilik darajasi, amalga oshirish tezligi va ular amalga oshirilayotgan jamiyat hayoti sohasi bilan ajralib turadi. Yangisi albatta taraqqiyotga olib kelmaydi va har doimgidan ham yaxshiroq emas. Ming yillik tarixga ega bo'lgan keng ko'lamli ijtimoiy yangiliklarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ular odatda ijobiy va salbiy tomonlarga ega.

O'qituvchi faoliyatida yuzaga keladigan innovatsion ziddiyatni keltirib chiqaradigan asosiy sabablarga quyidagilar kiradi:

1) Yangilikka qiziquvchanlik ishchilarning passivligi. Buning sababi shundaki, ko'plab xodimlar ish haqini pasaytirishdan qo'rqishadi, amalga oshirish jarayonida ko'proq ish qo'shadilar, yangi vazifalarni bajara olmaslikdan qo'rqadilar, amalga oshirish jarayonida moddiy va ma'naviy rag'batlantirmaydilar. Boshqacha qilib aytganda, pedagoglar o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan yomonlashuvidan (yangiliklar natijasida) qo'rqishadi;

2) Moddiy-texnik resurslarning yetishmasligi. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, ba'zida tashkilotlarda talab qilinadigan pastroq sifatli resurslar mavjud, ba'zida ularni o'zlari xarajat qilib olishlari, ba'zida kerakli uskunalar, asboblarning mahalliy sanoat tomonidan ishlab chiqarilmaydi;

3) Tashkilot rahbarlari va bosh mutaxassislari o'rtasida bo'lim rahbarlari va mutaxassislarning munosabatlari yomonlashishi;

4) Qarama-qarshi yo'nalishlarning mavjudligi. Har bir individual va ijtimoiy guruh ijtimoiy hayotning eng muhim jihatlariga nisbatan ma'lum bir yo'nalish to'plamiga ega. Ularning barchasi har xil va odatda qarama-qarshi. Ehtiyojlarni qondirishga intilish paytida, bir nechta shaxslar yoki guruhlar erishmoqchi bo'lgan to'siq qo'yilgan maqsadlar mavjud bo'lganda, qarama-qarshi qiymat yo'nalishlari bo'yicha ziddiyatlar juda xilma-xildir. Eng keskin to'qnashuvlar madaniyat, vaziyatni idrok etish, mavqei yoki obro'si, yangilikka bo'lgan ehtiyojga munosabat farq qiladigan joyda paydo bo'ladi;

5) Mafkuraviy sabablar. Mafkuraviy kelishmovchiliklar asosida kelib chiqadigan ziddiyatlar qarama-qarshi yo'nalishlar ziddiyatining o'ziga xos holatidir. Ularning farqi shundaki, mojaroning mafkuraviy sababi jamiyatning turli guruhlaridagi bo'ysunish, hukmronlik va fundamental dunyoqarash munosabatlarini asoslaydigan va qonuniylashtiradigan g'oyalar tizimiga har xil munosabatda



bo'lishida. Bu yerda kelgusi yangiliklarga tayyorgarlikning yo'qligi, tushuntirish ishlarining yetarli darajada emasligi haqida gapirish o'rinli;

6) Konflikt ishtirokchilarining motivatsiyasining teskarisi. Innovatsion ziddiyat ko'p motivli xarakterga ega ekanligi isbotlangan. Raqiblarning motivatsiyasi yo'nalishi boshqacha. Innovator uchun ular ko'proq ijtimoiy yo'naltirilgan, konservatorlar uchun ular shaxsan yo'naltirilgan.

Ushbu va boshqa qiyinchiliklarni bartaraf etish, innovatsion jarayonga yanada oqilona yondashish tashkilotlarda to'siqlarni kamaytiradi.

?	<b>NAZORAT UChUN SAVOL VA TOPShIRIQLAR:</b>
---	---

1. Pedagogik innovatikaning asosiy elementlarini ayting.
2. Bugungi kunda pedagogikada qanday yangi tushuncha paydo bo'ldi?
3. Innovatsion jarayon ilmiy adabiyotlarda qanday bosqichlarga bo'linadi?
4. Innovatsiya atamasi qanday tushunchalarga yaqin?
5. Innovatsion faoliyatning asosiy belgilari qaysilar?
6. Ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritishni ayting.
7. Innovatsion faoliyatning maqsad va vazifalarini ayting.
8. Innovatsion faoliyat qanday qismlarga bo'linadi?
9. O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim komponentlarini ayting.
10. Innovatsion faoliyatning nazariy omillari haqida ma'lumot bering.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh.M. Zufarov "Pedagogik innovatika" (o'quv qo'llanma) T: 2012 33-34
2. V.A.Slastnin, L.S. Podymova « PEDAGOGIKA: INNOVATSIONNAYA DEYATEL'NOST» Izdatelstvo Magistr.M: 1997 str 5
3. Kolesnikova I.A., Gorchakova-Sibirskaya M.P. Pedagogicheskoe proektirovanie: ucheb. Posobie dlya v'yssh. ucheb. zavedeniy / Pod red. V.A.Slastenina, I.A. Kolesnikovoy. – 2-ye izd., ster. – M.: Izd-kiy sentr "Akademiya", 2007.
4. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi / Darslik. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008.

### **3-mavzu: Pedagogning innovatsion faoliyatini shakllantirish hamda pedagogik faoliyatni loyihalash bosqichlari va darajalari**

#### **Reja:**

1. Ta'lim tizimida olib borilayotgan innovatsion jarayonlarning mazmun mohiyati.
2. Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati) va va uni ilmiy tashkil etish.



3. Pedagogik faoliyatni loyihalash bosqichlari va darajalari.
4. Pedagogik faoliyatni loyihalash ta'minoti.

**Tayanch tushunchalar:** faoliyat, pedagogik faoliyat, pedagogik faoliyatni loyihalash, bosqich, pedagogik faoliyatni rejalashtirish, o'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish, omillar, nazariy ta'minoti, metodik ta'minoti, huquqiy ta'minoti, vaqt ta'minoti, o'quv modellari

1. Mamlakatimizda 2019 yilda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiya oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadlarini ko'zda tutadi.

---

So'nggi yillarda pedagogik muhitni tubdan qayta qurish jarayoni boshlandi. Pedagogik infrastruktura mazmunan qayta shakllantirildi. Demak, mamlakat ta'lim tizimida olib borilgan innovatsion jarayonlar va tub o'zgarishlarning mazmun mohiyati serqirra bo'lib, uning har bir yo'nalishida o'nlab yangi ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Bevosita ta'lim jarayonida innovatsion talablarni joriy etish masalasi zamonaviy pedagogik ilmnning bosh yo'nalishlaridan biriga aylandi. Innovatsiya yangilik kiritish, ommaviy amaliyotda odatiy holatlardan farq qiluvchi ilg'or yangilik, har doim ham taraqqiy etishi va foydaliligi bilan ajralib turadi. Ta'lim sohasida yangilik kiritish manbalari mamlakat, jamiyat talablari hisoblanadi. O'qituvchilik faoliyati uslublari o'zgarib bormoqda va yanada innovatsion tusga kirmoqda. O'qish, o'rgatish jaraeni tashkil etishga yangicha endashuv, talabalarning bilim darajalarini nazorat qilish va baholashga yangi talablar paydo bo'lmoqda. O'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangi talablar kuchaytirilmoqda. Talabalarni o'qitishning yangicha yo'nalishi talab etilmoqda. Ular quyidagilar:

- taxmin qilish va oldindan ko'ra bilishga o'rgatish;

---

- jiddiy muammolarga (pedagogik) shu jumladan ularning qiyin muqobil yechimlarini topishga qiziqishini rivojlantirish;

- o'quv ishlari mazmunini belgilash bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishga o'rgatish;

- talabalarning izlanish eki tadqiqotchilikni talab etuvchi muammoning o'quv materialga qiziqishini kuchaytirish;

- o'quv mashg'ulotlarida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish.



Umuman, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning sifati va samaradorligi hozirgi kunda ko'p jihatdan barcha turdagi zarur axborot texnologiyalarining sifati va ulardan yuqori samaradorlik bilan foydalana bilishga bog'liq. Bu texnologiyalardan to'g'ri va unumli foydalanish o'qituvchining malaka, mahorat, ijodkorligi, izlanuvchanligiga bog'liq. Ta'lim oluvchilarning ilm-fan, texnikaga doir zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi, zamonaviy axborot texnologiyalari haqida bilishi va ayniqsa, multimedia-elektron versiyalari asosida, audio-video, animatsiya holatlarini qo'llagan holda dars o'tish, ilg'or pedagogik tajribalarni o'zlashtirish, faoliyatga nisbatan kreativ endashuvni rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga, o'qitish, kommunikatsiya, axborot va ta'lim jaraeni boshqarish usul va vositalarining konseptual asoslari, pedagogik texnologiyalarning yo'nalishlari, muammo va yechimlari, tamoyillari, yangi pedagogik texnologiyalarning istiqbollari haqida ham gapirib o'tish joiz. Pedagogik texnologiya, umuman, reproduktiv dars berishga asoslangan bo'lib, undagi o'quv jaraeni talabalarga xos tipik holatlardagi harakatlarni egallashga yo'naltirilgan.

O'qituvchi - bu avvalo, dars boshqaruvchisi. O'quvchining darsda biror-bir yangilik olishi va shu yangilik orqali nimadir qila olishi uning mahorati, bilimi va saviyasiga bog'liq. O'qituvchi har bir darsda dolzarb masalalarni qo'ya olishi, o'quvchilarni bahs-munozaraga chorlay bilishi, darsni oxirigacha qiziqarli tarzda olib borishi fanini o'qitish jaraeni tashkil etish va uning samaradorligini oshirish zarur. Ta'lim sifatini ta'minlovchi yana bir omil- faol o'quvchidir. O'quvchilarni faollashtirish uchun esa o'qituvchi darslarda faol ta'lim metodlari va elementlaridan foydalanishi yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Ta'lim sifatini oshirish va dars jarayonini samarali tashkil etish, pedagogik texnologiyalarning zamonaviy turlaridan o'qitish jarayonida foydalanish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanmoqda. Yangi o'quv materiallari va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida quyidagi darajalar va pedagogik texnologiyalarning xususiyatlarini bilish va ulardan oqilona va to'g'ri foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Boshlang'ich daraja – o'quvchining eshitganlari ularga berilgan namunalar, ko'rsatmalar algoritmi asosida topshiriqlarni bajarish ko'nikmasini ifodalaydi.

2. Algoritmik daraja – bilim va ko'nikmalar mazmunini tatbiq qila olish mahorati, berilgan algoritmi bo'yicha topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarish ko'nikmasini ifodalaydi.

3. Evristik daraja – berilgan o'quv vazifalarini bajarish uchun o'zgarishlar kiritish asosida yangi algoritmlar tuzish, o'quv muammosini hal etish uchun yangi axborotlarni mustaqil tarzda izlab topish malakasini aniqlaydi.



## 2. Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati) va va uni ilmiy tashkil etish.

O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur. Bunda uning mehnati va ana shu mehnatning qanday tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchining mehnati u tomonidan kasbiy faoliyatning tashkil etilishini anglatadi. Mehnat shaxslar tomonidan tashkil etiladigan faoliyatning muhim turlaridan biri hisoblanadi.

O'qituvchining mehnati ko'p holatlarda mehnat deb emas, balki faoliyat, yanada aniqrog'i, pedagogik faoliyat deb yuritiladi. Ushbu tushunchalarning mohiyati bilan tanishish fikrni oydinlashtiradi.

**Faoliyat** – 1) anglangan maqsad bilan boshqariladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) harakatlar yig'indisi; 2) shaxs tomonidan tabiiy, ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

**Pedagogik faoliyat** – o'qituvchi tomonidan aniq maqsadlarga muvofiq tashkil etiladigan kasbiy harakatlar majmui

O'qituvchi tomonidan pedagogik faoliyat (pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati))ning tashkil etilishi kasbiy mehnatning tashkiliy-amaliy jihatdan oqilona uyushtirilishini ifodalaydi. Pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish talab etiladi.

**O'qituvchi faoliyati (mehnati)ni ilmiy tashkil etish** – o'qituvchi mehnati (faoliyati)ning tashkiliy-amaliy jihatdan to'g'ri uyushtirish

Quyidagi **vazifalarning** amalga oshirilishi mehnatni ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etish imkoniyatini beradi:

- 1) vaqtni maksimal darajada tejash va undan samarali foydalanish;
- 2) qulay mehnat va dam olish sharoitini yaratish, undan oqilona foydalanish;
- 3) faoliyat jarayonida o'z salomatligi, har tomonlama rivojlanishi to'g'risida qayg'urish.

Pedagogik faoliyatni ilmiy tashkil etish pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ning tashkiliy-amaliy jihatdan uyushtirish asosida ko'zlangan maqsadga erishishni bildiradi. Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ning ilmiy tashkil etilishi u tomonidan tashkil etiladigan faoliyat samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'qituvchining kasbiy faoliyatni tashkil etishda o'z oldiga aniq pedagogik maqsadni qo'ya olishi kutilgan natijani qo'lga kiritishni ta'minlaydi. **Pedagogik maqsad** o'qituvchining ongida pedagogik jarayonning bir-biriga bog'liq barcha



tarkibiy qismlariga muvofiq yaratilib, o'zi va o'quvchilarning o'zaro ta'sirlari, aloqalari taxmin qilingan natija sanaladi. Mohiyatiga ko'ra **pedagogik maqsadning qo'yilishi** o'qituvchining ongida pedagogik jarayonning bir-biriga bog'liq barcha tarkibiy qismlariga muvofiq tashkil etilishiga erishish asosida o'zi va o'quvchilarning o'zaro ta'sirlari, aloqalari taxmin qilingan natijani avvaldan loyihalash, rejalashtirishga imkon berishini anglatadi.

**Pedagogik faoliyatni rejalashtirish** – aniq maqsad asosida o'qituvchi tomonidan muayyan ko'rinishdagi kasbiy faoliyat loyihasining ishlab chiqilishi, rejalashtirilishi

Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ni rejalashtirishda rejaning oqilona bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Mohiyatiga ko'ra pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ni oqilona rejalashtirishda aniq maqsad asosida o'qituvchi tomonidan muayyan ko'rinishdagi kasbiy faoliyat loyihasining barcha omillar, mavjud shart-sharoitlar inobatga olinadi.

Odatda o'qituvchi tomonidan pedagogik faoliyat (mehnat)ni rejalashtirish bir necha bosqichda kechadi. Bosqichlar aniq maqsad asosida o'qituvchi tomonidan muayyan ko'rinishdagi kasbiy faoliyat loyihasining ishlab chiqilishi, rejalashtirilishining o'zaro bog'liq davrlari bo'lib, mehnat jarayonini samarali, maqsadga muvofiq tashkil etilishini ta'minlaydi.

Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ni ilmiy tashkil etish uchun zarur sharoitni yaratish taqozo etiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan kasbiy faoliyat (mehnat)ni ilmiy tashkil etish uchun jismoniy va ruhiy zo'riqlashlarni kamaytirish chora-tadbirlari ko'riladi. Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ni ilmiy tashkil etish uchun quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. Pedagogik faoliyatni texnologiyalashtirish (vaqtni tejash, kam kuch va mehnat sarflanishini, ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etilishini ta'minlaydi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun xizmat qiladigan axborotlar sifatini oshiradi).
2. Qulay ish o'rnini yaratish (zamonaviy texnik va texnologik jihozlar, qulay ish vaqti, samarali metod, usul va vositalar, o'qituvchining ishchanlik qobiliyatini uzoq vaqt saqlashga xizmat qiladigan mehnat sharoitidan iborat).
3. Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ning samarali shakl, metod, usul va vositalarini tanlash.
4. Pedagogik faoliyat (pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati))ning sur'atini oshirish.

5. Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati) va dam olishining samaradorligini ta'minlash (pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati) samaradorligini oshirish, salomatligini saqlashga xizmat qiladigan oqilona rejimni belgilash).

6. Ish o'rnini shovqindan himoyalash.

7. Aqliy va jismoniy mehnatning o'zaro almashishini ta'minlash.


8. Jismoniy va ruhiy zo'riqishni kamaytirish, tushkunlikka tushishning oldini olishga erishish.

9. Pedagogik faoliyatni mazmunan boyitish yo'li bilan monoton (bir xil) bo'lishining oldini olish va bartaraf etish.

10. Pedagogik faoliyat sur'atining kun davomida bir xil sur'atda bo'lishini ta'minlash.

Shuningdek, pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ni ilmiy tashkil etishda muayyan omillarning ta'siri ham o'rganiladi. Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ning maqsadga muvofiq, to'g'ri tashkil etilishi va natijalanishiga ta'sir etuvchi sabablar tarzida namoyon bo'ladigan omillarning pedagogik faoliyatni ilmiy tashkil etishdagi ahamiyati katta.

Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ni ilmiy tashkil etishda quyidagi omillar ahamiyatlidir (1-rasm):



**1-rasm. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishga ta'sir etuvchi omillarning turlari**

**1. Psixologik-fiziologik (texnik-texnologik) omillar** (jismoniy (dinamik va statit ish), ruhiy (ishning aniqligi), hissiy (ishni bajarishdagi ta'sirlanish) va aqliy (qayta ishlanayotgan axborotlar hajmi, bir vaqtning o'zida kuzatilishi talab etiladigan ishlar soni) zo'riqishlar, pedagogik faoliyatning bir xilligi).

**2. Sanitariya-gigienik omillar** (ish joyidagi mikro iqlim – harorat, nisbiy namlik, havoning harakatlanish tezligi), havoning tozaligi (bug', gaz, aerozollarning





mavjudligi), yoritilganligi, shovqin, vibratsiya, ultratovush, biologik va boshqa ta'sirlar.

**3. Estetik omillar** (shaxs tomonidan atrof-muhitni estetik qabul qilinishini ta'minlovchi omillar – ranglar, shakllar, musiqiy ohanglar, ish o'rnining jihozlanishi, mehnat qurollari (vositalari)ning chiroyli ko'rinishi, ish kiyimlarining ko'rimliligi, binolarning badiiy-me'moriy yechimi; bularning barchasi o'qituvchining kayfiyatiga va o'z navbatida ishchanlik qobiliyatining oshishiga, mehnat samaradorligining yaxshilanishiga ta'sir etadi).

**4. Ijtimoiy-psixologik omillar** (kadrlar tarkibi, hamkasblarning qiziqishlari, rahbariyatning boshqaruv uslubi va boshqalar; ushbu omillar ta'sirida muassasada axloqiy-psixologik iqlim yuzaga kelib, o'qituvchining jismoniy, ruhiy va hissiy barqarorligini, jamoa bilan jipsligini, mehnat faolligini va ijodiy tashabbuskorligini ta'minlaydi).

Aniq maqsad asosida o'qituvchi tomonidan muayyan ko'rinishdagi kasbiy faoliyat loyihasini ishlab chiqish, rejalashtirishga qaratilgan amaliy harakatning samarali bo'lishi pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati) unumdorligini ta'minlaydi. Qolaversa, pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ni tashkil etishda usullarning to'g'ri tanlanishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi tomonidan pedagogik faoliyatning maqsadga muvofiq, to'g'ri tashkil etilishi va natijalanishiga xizmat qiladigan usullarning maqsadga muvofiq, samarali tanlanishi pedagogik faoliyat usullarini to'g'ri tanlash imkoniyatini ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ni ilmiy tashkil etishda muayyan jihatlarga e'tibor qaratish talab etiladi. Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ning o'ziga xosligi kuchli raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ni tashkil etishning o'ziga xos tomonlari, jihatlari sifatida namoyon bo'ladigan pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ni tashkil etishda quyidagi vazifalarni ijobiy hal qilishga e'tibor qaratishi zarur:

1. Kuchli raqobatga bardoshli bo'la olish.
2. O'z ustida doimiy izlanish.
3. O'zining kasbiy salohiyati, malakasi va mahoratini takomillashtiri borish.
4. Yangi pedagogik texnologiyalarni izchil o'zlashtirish.
5. Fan, texnika, texnologiya yangiliklaridan izchil xabardor bo'lib borish.
6. Ijodiy va kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratish.
7. Innovatsion g'oyalarni ilgari surish.

### **3. Pedagogik faoliyatni loyihalash bosqichlari va darajalari**

**Pedagogik faoliyatni loyihalash bosqichlari.** Ma'naviyat sohasida mehnat qilayotgan hozirgi zamon kishisini asosli ta'riflashlardan biri uning loyihaviy faoliyatga nisbatan qobiliyatidir. Loyihaviy faoliyat yangilanish darajasiga oiddir, chunki u borliqni



o'zgartiradi, tegishli texnologiya negizida quriladiki, uni o'zgartirish, o'zlashtirish va takomillashtirish mumkin. Loyihalash asoslarini o'zlashtirish dolzarb, chunki, birinchidan, mazkur texnologiya ta'lim tizimini tashkil qilishning barcha bosqichlarida keng qo'llanishga ega. Ikkinchidan, ijtimoiy madaniyat loyihalash mantig'i va texnologiyasini bilish, tahliliy, tashkiliy boshqarish vazifalarini samarali amalga oshirishga imkon beradi. Uchinchidan, loyihaviy texnologiyalar mutaxassisning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Talabalarga ta'lim va tarbiya berishning muvaffaqiyatliliigi va natijaga egaligi pedagog tomonidan loyihaviy faoliyatni qanchalik o'zlashtirib olganligiga bog'liq, chunki bu faoliyat vaziyatga qarab texnologik yechimlarni takomillashtirishga qodir, yangi ta'lim yondashuvlari va usullarini ishlab chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Loyihaviy faoliyat, V.S.Bezrukovaning fikricha, "ta'lim oluvchilar va pedagoglarning bo'lajak faoliyatlarining asosiy qismlarini birinchi galda ishlab chiqishdan iborat". Har qanday loyihalash ob'ektining, bu pedagogik tizimmi, pedagogik jarayonmi, pedagogik vaziyatmi, uning asosiy qismi – uning ishtirokchilarining faoliyati hisoblanadi. Shuning uchun, birinchi navbatda, o'qituvchi va ta'lim oluvchining faoliyati loyihalashtiriladi. Loyihalash istalgan pedagogning (tashkilotchilik, bilish va muomala qila olish bilan bir qatorda) vazifasidir, maktabda o'quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishga imkon yaratadi. Muallif yana pedagogning loyihaviy faoliyati bilan pedagogik texnologiya o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni alohida ta'kidlaydi: "loyihalash jarayonida va u orqali pedagogik jarayon ishtirokchilarining rivojlanishini ta'minlaydigan pedagogik texnologiya ishlab chiqiladi". Biz texnologiya loyihalash mahsulidir, degan fikrga qo'shilamiz.

Loyihaviy faoliyatning tarkibiy asoslari quyidagilardir:

- 1) muammo tahlili;
- 2) maqsadning qo'yilishi;
- 3) unga erishish uchun vosita tanlash;
- 4) axborotni izlash va qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirish;
- 6) olingan natijalarni baholash va xulosalar.

Predmetli faoliyat uch qismdan tashkil topadi:

- 1) predmetli;
- 2) faoliyatli;
- 3) muloqatli.

Loyihaviy faoliyat rivojlantiruvchi ta'lim uslublaridan biri bo'lib, mustaqil tadqiqotchilik ko'nikmasini hosil qilishga yo'naltiriladi (muammoning qo'yish, axborotlarni to'plash va uni qayta ishlash, tajriba-sinovlar o'tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish) va ijodiy qobiliyat va mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga olib keladi, ta'lim jarayonida olingan bilimlarni birlashtiradi, hayotiy muhim muammolarni mohiyatini tushunishga yordam beradi .



Loyihaviy faoliyatdan kutilayotgan maqsad ta'lim oluvchilar tomonidan turli o'quv fanlarini o'rganish davrida mujassamlashgan bilim, mahorat va ko'nikmalarni tushunish va qo'llay olishdan iborat. Pedagogning loyihalash faoliyatidan kuzatilgan maqsad:

- rejalashtirishga o'rgatish (pedagog maqsadni aniqlay olishi, ish davomida qo'yilgan maqsadga erishishning asosiy bosqichlarini ifoda eta olishi);
- axborot materiallarni yig'ish va uni qayta ishlash ko'nikmasini shakllantirish (pedagog kerakli axborotni tanlay olishi va undan to'g'ri foydalana olishi lozim);
- tahlil qila olish ko'nikmasi (ijodiy va tanqidiy tafakkur);
- yozma hisobot tuza olish ko'nikmasi (ish rejasini tuza olishi, axborotlarni aniq taqdimot etish, izohlarni rasmiylashtirish, zaruriy adabiyotlar (bibliografiya) haqida tushunchaga ega bo'lish);
- ishga ijobiy munosabatda bo'lishni shakllantirish (pedagog tashabbus ko'rsatishi, ishni belgilangan ish rejasini va tartibi bo'yicha o'z vaqtida bajarishga harakat qilishi kerak).

Rossiyalik olim G.E.Muravevaning fikricha, pedagog tomonidan loyihalash faoliyatni yuqori darajada o'zlashtirganligini oldindan ayta olish, rejalashtirish, tuza olish va modellashtirish ko'nikmalarini shakllanganlik darajasi belgilaydi. Bu tushunchalarning va ularning mazmunini alohida qarab chiqamiz. Tadqiqotimiz ob'ekti loyihalash faoliyati bo'lib, u oldindan ayta olish faoliyati bilan jips aloqada bo'ladi, shunga ko'ra bashorat qilishni (oldindan ayta olishni) batafsilroq qarab chiqiladi. Dastlabki tushuncha – bashorat qilish.

**Bashorat qilish** – kelajakda biron-bir voqea-natijasini oldindan ko'rmoq, oldindan aytib bermoq. Didaktik bashorat qilish – didaktik voqealar rivoj topishini ilmiy tarzda oldindan ko'ra olish jarayoni tushuniladi

Bashorat qilish loyihadan farqli ravishda o'zgarimas mazmunga ega. Bashorat qiluvchi modellar asosida ta'lim jarayonini jadallashtirish uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. Didaktik bashorat qilish, shuningdek, pedagogning o'qitish faoliyatini rejalashtirishga asos sifatida namoyon bo'ladi. Bashoratlashning oddiy uslubiyoti tadqiqotning quyidagi asosiy bosqichlarini o'z ichiga oladi: "bashoratlashdan oldingi mo'ljal (ob'ekt, predmet, muammo, maqsadlar, vazifalar, ilgari ketish vaqti, ishchi farazlar, usullar, tadqiqot tarkibi va tashkil etishni aniqlash); bashoratlash muhiti (ob'ekt rivojlanishiga ta'sir etuvchi, bashoratlashning ixtisoslashmagan, qo'shni tarmoqlari bo'yicha ma'lumotlarni to'plash); dastlabki model, ya'ni ob'ekt xarakteri va tarkibini yorituvchi ko'rsatkichlar, o'lchamlar tizimi ma'lumotlarini to'plash; izlash bashorati (dastlabki modelning kelajakdagi loyihasi, bunda bashorat muhiti omillarini e'tiborga olgan holda kuzatiladigan holatlar bo'yicha hal qilinishi talab etiladigan kelajakdagi muammolar aniqlanadi); me'yoriy (berilgan ko'rsatkichlar bo'yicha ko'rsatilgan maqsad



va me'yorlarga muvofiq bo'lgan kelajakdagi dastlabki model loyihasi); ishonchlilik darajasini baholash va bashoratlovchi modellarni aniqlash, odatda, xolis mutaxassislardan so'rash yo'li bilan; bashoratlovchi modellarni taqqoslash asosida yechimlarni ixchamlashtirish uchun tavsiyalar tayyorlash". Bashoratlash – ob'ekt haqida oldin bo'lgan ma'lumotlarni olish jarayoni, ilmiy asosda oldindan asoslashtirilgan holatlar va usullar (B.S.Gershunskiy. Bashoratlash biror-bir holat, jarayon mavjud yoki uning vujudga kelishi uchun shart-sharoit bor deb oladi. Loyihalash jarayoni esa kelajakdagi, ya'ni, hali mavjud bo'lmagan ob'ekt loyihasini tayyorlashdan iborat. Loyihalash bashorat qilish qismini o'z ichiga oladi yoki mavjud bashoratga tayanadi.

Ikkinchi tushuncha – rejalashtirish.

**Rejalashtirish** – biror narsaning rejasi yoki loyihasini solishtirish bo'lib, reja – “umumiy maqsadga birlashgan amalga oshirilishi uchun dastlab bir qancha oldindan uylab qo'yilgan harakatlar, tadbirlarni bajarish talab etiladigan niyat, loyiha, topshiriqdir”

Ko'pincha rejalashtirish va loyihalash sinonimlar tarzida foydalaniladi. Reja va loyihani tuzish maqsadi nuqtai nazaridan, haqiqatda farq yo'q. Reja ham, loyiha ham kelgusi aniq voqelikni yoritadi va uni amalga oshirish uchun tuziladi. Lekin, fikrimizcha, loyihalash rejalashtirishga qaraganda kengroq tushunchaga ega. Rejalashtirish aniq harakat, ularning tartibini belgilash bilan bog'liq, ya'ni, kelajakning o'zgaruvchan tashkil etuvchisi bo'lgan faoliyatdan iborat. Loyihalashda kelajakdagi narsa yoki jarayonlar tamoyillarga tayangan holda asoslanadi va tavsiflanadi, uni amalga oshirish usuli namoyon etiladi. Reja esa o'ylab qo'yilganlarni amalga oshirish yuzasidan harakatlar tizimini aks etadi.

Pedagogning kasbiy faoliyatida rejalashtirish keng o'rin egallaydi. Rejalashtirish jarayonida pedagog oldida turgan faoliyatga diqqat bilan ish tutadi, mazmunini pedagogik jihatdan qayta ishlab chiqadi. Uni tashkil etishning samarali, mahsuldorroq shakllari va uslublarini izlaydi. U uning tarkibini aniqlaydi, uning ayrim qismlari orasidagi bog'lanishni, ayrim qismlari orasidagi o'zaro bog'lanishlarni aniqlaydi, ularni birlashtirish va o'zaro ta'sirining nisbatan mahsulli shakllari va usullarini izlaydi va h.k., ya'ni ishning mahsuldor, unumli tizimini shakllantiradi.

Rossiyalik olim I.P.Rachenko rejalashtirishni ko'zdan kechirishning bir necha tomonini ajratadi. Ijtimoiy nuqtai nazardan pedagogik faoliyatni rejalashtirish – shaxs, jamoaning rivoj topishiga bir butun yondoshuvni loyihalashdan iborat. Rejalashtirishning iqtisodiy tomoni – faoliyat natijasi samaradorligini ta'minlashdir. Psixologik nuqtai nazardan reja miyada harakatlar qonuniy ketma-ketligini aniqlovchi shajaraviy tuzilgan jarayondir. Muallif fikricha reja tuzish – ishni loyihalashtirishdir.



Reja ishning aniq bir tizimidir, bunday tizimlarni loyihalash esa rejalashtirishning asosini tashkil etishi lozim. Bu holda tizimlarni loyihalash – o'quv-tarbiya masalalarining jadal, umumli psixologik-pedagogik yechimini izlashdan iborat. I.P.Rachenko pedagogik faoliyatni rejalashtirishga quyidagilarni kiritadi:

a) pedagog oldida turgan asosiy maqsad nuqtai nazaridan pedagogik holatni baholash;

b) oldindan asosli tarzda ayta olish, ishning borishi va natijalarini oldindan ko'rish, shunga bog'liq tarzda uning maqsad va vazifalarini aniqlash;

v) zaruriy chora-tadbirlar, harakatlar ketma-ketligi dasturini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish uchun eng umumli uslublar, usullar va jihozlarni tanlash;

g) ishni vaqt bo'yicha hisob-kitobini qilish, uning boshlanishi va oxirini belgilash;

ye) hisobga olish va nazorat shakllari va uslublarini belgilash.

I.P.Rachenko keyingi ishlarida rejalashtirish jarayonini quyidagicha izohlaydi:

a) maqsad va vazifalarni shakllantirish;

b) ketma-ket harakatlar dasturini ishlab chiqish;

v) faoliyat jarayoni va natijalari jarayonini vaqti hisobini nazorat qilish.

Ammo, pedagogik adabiyotda bu jarayonlarga nisbatan qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. Masalan, V.I.Zagvyazinskiy istalgan kishi, shu jumladan, pedagogik faoliyatda quyidagi davrlarni ajratadi:

- erishilgan dastlabki holat , boshlang'ich vaziyatlar tahlili;

- tashhislash yo'nalishlarini aniqlash;

- bashorat qilish va oldindan aytish;

- maqsad va asosiy vazifalarni aniqlashni o'z ichiga olgan maqsadga yo'nalganlik;

- o'ziga xususiy masalalar na ularni yechishning asosiy bosqichlarni o'z ichiga

olgan rejalashtirish.

Bunga qaraganda, loyihalash rejalashtirishdan keyin keladi va rejani aniqlashtirishdan iborat. Bizning nuqtai nazarimizda I.P.Rachenko fikrlariga nisbatan bu qarash aniqroqdir, chunki, shaxs o'z faoliyatini rejalashtirish uchun kelajakdagi ta'lim jarayoni dasturi yoki loyihasi bo'lishi kerak.

Rossiyalik olim P.E.Reshetnikov tomonidan tayyorlangan pedagogik faoliyatni rejalashtirish usullari qiziqarlidir:

1) dasturiy-maqsadli;

2) majmuaviy-tadbiri;

3) tizimli-texnologik.

Dasturiy-maqsadli rejalashtirishda faoliyatning yakuniy va oraliq maqsadlari loyihalani va tavsiflanadi, reja, yakuniy hujjat shakli sifatida ish dasturi xizmat qiladi.

Majmuaviy-tadbiri rejalashtirishda quyidagilar loyihalashtiriladi:

a) eng muhim masalalar, ularni yechish uchun yo'naltiriladi;

b) ishning majmua shakliga ega bo'lgan ayrim yo'nalishlari bo'yicha tadbirlar;



- v) bajarish muddatlari;
- g) bajarilishi uchun mas'ullar;
- d) nazorat qilish shakllari va bajaruvchilar;
- ye) kurs mavzularini o'rganish ketma-ketligi;
- j) darsning asosiy bosqichlari, uning jihozlanishi, o'quvchilarga beriladigan vazifalar.

Reja shakli: tadbir, dars va boshqalarning aniq rejasi.

Tizimli-texnologik rejalashtirishda quyidagilar loyihalanadi:

- a) ta'lim muassasasining ta'lim faoliyati yoki rivojlanishi to'g'risidagi va tajriba-sinovlarning yetakchi g'oyalari;
- b) o'quv rejasi;
- v) talabalar tomonidan kasbiy tajribani o'zlashtirishni ta'minlovchi o'quv va kasbiy masalalarining ishlab chiqarilishi;
- g) o'quv jarayonining tartibi;
- d) o'quv fanlari bo'yicha dasturlar;
- ye) har qaysi alohida o'quv kursini o'rganish texnologiyasi;
- j) har qaysi alohida kursni o'tkazish texnologiyasi;
- z) ish unumi mezonlari va ko'rsatkichlari tizimi va mutaxassis kasbiy-shaxsiy rivojlanishini tashhishlash texnologiyasi;
- i) oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkazish texnologiyasi;
- k) moddiy, moliyaviy, kadrlar bilan ta'minlash yuzasidan olib boriladigan ishlar;
- l) pedagogik jamoani rivojlanish jarayonidagi ta'limiy masala-larni hal qilishga tayyorlash bo'yicha ishlarning shakli; muassasaning ta'limiy dasturlari.

Uchinchi tushuncha modellashtirish.

**Modellashtirish** – “bilish ob’ektlarini ularning modellarida tadqiq qilish uslubi; aniq mavjud predmetlar, voqealar va tuziladigan ob’ektlarning tavsifnomalarini aniqlash yoki yaxshilash, ularni yasash usullarini qulaylashtirish, boshqarish kabilar uchun yasash va o’rganish”

Model – tabiiy yoki ijtimoiy borliq muayyan ko‘rinishning, inson madaniyati, g‘oyaviy-nazariy ta‘lim mahsulining, aslining o‘xshatmasi (chizmasi, tarkibi, belgilari tizimi). Bu o‘xshatma asl bo‘lib, uning xossalari va tuzilishi, uni o‘zgartirish yoki boshqarish haqidagi bilimlarni (ma‘lumotni) saqlash va kengaytirish uchun xizmat qiladi. Model - bu aslni bilish va boshqarishdagi “vakili”, “o‘rinbosari”dir. Muayyan shartlarda nusxani tayyorlash va tadqiq qilish natijalari asl nusxaga o‘tkaziladi”. Model tushuntirish, oldindan aytish, topilmali vositasi sifatida, doimo bilishga oid rol ni bajaradi.

Modelning loyihadan birinchi farqi – uni tuzish maqsadidir. Model narsa, hodisani o‘rganish, ma‘lumot (axborot) olish, uning qirralarini o‘rganish uchun, shuningdek, uni



o'zgartirish va boshqarish uchun foydalaniladi. Loyiha esa narsani tuzish, borliqqa mujassamlashtirishda ishlatiladi va yuqorida ko'rsatilganidek, bilishga oid vazifani bajaradi.

Modelning boshqa o'ziga xos xususiyati, yuqorida keltirilgan ta'rifga ko'ra, u aniq mavjud aslni «ifodalaydi», «almashtiradi», loyiha esa hali mavjud bo'lmagan narsalarni tavsiflaydi. Model – borliq qismining o'xshatmasi; uni tuzishda muhim bo'lmagan holatlardan chetlaniladi, faqat bosh asosiy qismlar va tavsifnomalar qayd etiladi. Model – xayoliy tuzilma. Loyihada, aksincha, kelajakdagi narsa va jarayonlar to'g'risida, shartlar e'tiborga olingan holda, aniq tasavvur akslanadi.

Biz bergan modellashtirish tushunchasi ta'rifida hali mavjud bo'lmagan ob'ektlar ham bo'lishi mumkin. Bunda loyihalash va modellashtirish tushunchalari o'zaro kesishadilar. Lekin, ularni ajratish mumkin. Yasalayotgan narsa modeli bevosita narsaning o'ziga mujassamlanmaydi, lekin jarayonning bu eng boshida sodir bo'lishi mumkin. Modellash, shuningdek berilgan shartlarda maxsus uyushtirilgan ta'sir natijasida ob'ektda vujudga kelishi mumkin bo'lgan holat haqida yangi ma'lumot olishga imkon beradi, ya'ni, bashoratlash vazifasini bajaradi. Modellash bashorat qilish uslubi sifatida ta'lim jarayonida o'rganiladigan narsaning axborotli modelini yasash bilan bog'langan bo'ladi. Bu mo'ljallangan chiziqlar deb ataladiganlar ko'rinishida yasalgan mantiqiy chizmalar (u qaysi tushunchalar va ta'riflardan qaysilari tomon harakat qilishni ko'rsatadi), mazmunning asosiy holatlarini yorituvchi turli ramzlar yoki mavzuni o'rganishning aniq rejasi bo'lishi mumkin.

Pedagog va talabalarning faoliyati, usullar bilan to'ldirilgan axborotli faoliyat modeliga, jarayonli modelga aylanadi. Pedagog talabalardagi va yangi ma'lumotni, mavjud va zarur bo'ladigan odat va ko'nikmalarni, boodobliklikning aniq va zaruriy darajasini o'zaro solishtiradi va faraziy tarzda talaba uchrashi mumkin bo'ladigan qiyinchiliklarni aniqlaydi. Farazga asoslanib, u muammoning yechilishini, bo'lishi mumkin bo'lgan xatoliklarni, maqsadga muvofiq bo'lgan yoki bo'lmagan harakatlarni oldindan ko'radi, faoliyatning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlovchi vositalarni tanlaydi, ya'ni, xayolan tajribalar o'tkazadi. Buning uchun xayoliy tajribaga yana bitta shart kiritilishi lozim - talabalarni faoliyatga undovchi shartlarning holati va kuchini, ularning qiziqishlarini, o'z-o'zlarini tarbiyalashga istaklari borligini nazarda tutish, zarur bo'lsa, intilishlarini rivojlantirish chorasini ko'rish lozim.

Pedagogning yuqorida tavsiflangan harakatlari, aynan fikran sinab ko'rishi, loyihalash faoliyatiga kiritilishi mumkin, ya'ni modellashtirish loyihalashning bir qismi bo'ladi. Didaktikada modellashtirishni bilish uchun pedagogning loyihalash faoliyatini aniqlash lozimdir.

Loyihalashning to'rtinchi bosqichi – tuzish-qurish.

Tuzish-qurishda biror-bir ob'ektning tarkibi bosh tushuncha bo'lib, tuzuvchilik faoliyati loyihalash faoliyatidan farqli ravishda, xayoliy va amaliy (buyumli tuzuvchilik)



faoliyat bo'lishi mumkin, xayoliy tuzuvchilik mazmuni bo'yicha loyihalashga yaqin va uning o'xshashi sifatida ko'plab ishlatiladi. Lekin, bizning fikrimizcha, tuzish loyihalashga nisbatan tor ma'nodagi tushuncha, chunki, u yaratilayotgan ob'ektning sirtqi tomonini akslantiradi, loyihalash esa ichki, o'zgaruvchan va boshqa tashkil etuvchilarni o'z ichiga oladi.

Ma'nosi bo'yicha loyihalashga yaqin bo'lgan modellashtirish, bashorat qilish, rejalash, o'quv va o'qitish faoliyatini tuzish tushunchalarining tahlili, ularning umumiyliigi va farqini aniqlash ta'lim jarayonini loyihalash ma'nosi haqida bir qator xulosalar chiqarishga imkon beradi.

**Pedagogik jarayonni loyihalash** – pedagogning tabiiy va ijtimoiy qonuniyatlarni nazarda tutilgan holda ma'lum bir vaqt birligi ichida talabalarni maqsadga muvofiq holda rivojlantirishning kelajakdagi jarayoni va natijasi o'rin oladigan kasbiy faoliyatining bir ko'rinishidir

Bo'lajak ta'lim jarayonining loyihasi loyihalashning mahsulidan iborat. Loyihalash modellashtirishdan tuzish maqsadi bo'yicha farq qiladi. Loyiha loyihalananayotgan ob'ektning borliqqa mujassamlashtirishdan iborat; model - ob'ektning tadqiq qilish uchun, dastlab model, so'ngra uning asosida loyiha ishlab chiqilsa, modellashtirish loyihalashning tarkibiy qismi bo'lishi mumkin.

Loyihalash bashorat qilish tushunchasi bilan uzviy bog'langan. Ularning umumiyliigi shundaki, loyiha va bashorat kelajakdagi didaktik hodisalar haqida tushuncha beradi. Lekin, loyihadan farqli ravishda bashoratlar ehtimoliy mazmunga ega va u yoki bu didaktik jarayonning rivojlanish natijalarini oldindan ko'ra oladi. Loyiha esa bu jarayonlarni qaytadan tuzadi. Loyihalash o'z tarkibiga bashorat qilish qismini kiritishi mumkin. Agar talabaning o'quv-bilish faoliyat rejasini haqida gap borsa, va shu jarayon davom ettirilsa, rejalashtirish loyihani amalga oshirishi tarkibiga kiradi.

Tuzish-qurish ham ta'lim jarayonini loyihalash tarkibiga kiradi. Fikrimizcha, u texnologik jarayonni amalga oshirish uchun moddiy vositalarni tuzishdan iborat. Loyihalash u yoki bu darajada kelajakdagi ta'lim jarayonini modellashtirish, bashorat qilish, rejalashtirish, tuzish-qurish qismlarini o'z ichiga oladi. Ta'lim jarayonini loyihalash – murakkab faoliyat bo'lib, pedagogdan amaliy, didaktik, uslubiy metodologik, buyumli va boshqa bilimlarning tizimini talab qiladi, chunki, u xayoliy darajada haqiqiy ta'lim jarayonini yoritib beradi.

**4. Pedagogik faoliyatni loyihalash ta'minoti.** Loyihalash shaklini tanlash qanday bosqich tanlanganligi va necha bosqichni o'tish kerakligiga bog'liq. Shunday qilib, hozirda uzluksiz ta'lim umumiy o'rta va o'rta maxsus hamda oliy ta'lim muassasalari tomonidan beriladi. Shu maqsadda kasb-hunar kollejlarning asosiy g'oyalari, uning nizomi, bitiruvchilarning kasbiy tavsifnomalari, o'quv rejalari ishlab chiqilgan. Bunda ko'rsatilgan shakllar ikki bosqichni o'z ichiga oladi: modellashtirish va loyihalash. Agar pedagogik jarayon mashg'ulotlarda loyihalananayotgan bo'lsa, u holda uning





modellashtirilishi pedagog va talabalarning tafakkuriga kiritilgan, deb tushuniladi. Mashg'ulotning yetakchi g'oyasi shun-dan iborat. Mashg'ulotning bevosita loyihalanishi tuzish bosqichidan – mashg'ulotlar rejasi, matnini yoki ko'rinishlarini tuzishdan boshlanadi. Loyihalashning istalgan shakli maqsadga muvofiq talab etiladigan, talabalar va pedagoglarning xususiyatlariga, imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. Aks holda ular yuzakigina qabul qilinadi.

**Loyihalashning nazariy ta'minoti** – bu axborotni izlash:

- boshqa joylardagi shunga o'xshash ob'ektlar faoliyatining tajribalari haqida;
- shu kabi ob'ektlarni loyihalashda boshqa pedagoglar tajribasi;
- pedagogik tizimlar va jarayonlarning insonga ta'siri, pedagogik vaziyatlar yechimining nazariy va amaliy, tajribaviy tadqiqotlari.

**Loyihalashning metodik ta'minoti** loyihalash jihozlarini tashkil qilish chizmalar, namunalar, hujjatlar va shu kabilarni tayyorlash; nisbatan qulay va maqsadga muvofiq tuzilmalarni tanlash kabilarni o'z ichiga oladi. Bunga pedagogik jarayonlar yoki vaziyatlarni loyihalashni mazmuniy ta'minlash ham kiradi. Shu maqsadda, masalan, darslar yoki mavzular jildiga ega bo'lish tavsiya etiladi. Ularda o'qituvchi yoki usta aniq ixtisoslikka ega o'quv guruhi uchun alohida mavzular bo'yicha turli materiallarni to'playdi. Bunday darslar jildiga quyidagilar kiradi: oliy va kasbiy ta'limning o'zaro aloqadorlikligi ifodalanuvchi topshiriqlari; hujjatli material; talabalarning ma'ruzalari, ishlanmalari; ko'rgazmali qurollar yoki ularning jamlanmasi; talabalarning mustaqil ishlari uchun yozma-topshiriqlar va shunga o'xshash, blokli-modulli ifodalovchi ish qog'ozlari.

Loyihalashning fazoviy vaqtli ta'minoti agar uni tayyorlashda muayyan vaqt va muayyan fazo e'tiborga olinganidagina aniq qiymatga ega va undan foydalanish mumkin bo'ladi. Fazoviy vaqtli ta'minot – pedagogik loyihalashning zaruriy shartidir.

Fazoviy ta'minlash deb mazkur model, loyiha yoki tuzilmani amalga oshirish uchun eng samarali joy aniqlash (tayyorlash)ni, joyning tizimlar, jarayonlar yoki vaziyatlarni amalga oshirishga joyning ta'sirini hisobga olish tushuniladi. Istalgan model, loyiha yoki tuzilma aniq fazoga bog'lanadi. Bu esa pedagogik jarayon ishtirokchilarining harakatlarini oldindan aytishga yordam beradi.

**Loyihalashni vaqt ta'minoti** – uning hajmi bo'yicha vaqt bilan o'zaro nisbati, ya'ni ma'lum vaqtga sig'adigan va bajarilish sur'ati bo'yicha, maromi bo'yicha faoliyati ketma-ketligi, tezligi va shu vaqtda unga joylashadigan jarayon bilan o'lchanadi. Masalan, vaqtni kasbiy qobiliyat, kasbiy tajriba, ustalikning shakllanishining davom etishi sifatida, shuningdek, tadbirlar, pedagogik vaziyatlarning (tizimlar, jarayonlar, vaziyatlarning) ta'sir etishi, rivojlanish bosqichlari davom etishi sifatida bilish talab qilinishi mumkin. Bularning hammasi pedagog va talabalarning kuchi, quvvati, diqqati va vaqtini to'g'ri taqsimlashga imkon beradi. Shu bilan birgalikda o'zlarida vaqt maromi, chastotasi, oraliq'i, ketma-ketligi, tezligi, hajmini namoyon etadi.



Har bir uslub o'ziga sermehnatligi, mazmuni ham uni berish va o'zlashtirish uchun vaqt talab qiladi. Har bir shakl ma'lum vaqtga mo'ljallangan. **Moddiy-texnik ta'minot** loyihalash jarayonida bir necha vazifani bajaradi. Birinchidan, u loyihalash bo'yicha bevosita faoliyatning o'zini amalga oshirish uchun pedagogik texnika va vositadir. Ikkinchidan, moddiy-texnik qismi turli manbalardan ta'minlanishi sababidan, tabiiydirki, u ham loyihalanishi kerak, ya'ni modellashtirish, loyihalash va tuzish-qurish ob'ekti bo'lishi lozim. Uchinchidan, moddiy-texnik ta'minot xar vaqt tarbiyaviy maqsadlarni yechish vositasi bo'lganligiga ko'ra u pedagogik modellar, loyihalar va tuzilmalar tarkibiy qismi sifatida, tizimlar, jarayonlar, vaziyatlar loyihalanishi kerak. Loyihalash jarayonida pedagogik tizimlar, jarayonlar, vaziyatlarning moddiy-texnik ta'minlanishi to'liq bo'lishiga, ularning faoliyatning bosh yo'nalishlarida to'plamiga, vositalardan ko'chma holda foydalanishga, ularning eng maqbul birikuviga, o'zaro almashtirilishi va o'zaro to'ldira olinishiga erishish lozim. Loyihalashning moddiy-texnik ta'minlanganligiga loyihalashning sodda bo'lishi va loyihani amalga oshirilishi, pedagoglar va o'quvchilar faoliyatida qulayliklar, tarbiya natijalari va ishonchligining turg'un bo'lishi bog'liqdir. Qoniqarsiz moddiy-texnik negiz pedagogik loyihalash yuzasidan barcha mehnatni yo'qqa chiqarishi mumkin. Bu holda istalgan model, loyiha, tuzilmali pedagogik xayoliy sharoitga tushib qoladi.

**Loyihaning huquqiy ta'minoti** – talabalar va pedagoglarning tizimlar, jarayonlar, vaziyatlar chegarasida faoliyatini tayyorlashda huquqiy asosni yaratish yoki uni hisobga olishdan iborat. Hech qanday pedagogik loyiha respublika qonunchiligini, oliy hokimiyat qonunlari va farmonlarini, ta'limning bevosita boshqarish organlari buyruqlarini buzishi mumkin emas.

Psixologlar pedagogning loyihalash jarayonida ikki umumiy maqsadga erishish yo'lini belgilaydilar: mazmuniy va dinamik.

Pedagogik loyihalashning mazmuni, umumiy maqsadga erishishi asosi sifatida, shaxsni tarbiyalash maqsadi va vazifasini o'z ichiga oladi, ularning o'zgarishini saqlaydi, mazmuni, uslublari va shakllarini o'zgaruvchan qiladi. Maqsad va vazifalar boshlang'ich holda aniq berilgan hisoblanadi. Pedagog bu holda shaxs ta'sir etishning shunday usullarini izlaydiki, ular quyilgan maqsadga muvofiq ravishda uni rivojlantirishga yordam beradi. O'zgaruvchan tuzilmalar tashkil etuvchi qismlari sifatida tarbiyalanuvchi va pedagogning shaxsiy imkoniyatlarini oladi. Bu umumiy maqsadga erishish yo'lida fikrlash mantig'i tizim, jarayon, vaziyat ishtirokchilarining aniq imkoniyatlaridan kelib chiqishlari, so'ng maqsad, tamoyil, mazmun, uslublar, vositalar va shakllarni aniqlashdan iborat. Tarkibiy qismlar o'rtasidagi aloqalar va bog'lanishlarni belgilash loyihalashning asosiy amallaridan biridir. Tizim, jarayon yoki vaziyat qismlari o'rtasidagi aloqalarning juda ko'p turlari mavjud. Ulardan asosiyari: vujudga kelish, tug'ilish, yasash, mazmun va boshqarish aloqalaridir. Vujudga kelish aloqalaridan ta'limning mujassamlashgan ko'rinishini, yoki mujassamlashgan o'quv fanini, yoki




mujassamlashgan mashg'ulotni loyihalashda foydalanish mumkin. Mashg'ulot tuzilmalari, mazmuni, uslubiy qismlari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishda yangi ta'limotlar vujudga keladi: ta'limning yangi turi (masalan, muhandislik-pedagogik), yangi o'quv fani (ekologiya), mashg'ulotlarning yangi turi (mujassamlashgan mashg'ulotlar). Qurilish aloqalari jarayonlari qismlari, tarkibi, joylashuvini qamrab oladi. Ulardan foydalanib, mashg'ulotlarda boshqa fanlardan ma'lumotlar kiritish, qismlarini ko'paytirish yoki kamaytirish, joylarini almashtirish mumkin. Haqiqatda loyihalayotgan ob'ekt avvalgicha qoladi, u yengilgina takomillashtiriladi.

Mazmuniy aloqalar aksincha, o'zaro ta'sir etuvchi qismlar – tarkib va mazmun mohiyatiga tegib o'tadilar. Chunonchi, ishlab chiqarishda mehnatning ilg'or shakllari, foydalaniladigan texnologiya xususiyatlari ta'siri ostida tegishli ixtisoslik bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda ta'lim berish uslubiyotini tubdan o'zgartirish mumkin. Boshqaruv aloqalari, loyihalash ob'ektiga an'anaviy yondoshuvni saqlagan holda, uni yangi muhitga, qo'shni tizimlarga, jarayonlar va vaziyatlarga moslashtirgan xolda yengilgina o'zgartirishi mumkin. Masalan, bunday aloqalar ularni kasbiy maqsadga muvofiq bo'lishi zarur bo'lganda o'rnatiladi. Hujjatlarni taqqoslash odatdagidek umumiy holda qabul qilingan tegishli ketma-ketlik, ya'ni, majburiy bo'limlar ro'yxati va ularning tuzilishi e'tiborga olingan xolda amalga oshiriladi.

**O'quv jarayonida qo'llaniladigan modellarning turlari.** Ta'lim jarayonni loyihalashda odatda modellashtirishdan ham foydalaniladi.

**Model** – real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi.  
**Modellashtirish** hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to'la yorituvchi modelni yaratish

O'quv jarayonida quyidagi turdagi modellar qo'llaniladi:



**43-rasm. Modul ta'limining ustuvor tamoyillari**

Quyida ushbu modellarning mohiyati yoritiladi.

**1. O'quv modellari** (ta'lim jarayonida qo'llaniladi; ko'rsatmali qurollar, ko'rgazmali vositalar, trenajyorlar, ta'limiy dasturlar).



**2. Tajriba modellari** (ilmiy, amaliy tajribalarni olib borishda qo'llaniladi; loyihalashtirilayotgan ob'ektning kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilgan nusxasi).

**3. Ilmiy-texnik modellar** (jarayon va hodisalarni tadqiq etishda qo'llaniladi; qurilma, moslama, asbob, jihoz va mexanizmlar).

**4. O'yin modellari** (turli vaziyatlarda ob'ekt tomonidan turli harakatlarni bajarish orqali ko'nikma, malakalarni hosil qilish maqsadida qo'llaniladi; kompyuter, sport, iqtisodiy, harbiy, ishchanlik o'yinlari va b.).

**5. Imitatsion modellar** (real voqelikni u yoki bu darajada shunchaki aniq aks ettirish uchun emas, balki aynan unga o'xshatish maqsadida qo'llaniladi; amaliy harakatlarni bajarishga xizmat qiluvchi turli trenajyor va mexanizmlar).

?	<b>NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:</b>
---	---

1. Faoliyat va pedagogik faoliyat nima?
2. Pedagogik faoliyatni loyihalash qanday bosqichlarda kechadi?
3. Pedagogik faoliyatni rejalashtirish deganda nimani tushunasiz?
4. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishga ta'sir qiluvchi omillarni ayting.
5. Pedagogik faoliyatni loyihalashning nazariy ta'minoti nima?
6. Pedagogik faoliyatni loyihalashning metodik ta'minoti deganda nimani tushunasiz?
7. Pedagogik faoliyatni loyihalashning huquqiy ta'minoti nima bilan xarakterlanadi?
8. Pedagogik faoliyatni loyihalashning vaqt ta'minoti nima?
9. O'quv modellari nima?
10. O'quv modellarining qanday turlari mavjud?

**Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Kolesnikova I.A., Gorchakova–Sibirskaya M.P. Pedagogicheskoe proektirovanie: ucheb. Posobie dlya vyssh. ucheb. zavedeniy / Pod red. V.A.Slastenina, I.A. Kolesnikovoy. – 2-ye izd., ster. – M.: Izd-kiy sentr “Akademiya”, 2007.
2. Muslimov N.A., Urazova M.B. Proektivnaya deyatel'nost' budущеgo uchitelya. Ucheb.posob. – T.: GrandPaper, 2011. – 92 s.
3. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi / Darslik. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008.



#### 4-mavzu: Mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish yo'llari

##### Reja:

1. Innovatsion faoliyatning asosiy funksiyalari va bosqichlari.
2. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish yo'llari.

**Tayanch so'zlar:** innovatsiya, innovatsion faoliyat, akmeologiya, integrativ èndashish, fanlar integratsiyasi, sintez, kasbiy yo'nalganlik, modernizatsiya qilingan dasturlar, konstruktivlash, modullashtirish, algoritmlash, loyihalash.

1. Innovatsiya - so'zi inglizchadan kelib chiqqan bo'lib, uning ma'nosi yangilanish, yangilik kiritish, o'zgartirish degan ma'nolarni bildiradi. Pedagogik jaraenga yangiliklar kiritish bilan uning sifati va samaradorligini oshirish ko'zda tutiladi. Bunda o'qituvchining roli muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jaraeni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi. Unga innovatsion faoliyatini amalga oshirishda akmeologik jihatdan èndashish maqsadga muvofiq. Akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, yetuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatni ongli tahlil qila olish;
- yangiliklarga nisbatan shaylik;
- faoliyatga ijodiy munosabatda bo'lish;
- o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini ro'ebga chiqarish;

- o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy-pedagogik faoliyatda mujassam qilish kabilar. Bundan, o'qituvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni yaratuvchisi, amalga joriy etuvchisi va targ'ibotchisi èki inkor etuvchisi sifatida namoèn bo'ladi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarida interfaol metodlar yetakchi o'ringa ega. Interfaol ta'lim metodlari ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqillikka undovchi omildir. Keyingi paytlarda ta'lim muassasalari amaliètiga quyidagicha nomlangan interfaol ta'lim metodlari keng ko'lamda joriy etilmoqda: aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, klaster (tarmoq), insert texnikasi, pinbord, charxpalak, bumerang, muammoli vaziyat, ishbilarmonlik o'yini, bahs-munozara, mashq va ko'plab shu kabilar. Bularning natijasida zamonaviy mutaxassisni tavsiflovchi kasbiy kompetentlikni tashkil etuvchi shaxsiy sifat va hislatlarni shakllantirish imkonini beradi. Shu o'rinda biz "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" deganda ijobiy natija beradigan, ma'lum nazariyaga tayangan, qo'llanishga qulay, ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar sog'ligiga putur yetkazmaydigan, shu paytgacha amalda keng ko'lamda qo'llanilmagan, yani ma'lum yangiliklarni kiritib,



nisbatan yuqori sifat hamda samaradorlikni ta'minlovchi omillarni tushunamiz. Shuningdek, kasbiy kompetensiyani tarkib toptirish uchun umumta'lim o'quv predmetlarini kasbga yo'naltirib, didaktik birliklarni yiriklashtirib, modullashtirib, mazmunan tutash o'quv predmetlarini integratsiyalab o'qitish texnologiyalari ham kasbiy kompetentlikni tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. Kasb-hunar tayergarligi davrida o'rganiladigan o'zaro bog'liq murakkab, majmuaviy tavsifli masalalarni yechimini topishga, ularning xarakteridan kelib chiqib, tizimli tahlil qilish, integrativ endashish zarur. Biz ta'lim mazmunini integratsiyalash deganda bir-biri bilan tutash axborotlarni sintezlashni ko'zda tutamiz. Shu paytgacha fanlar integratsiyasini sintezlash tushunchasi bilan sinonim deb qaralishi natijasida uning mazmuni va mohiyati birmuncha toraytirilgan. Sintez o'zaro tasir etuvchi elementlarning qo'shilishi natijasida yaxlitlikni hosil qilsa, integratsiya esa ko'p tomonlamalikning birligidir.

Integratsiya- ichki yaxlitlikka intilib, axborotlarni sintezlab, mantiqan tugal tuzilma va unga mos ilmiy taffakurni ko'zda tutadi. Integratsiyalash – o'quv materiallarini umumlashtirish, tizimlashtirish va zichlashtirish jaraeni bo'lib, o'quv vaqtini tejash qilish, qayta takrorlashlarni chek qo'yish, kasbiy yo'nalganlikni ta'minlash, o'quvchilarni mashg'ulotdagi ortiqcha o'quv materiallarini o'zlashtirishdan ozod qilish kabilarni ko'zda tutadi. Ta'lim mazmunining integratsiyasi yaxlitlik, Ammo innovatsiyalar va pedagogik texnologiyalar o'z-o'zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning yangilikka intilish motivatsiyasiga bog'liq jaraen. O'qituvchi faoliyatini o'zgartirmay turib, uning mas'uliyati, ijodkorligi va faoligini oshirmasdan turib ta'limda bir qadam ham oldinga siljib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan ta'lim jaraenida innovatsiyalarni, ya'ni yangiliklarni yaratish, izlash, to'plash va pedagogik jaraenga qo'llash zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar to'g'risida turli daraja va pog'onalarda fikryuritish mumkin; davlat, mintaqaviy, oliy ta'lim, kasb-hunar, akademik litsey va umumta'lim maktab, maktabgacha ta'lim, musiqa maktablari va maktabdantashqari ta'limda innovatsiyalar bo'lishi mumkin. Umuman pedagogik innovatsiyalar deganda pedagogik tizimgayangiliklarni kiritish, o'quv-tarbiyaviy jaraenlarning borishini yangilash, natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishdir.

Innovatsiya – mavjud bo'lgan holatdan, o'zgargan, farq qiluvchi degan ma'noni bildiradi. Ilgaridan loyihalashtirilgan har bir didaktik jaraen ma'lum prinsipial imkoniyatlarga ega bo'lib, u o'quvchi va talabalarda bilim, ko'nikma, malakalarni sifatli shakllanishini ko'zda tutadi. Ta'lim va tarbiyada zaruriy darajadagi natijani olish – pedagogik tizimni



takomillashtirish, uning funksiyasini ijobiy tomonga yo'naltirish, intensiv pedagogik jaraenni vujudga keltirishni taqozo etadi. Chunonchi ta'lim-tarbiyada sifatli, samarali natijani olish uchun mavjud pedagogik tizimni modernizatsiyalash lozim. Shu munosabat bilan innovatsiyalarni ob'ekti sifatida quyidagipedagogik omillarni keltirish mumkin: o'quv-tarbiyaviy faoliyatning motivatsiyasini oshirish; darsda o'quv materiallari, mazmuni, hajmini oshirish; o'quv jaraenining samaradorligini oshirish; ta'lim jaraenida taym menejmentdan foydalanish; ta'lim-tarbiya jaraenida ta'lim oluvchining shaxsiy ishtiroki, faolligi va mas'uliyatini oshirish. Jumladan, innovatsiyalarni pedagogik jaraenga joriy etish yo'llarini belgilash zarur: - yangi pedagogik g'oyalarni shakllantirish; - konsepsiyasini ishlab chiqish; - dastur yaratish; - ijro mexanizmini ishlash; - amaliyotga joriy etish. Hozir respublikamizda pedagogik innovatsiyalarning yaratilishi varivojlanishi keng pedagogik jamoatchiligining harakati, umumta'lim maktablarini modernizatsiya qilinishi, standartlarni takomillashtirilish va dasturlarning yangilanish jaraeni ketmoqda. Yangiliklarni yaratish, izlash, to'plash, qo'llash ishlari jadallashib bormoqda.

Shu sababli, ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jaraenlarga kiritish to'rt bosqichda amalga oshirilishi mumkin:

1. Muammoning ko'pgina yechimini tahlil asosida aniqlash;
2. Mo'ljallanaётgan ta'lim mazmuni, yangilikni loyihalash;
3. O'zgarish va yangiliklarni rejalashtirish;
4. O'zgarishlarni amalga oshirish.

Ilmiy izlanishlar natijasida takomillashtirilgan standartlar va modernizatsiya qilingan dasturlar, darsliklarning yangi avlodi ta'lim muassasalariga yetkazildi. Navbatdagi kechiktirib bo'lmaydigan eng muhim vazifa – ta'limning yangi mazmunini innovatsiyalar asosida tezroq o'quv jaraeniga tatbiq etish mexanizmini yaratish va qo'llash zaruratidir. Chunki davlat ta'lim standartlari, yangi dasturlarni o'quvchi va talabalar bilimiga qo'yiladigan majburiy minimal bilim darajalarni ta'minlash, ta'lim sifatini kafolatlashning, ularning iqtidor, talab, ehtiyojlarini ta'minlovchi yagona omil – ularni amalga kiritishga innovatsion endashuvdir.

O'qituvchi innovatsion faoliyatini shakllantirishning quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

*Birinchi bosqich* – tayёр innovatsion metodik tavsiyalarni olib qo'llaniladi.

*Ikkinchi bosqich* – mavjud tizimga ayrim modifikatsiyalar kiritiladi.

*Uchinchi bosqich* – yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, metod, shakl,



vositalari ishlab chiqiladi. *To'rtinchi bosqich* – o'quvchini yangicha o'qitish va tarbiyalashning o'z konsepsiyasini va metodikasi ishlab chiqiladi. Buning uchun pedagogik innovatsion texnologiyalarni to'plash, nazorat qilish va joriy etish ishlarini tashkil qilish, shunga oid seminar, treninglar, qisqa muddatli o'quv kurslar tashkil etish yaxshi natijalar beradi.

Innovatsion texnologiyalarni yaratish, izlash, topish, to'plash haqida tegishli ma'lumotlar jamg'arma bankini yaratish, tahlil qilish, tanlash, ta'lim muassasasiga joriy etish bo'yicha tashkiliy-pedagogik ishlarni tashkil etish muhimdir.

Endi innovatsiyalarni o'quv jaraeniga qo'llash bosqichlarini keltiramiz. Birinchi vazifa – innovatsiyalarni izlash, to'plash jaraeni amalga oshiriladi. Innovatsion ilg'or texnologiyalarni to'plab, o'rganish va qayta ishlash maqsadida ularni kompyuterda, kartoteka va maxsus yig'ma materiallar banklari tuziladi.

Ikkinchi vazifa – tanlash jaraeni innovatsiyalarni yig'ma banklardan olib o'rganiladi. Mazkur ishlarni ta'lim muassasalari ilmi va metodik kengashlari, fan metod birlashmalari, tuman, shahar xalq ta'limi, o'rta maxsus kasb-hunar boshqarmalarida o'rganib chiqiladi. Ular to'plangan innovatsiyalarni respublika miqesidagi konferensiya, metod kabinetlar, malaka oshirish institutlari, ko'rik tanlov materiallari, avgust kengashlarida targ'ib qilingan innovatsiyalar; axborot va monitoring markazlari, internet xabarlaridan to'plangan innovatsiyalarni o'rganib, to'plab, tanlab ulardan qulaylarini amaliy faoliyatga qo'llash uchun moslarini, ta'lim muassasalariga tarqatadilar. Umuman innovatsiyalarni o'quv jaraeniga qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilarning munosabatlari hamkorlik, ham ijodkorlikda kechadi:

- o'qituvchi bilimni tashuvchi, yetkazuvchigina emas, talabani mustaqil o'qishi, bilim olishida erdamchi, maslahatchi-tashkilotchi rahbarga aylanadi;

- o'qituvchi konstruktivlash, modullashtirish, algoritmlash, loyihalash, atroflicha fikrlash sharoitida ish yuritadi;

- o'quv jaraeni talaba-o'qituvchilarni o'zaro faol ish yuritishga o'rganishga odatlantiradi;

- talabaga o'zini-o'zi o'qitish, faollikda, yakka, juft, kichik, katta guruhlarda ishlashga muhit yaratishi, o'quv jaraenni individuallashtirishni talab etadi. Shu holatlarda o'quv mazmunini, DTS talablari to'la o'zlashtirish kafolatlanadi.

Agar innovatsiyalarni ta'lim jaraeniga qo'llashni yo'lga qo'yilsa:





- o'qituvchi-professorlarning yangilikka intiluvchanligi, yangilikni yaratish, izlab topish, to'plash ta'lim jaraèniga qo'llash, ko'nikma va malakalari shakllanadi;
- uzluksiz mustaqil o'z ustida ishlash asosida yangiliklarni pedagogik faoliyatga tizimli olib kirish ko'nikmasiga ega bo'ladi.
- professor-o'qituvchilar innovatsiyalar, modulli, interfaol, loyihalash, algoritmlash muhitida ish yuritadi;
- o'quv jaraènida talabani faol qatnashishiga, mas'uliyatni his qilib o'z fikrini bildirishga ijodiy muhit yaratadi;
- unda talaba ta'lim jaraènini sifat va samaradorligini ta'minlashda harakatlantiruvchi kuchga aylanadi.

### **2. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish yo'llari**

O'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi quyidagilardan kelib chiqib ishlab chiqiladi:

- OTMlarda ta'limni texnologiyalashtirish qoidasi;
- fan bo'yicha o'quv axborot maqsadi, tuzilmasi, mazmuni va hajmi;
- DTS tomonidan belgilangan, o'quv rejasida aniqlab berilgan vaqtda va berilgan sharoitda ta'lim berish maqsadiga erishishni kafolatlovchi ta'lim berish, muloqot, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini tanlashning konseptual èndashuvlari.

1. Kirish. Ta'lim texnologiyasining bu qismida iqtisodiyatning bozor tamoyillari keskinlashuvi sharoitida va jamiyatning demokratiyalashuvida ta'lim berishni texnologiyalashtirishning dolzarbligi asoslanadi, o'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasining tuzilishi baèn etiladi va ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlariga loyihalangan ta'lim berish texnologiyasiga qisqa tavsiflar beriladi.

2. Ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari. TTning bu qismida quyidagilar èritiladi:

- o'quv fanining dolzarbligi, maqsad va vazifalari, auditoriya soatlarining umumiy hajmi va o'quv fanining namunaviy dasturiga muvofiq ularni mavzular bo'yicha taqsimoti, ish turlari;
- o'quv fanining mazmuni, o'quv fanining namunaviy dasturiga muvofiq o'quv fanining mavzu mazmuni baèn etiladi;
- o'quv mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishning konseptual holatlari - ta'lim berish, muloqot, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini tanlashning asosi bo'ladigan, ta'lim texnologiyasini loyihalash va rejalashtirishning konseptual asoslari.



3. Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlariga loyihalangan ta'lim texnologiyasi. Har bir ta'limiy texnologiya ta'lim texnologiyasi, ta'limning texnologik xaritasi, texnologiya xaritasiga ilovalardan iborat bo'ladi.

O'quv fani bo'yicha o'qitish rejasining tuzilishi va mazmunli tarkibi aniq fan va mavzu bo'yicha mashg'ulotning ta'lim modeli jadval ko'rinishida bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- dastlabki ma'lumotlar: o'quv mavzusi, vaqti, talabalar soni;
- shakl (ma'ruza, seminar va boshq.) va ko'rinishi (masalan, muammoli ma'ruza va boshq.), o'quv mashg'uloti rejasi/tuzilishi, uning maqsadi, o'quv faoliyatining ko'zlangan natijalari, pedagogik vazifalari;
- tanlangan ta'lim modeli: usullar, shakllar va o'qitish vositalari;
- ta'lim berish sharoiti: maxsus jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar;
- monitoring va baholashga asoslangan qaytar aloqaning yo'l va vositalari: nazorat turi (èzma va og'zaki), nazorat shakli (tezkor-so'rov, test olish, taqdimot, o'quv topshiriqlari va boshq.). O'quv mashg'ulotining texnologiya xaritasi uch qatorni o'z ichiga olib, 1,5-2 varaqda jadval ko'rinishida bajariladi: (1) o'quv mashg'uloti bosqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati; (3) ta'lim oluvchi faoliyati. Ilova o'quv jaraenining tashkiliy - didaktik vazifasini bajaradi: o'quv/mustaqil ish uchun savol va topshiriqlarni, uni baholash mezonlarini, o'quv ish jaraenida talabalar amal qilishi lozim bo'lgan qoidalar, ta'lim beruvchi foydalanadigan tayanch èzmalar, shuningdek chizma, jadval, slaydlar va boshqa ko'rgazmali materillar, rejalashtirilgan maqsadlarga erishishni nazorat qilish uchun topshiriqlar (testlar, savollar, topshiriqlar va mashqlar). Bu yerda taqdim etilgan materiallar chegaralanmaydi. Faqat ular katta hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli chizmalarda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

Shu tariqa ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha yakun yasaydi, ta'lim oluvchilar e'tiborini asosiylarga qaratadi, bajarilgan ishlarni kelgusi kasbiy ish faoliyatidagi ahamiyatini ma'lum qiladi, guruhlar, alohida talabalar ishini baholaydi èki o'zaro baholashning yakunini chiqaradi; o'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini baholaydi; mustaqil ish uchun topshiriq beradi. Ta'lim oluvchilar o'zaro baholashni o'tkazadilar, savol beradilar, topshiriqni èzadilar. Iqtisodiy ta'lim jaraenida darslarning samarali tashkil etilishi va yuqori malakali iqtisodchi mutaxassislar tayèrlashda dars jaraenining to'g'ri loyihalashtirilishi muhimdir. Chunki pedagog tomonidan dars jaraeni qanchalik to'g'ri rejalashtirilsa va olib borilsa, talabalarning fanga nisbatan ijobiy munosabatlari ham unga monand bo'lishi tabiiy. Natijada barcha mezonlar to'g'ri amalga oshirilib, darsning samarali tashkil etilishi ta'minlanadi.



Quyida mutaxassislik fanlarini o'qitishda foydalaniladigan innovatsion texnologiyalar haqida so'z yuritamiz.

**Fikrlar hujumi texnologiyasi.** Fikrlar hujumining maqsadi mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan xoli etish, ijodiy vazifalarni bajarish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir. Ushbu usul biror muammoni hal etishda guruh ishtirokchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadi hamda eng samarali hisoblanadi. Bu uslub orqali shaxsni texnik rivojlantirish mumkin, u to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. Uslubning asosiy tamoyili va qoidasi bahs ishtirokchilari ishlab chiqqan g'oyalar tanqidini mutlaq taqiqlash, har qanday luqma va hazil– mutoyibani rag'batlantirishdir.

**Aqliy hujum texnologiyasi.** Aqliy hujum texnologiyasi biror muammoni yechishda guruh qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga keladigan samarali usullardan biridir. U to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar hisobga olinadi, qancha ko'p fikr va g'oyalar bildirilsa shuncha yaxshi. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish, kengaytirish, qayta o'zgartirish mumkin. Berilgan g'oyalar asosida muammoni hal etishga yordam beradigan yechimni tiklash uchun muhokama o'tkaziladi. Bu haqiqatan ham talabalarning ta'lim jarayonida faoli shtirok etishlari, turli g'oyalarni bayon etish chog'ida boshqalarni ham qizg'in ishga yo'llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag'batlantiruvchi samarali metoddir. Aqliy hujum shuning uchun ham faollashtirishning muhim usuliki, unda tanho ishlash mumkin emas, birgina g'oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o'ziga tortib oladi.

**Klaster texnologiyasi.** Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u talabalarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, talabalarni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu uslub biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaqlida ifodalashga undaydi.

**Skarabey texnologiyasi.** Skarabey uslubi interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, biror muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Ushbu texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda



bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. Skarabey texnologiyasi talabalar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega. Demak, o'quv jaraenining samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish va ta'limni texnologiyalashtirish bugungi kunda dolzarbdir. Buning uchun ta'lim-tarbiya jaraenida pedagog va o'quvchi talabaning teng faolligi ta'minlanishiga erishish lozim.

O'qituvchi innovatsion faoliyati bir necha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ta'limning bugungi vazifasi o'qituvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot—ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimlaridan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Shu maqsadda, o'quvchilarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlar imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish zarur. Bu masalaning yechimi tabiiyki, mazkur jarayonning asosiy tashkilotchisi—pedagoglarni tayyorlash sifatiga bog'liq. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni qo'llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- o'quv faning aniq maqsadini aniqlash;
- fanning hajmi va mazmunini aniqlash;
- zarur bo'lgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;
- fanning moddiy texnik ta'minotini yaratish;
- ta'lim oluvchilarning xususiyatlarini o'rganish;
- o'qituvchining tayyorligini va dars mashg'ulotini loyihalash.

**Suhbat** ta'limning keng tarqalgan usuli bo'lib, darsning istalgan bosqichida qo'llanishi mumkin. Suhbatning to'rt xil turi mavjud bo'lib, ular: yangi bilimlar berishda, bilimlarni mustahkamlashda, olingan bilimlarni tekshirishda, o'tilgan materialni takrorlashda qo'llaniladigan suhbatlardir. Yangi materialni tushuntirishdagi suhbat, asosan, o'quvchining shaxsiy tajribasiga tayanadi. Uning manbai ko'rsatmali qo'llanmalar, darslik materiallari, jadval va hokozolar bo'lishi mumkin.

Yangi bilimlar berishga doir suhbatni induktiv yo'l bilan (ya'ni xususiy ma'lum yoki zarur voqealardan umumiy voqealarga qarab borish tarzida) yoki deduktiv yo'l bilan (ya'ni umumiy hodisadan xususiy hollarga qarab borish tarzida) o'tkazish mumkin. Bilim berishning induktiv va deduktiv yo'llari o'zaro bog'liqdir. Masalan, o'qituvchi qator misollarni aytishi va keyin xulosa chiqarishi yoki umumlashtirishi mumkin (induksiya).



Yangi bilimlar berishda evristik suhbatdan foydalaniladi. Bu metod o'qituvchi talabalar oldiga ma'lum bir vazifa qo'yib, ularni og'zaki savollar orqali ana shu vazifani hal qilishga olib borishda qo'llanadi.

Suhbatning muvaffaqiyatli o'tishi savollarning mohirlik bilan qo'yilishiga bog'liqdir. O'qituvchining savollari, avvalo, qisqa va aniq bo'lishi, mantiqiy izchillikda berilishi, o'quvchining fikrini uyg'otishi: uni o'ylashga, tahlil qilishga, taqqoslashga majbur etishi, yangi hodisalarni tushunishga undashi kerak. O'qituvchilar savollarga to'liq, ongli ravishda va asosli javob berishlari, mustaqil fikrlarini aks ettirishlari lozim. Suhbatni bilimlarni mustahkamlash uchun ham o'tkazish mumkin. U o'qituvchining axborotidan keyin yoki darslikdagi materialni mustaqil ishlab chiqilgandan keyin o'tkaziladi. Suhbat mustahkamlovchi metod sifatida bilimlarni tekshirish va baholash jarayonida ham o'tkazilishi mumkin. Bu usul munozara va mubohasa metodlariga kiradi.

**Ta'limiy suhbat.** Ekskursiya, amaliy ish va yangi materialni tushuntirgandan keyin ularni mustahkamlashda, takrorlashda, shuningdek, ekskursiya va yangi materialni tushuntirish davomida o'qituvchi o'quvchilar bilan suhbatlashadi. Suhbatni o'quvchilar shaxsiy tajribalari va kuzatishlari, mavjud bilimlari asosida o'qituvchining savolini tushunadigan va unga javob qaytara oladigan bo'lganlaridan keyin o'tkazish mumkin. Agar ana shunday sharoit (bilimlar, tajriba va kuzatishlar) bo'lmasa, o'quvchilar hech qanday tasavvurga ega bo'lmagan narsalar, hodisalar to'g'risida suhbat o'tkazishning mutlaqo foydasi yo'q. Har qanday suhbatning asosini didaktik masala tashkil etadi. Ana shu masala suhbatning vazifasini va xarakterini, hatto uning turini ham belgilaydi. Shunga ko'ra, ta'limiy va evristik-ta'limiy suhbatlar bo'ladi.

**Ta'limiy suhbat** o'rganiladigan materialni yanada mustahkamlash, chuqurlashtirish va takrorlash maqsadlariga xizmat qiladi. Yangi mavzu tushuntirilgach, garchi har bir bola faol qatnashmasa ham ularning xotirasi va tafakkurini rivojlantirish uchun suhbat o'tkazish zarur. Unda to'g'ri fikr yuritish uchun misollarning namunalari bo'ladi. Bundan tashqari, adabiyot, jamiyatshunoslik va boshqa fanlarga doir darsliklardagi suhbatlarda o'quvchilarning o'qituvchi aytgan g'oyalari to'g'ri kelmaydigan xususiy fikrlari yoki tushunchalari ham ma'qullanadi, o'qituvchi o'quvchilarning javoblarini e'tirof etishga yoki rad qilishga shoshilmaydi. Aksincha, sinfda ular o'z fikrlarini yoki mustaqil mulohazalarin erkin aytishlari uchun sharoit yaratishga harakat qiladi. Javoblarni baholashda esa ularning shunchaki to'g'ri yoki noto'g'riligini qayd qilish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarning javoblaridan ozgina bo'lsa-da, to'g'ri fikrlarini izlaydi. Ulardan zarracha haqiqatni topsa, uni o'zi qisqa va yaqqol qilib takrorlaydi, o'quvchining mustaqil fikr yuritganini ta'kidlaydi va uni shunday qilishga da'vat etadi. Muvaffaqiyatli fikrlar, hatto ayrim ifodalar mazkur mavzuda



nima haqida gap borayotganini tushunishga yo'l ochsa, ta'limiy suhbatning evristik-ta'limiy suhbatga aylanishi uchun xizmat qiladi. Noto'g'ri javoblar, agar jiddiy bo'lmasa, o'qituvchi tomonidan qayd qilinmaydi yoki yo'l-yo'lakay tuzatib ketiladi.

?	<b>NAZORAT UChUN SAVOL VA TOPShIRIQLAR:</b>
---	---

1. "Akmeologiya" so'zining ma'nosini ayting.
2. Innovatsion faoliyatning asosiy funksiyalariga nimalar kiradi?
3. Innovatsiyalarni pedagogik jaraenlarga kiritish qanday bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin?
4. Interfaol ta'lim metodlariga misol keltiring.
5. Integratsiya va integratsiyalash so'zlari nima ma'noni anglatadi?

**Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Kolesnikova I.A., Gorchakova-Sibirskaya M.P. Pedagogicheskoe proektirovanie: ucheb. Posobie dlya vyssh. ucheb. zavedeniy / Pod red. V.A.Slastenina, I.A. Kolesnikovoy. – 2-ye izd., ster. – M.: Izd-kiy sentr "Akademiya", 2007.
2. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi / Darslik. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008.
3. Pedagogika / Bakalavriat yo'nalishi uchun darslik / Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010.
4. Bezrukova V.S. Pedagogika. Proektivnaya pedagogika / Ucheb. dlya industrialno-pedagog. texnikumov i dlya studentov injenerno-ped. spes-tey. – Yekaterinburg: Delovaya kniga, 1999. S. 100-103.



#### IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

##### 1-amaliy mashg'ulot: Ta'lim jarayonida innovatsion muhitni loyihalashtirishning mazmun mohiyati.

###### Reja:

1. Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari va tamoyillari.
2. Ta'lim jarayonini loyihalash: loyiha – mazmun – faoliyat.
3. Ta'lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirishning tipologik belgilari.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** faoliyat, pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati), pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ni tashkil etish, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, loyiha ta'limi, pedagogik loyihalash, pedagogik loyihalash shakllari.

**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:** tinglovchilarda ta'lim jarayonida innovatsion muhitni loyihalashtirishning mazmun mohiyati haqidagi bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish.

Amaliy mashg'ulotni tashkil etish va o'tkazishda qiziqarli ijodiy topshiriqlar, mashqlar, treninglar, so'rovnomalar va interfaol ta'lim metodlaridan foydalaniladi.


##### 1-amaliy topshiriq.

Quyida berilgan chizmalardan foydalanib, loyiha texnologiyasining ta'lim jarayonidagi o'rni, bunda innovatsion muhitni loyihalashtirishning mazmun mohiyati haqida fikr bildiring.




## Loyihali ta'lim texnologiyasining dolzarbligi

Loyihaviy ta'lim quyidagi dolzarb ta'lim muammolarini hal etish imkonini beradi va davr talabiga mos keladi:



## O'quv loyihaviy faoliyat: tuzilishi va mazmuni







## 2-amaliy mashg'ulot: Innovatsion jarayonlar rivojlanishining umumiy tendensiyalari

### Reja:

1. Pedagogik innovatsiyalarning rivojlanish shart-sharoitlari.
2. Innovatsion faoliyatning nazariy omillari.
3. Pedagogning innovatsion faoliyatiga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari

**Tayanch tushunchalar:** pedagogik innovatsiya, innovatsion jarayon, yangiliklar kiritish, motivatsiya, ilmiy tafakkur, ijtimoiy muhit, amaliy qo'llanilishi, innovatsion bosqich, pedagogik g'oya.

**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:** tinglovchilarda innovatsion jarayonlar rivojlanishining umumiy tendensiyalari haqidagi bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish.

Amaliy mashg'ulotni tashkil etish va o'tkazishda qiziqarli ijodiy topshiriqlar, mashqlar, treninglar, so'rovnomalar va interfaol ta'lim metodlaridan foydalaniladi.

### 1-amaliy topshiriq.

“Pedagogning innovatsion faoliyatiga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari” mavzusida 10 minutlik esse yozing.

### 2-amaliy topshiriq.

Berilgan namunaga ko'ra mutaxassislik fanlarini o'qitishda SCAMPER strategiyasini qo'llash asosida innovatsion muhitni yarating. Savollar grafasiga o'zingiz dars beradigan mutaxassislik fanlari mavzusi bo'yicha tuzilgan savollarni yozing.

**SCAMPER** mnemonik sxemasidan moslashuvchan fikrlash ko'nikmasini shakllantirishda foydalanish

SCAMPER	Savollar	Vazifalar
---------	----------	-----------



Substitute (almashtirmoq o'zgartirmoq)	Agar shokoladning o'rniga vanilladan foydalanilsa qanday pirog xosil bo'ladi?	Variantlar ro'yxatini tuzing va undan birini tanlab oling
Combine (birlashtirmoq)	Agar shokoladli pirog qaymoqli krem bilan bezatilsa, qanday ta'mga ega bo'ladi?	Variantlar ro'yxatini tuzing va undan birini tanlab oling
Adapt (moslashtirmoq)	Yumaloq pirog shaklini qanday o'zgartirish mumkin?	Variantlar ro'yxatini tuzing va undan birini tanlab oling
MaximizeG'minimize (maksimallashtirmoqG' minimallashtirmoq)	Pirogning eng kichik va katta bo'lagi qanday shaklga ega?	Variantlar ro'yxatini tuzing va undan birini tanlab oling
Putto other uses (boshqa sohaG'usulda qo'llash)	Shokoladli pirog bilan yana nimalar qilish mumkin?	Variantlar ro'yxatini tuzing
Eliminate (oldini olmoq)	Shokoladli pirogga shakar solish esdan chiqqanda nima bo'lar edi?	Variantlar ro'yxatini tuzing.
Rearrange (qo'llanilishini o'zgartirish)	Shokoladli pirogni insonlar taom o'rnida iste'mol qilsalar qanday natijaga olib kelar edi?	Variantlar ro'yxatini tuzing

### 3-amaliy mashg'ulot: Pedagogning innovatsion faoliyatini shakllantirish hamda pedagogik faoliyatni loyihalash bosqichlari va darajalari

#### Reja:

1. Ta'lim tizimida olib borilayotgan innovatsion jarayonlarning mazmun mohiyati.
2. Pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati) va va uni ilmiy tashkil etish.
3. Pedagogik faoliyatni loyihalash bosqichlari va darajalari.
4. Pedagogik faoliyatni loyihalash ta'minoti.

**Tayanch tushunchalar:** faoliyat, pedagogik faoliyat, pedagogik faoliyatni loyihalash, bosqich, pedagogik faoliyatni rejalashtirish, o'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish, omillar, nazariy ta'minoti, metodik ta'minoti, huquqiy ta'minoti, vaqt ta'minoti, o'quv modellari.



**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:** tinglovchilarda pedagogning innovatsion faoliyatini shakllantirish hamda pedagogik faoliyatni loyihalash bosqichlari va darajalari haqidagi bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish.

**1-topshiriq.** Keyingi ikki yil ichida mutaxassislik faningizga oid qanday yangi ilmiy materiallar, maqola va adabiyotlarni o'qib, tahlil qildingiz. Fikringizni bayon eting.

**2-topshiriq.** O'rgangan ilg'or tajribalaringizdan namunalar keltiring.

**3-topshiriq.** "Pedagogning innovatsion faoliyati", "Pedagogik faoliyatni loyihalash" to'g'risidagi qarashlaringizni bayon eting.

**4-topshiriq:** Pedagogning innovatsion faoliyatini shakllantirish hamda pedagogik faoliyatni loyihalashga oid testlar tuzing va ularni yeching.

**5-topshiriq:** "Pedagogning innovatsion faoliyati" mavzusini interaktiv strategiyalar, grafik organayzerlar asosida tahlil qiling.

### **4-amaliy mashg'ulot: Mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish yo'llari**

#### **Reja:**

1. Innovatsion faoliyatning asosiy funksiyalari va bosqichlari.
2. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish yo'llari.

**Tayanch so'zlar:** innovatsiya, innovatsion faoliyat, akmeologiya, integrativ endashish, fanlar integratsiyasi, sintez, kasbiy yo'nalganlik, modernizatsiya qilingan dasturlar, konstruktivlash, modullashtirish, algoritmlash, loyihalash.

**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:** tinglovchilarda mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish yo'llari haqidagi bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish.

**1-topshiriq:** Mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish yo'llariga oid testlar tuzing va ularni yeching.

**2-topshiriq:** "Mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish yo'llari" mavzusini interaktiv strategiyalar, grafik organayzerlar asosida tahlil qiling.

**3-topshiriq:** INTERNET ma'lumotlariga asoslanib, "Mutaxassislik fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish yo'llari" masalalarini tahlil qiling. Individual yoki guruhviy axborotlar tayyorlang.



#### 4-topshiriq.

Quyidagi blis-so'rov savollariga javob bering.

№	Savol	Javob
1.	Texnologiya nima?	
2.	Pedagogik texnologiya nima?	
3.	Innovatsion texnologiya nima?	
4.	Innovatsion muhitni loyihalashtirish deganda nimani tushunamiz?	
5.	Loyiha texnologiyasining mazmun mohiyati haqida gapiring.	

#### 5-amaliy mashg'ulot: Innovatsion yondashuv asosida mustaqil loyiha ishlari mazmuni va namunalar

##### Reja:

1. Innovatsion yondashuv asosida "Pedagogik akmeologiya" mavzusida o'quv loyihasini tayyorlash.

2. Loyiha mavzusining dolzarbligini asoslash, maqsad vazifalarni belgilash.

**Tayanch so'zlar:** innovatsion yondashuv, akmeologiya, integrativ endashish, fanlar integratsiyasi, loyihalash, mutaxassislik fanlari, innovatsion texnologiyalari.

**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:** Innovatsion yondashuv asosida mustaqil loyiha ishlari tayyorlash yo'llari haqidagi bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish.

##### O'quv loyihani tayyorlash bosqichlari:

1. "Pedagogik akmeologiya" mavzusidagi ma'ruza matnining qisqacha bayoni bilan tanishib chiqing.

Akmeologiya – (o'zb. akme - kamolot, yuksalish, yetuklik ma'nolarini anglatadi < ot. rus. akme – rassvet, vershina. < grek. akme - pik, vershina, vısshaya stepen chego-libo.) predmetlararo fan bo'lib, u tabiiy, ijtimoiy, gumanitar fanlar chegarasida (tutashuvida) paydo bo'lgan yangi fan sohasidir. Akmeologiya inson yetuklik davri rivojining (komillik davrining) qonuniyatlari, mexanizmini o'rganuvchi fan. Pedagogik akmeologiya esa pedagogning kasbiy mahoratidagi erishgan yutuqlarini ko'rsatuvchi fandir. Akmeologiyada ob'ektiv va sub'ektiv omillarga katta e'tibor qaratiladi. Ular bir-birlari bilan o'zaro harakatda bo'lib, katta yoshdagi odamni akme darajasiga erishishiga imkoniyatlar yaratadi. "Akme" tushunchasi yangi ilmiy fani asosidir.

Ko'pgina ilmiy tasniflarda odamning paydo bo'lish va uning rivojlanishi quyidagi bosqichlarga bo'linadi: bolalik, kattalik, qarilik.

Yetuklik darajasidagi katta odamni o'rganish predmeti bo'lgan fanni ko'pincha akmeologiya deb atashadi. Ushbu fan ilmiy bilimning tabiiy, ijtimoiy, gumanitar va texnikaviy sohalari to'qnashuvida paydo bo'ldi. Akmeologiya odamni maqsadga muvofiq ketma-ket intilib, dastlabki, o'rta va keyingi yetukligida individ sifatida (murakkab tirik organizm sifatida), shaxs sifatida (bu holda voqelikning turli tomonlarga bo'lgan munosabatlarni odam tomonidan o'zlashtirishi nazarga olinadi) va faoliyat sub'ekti sifatidagi (asosan professional sifatida) yuzaga kelish fenomenologiyasi, qonuniyatlari mexanizmlarini aniqlab beradi.

Akmeologiya fani shu jihatdan falsafa, sotsiologiya, genetika, psixologiya, pedagogika, etika, estetika, madaniyat, valeologiya, gerantologiya fanlari bilan hamkorlikda o'z yo'nalishi, muammo va ularning yechimlarini topishga qaratilgandir.

Shuningdek, akmeologiya yo'nalishlari yoki turlari pedagogik akmeologiya, harbiy akmeologiya, ijtimoiy akmeologiya, yuridik akmeologiya, ekspremental akmeologiya kabilarga bo'linadi.

Akmeologiya - mustaqil fan sifatida o'zining predmeti, ob'ekti, metodlari va boshqalarga ega.

## 2. "Pedagogik akmeologiya" mavzusidagi o'quv loyihasining bukletini tayyorlash.



Дунёда mavjud  
bўlgan jammi narsalar tabiatida  
kўra kamolot sari intiladi.  
Kamolot sari intilishning usi  
esa moqolat z'atibori bilan ya-  
shiladi.

Абу Али ибн Сино

Тошкент 2015





3-3-

**Pedagogik akmeologiyaning mustaqil fan sifatida o'rganilishi**

**Akmeologiya** – (o'zb.akme.- kamolot, yuksalish, yetuklik ma'nolarini anglatadi ot rus. akme-rassvet. vershina. grek.akme-pik.vershina. vıssshaya stepen chego-libo.) predmetlarro fan bo'lib, u tabiiy, ijtimoiy, gumanitar fanlar chegarasida (utashuvda) paydo bo'lgan yangi fan sohasidir.

*Akmeologiya inson yetuklik davri rivojining (komillikdavrinin) qonuniyatlarini, mexanizmini o'rganuvchi fan:* Pedagogik akmeologiya esa pedagogning kasbiy mahoratidagi erishgan yutuqlarini ko'rsatuvchi fandır. Akmeologiyada ob'ektiv va sub'ektiv omillarga katta e'tibor qarailadi. Ular bir-birlari bilan o'zaro arakatda blib, katta yoshdagi odamni "akme" darajasiga rishishga imkoniyatlar yaratadi.

Pedagogik akmeologiya ob'eki komil insonning o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni qonuniyatlarini, mexanizmlari, shart-sharoitlari hamda omillarini o'rganuvchi, shuningdek inson taraqqiyotiga monelik qiluvchi xolatlarini o'rganish jarayonidir.

Bugungi kunda pedagogik akmeologiyani o'rganish **predmeti** sifatida.

- Pedagogik masalalarni yechimini topishda erishiladigan yutuqlarning yuksaklikka erishishida nafaqat individning, balki pedagogik kollektiv faoliyatining qonuniyat va mexanizmlarini o'rganish:

- O'quvchi-akmeologning bosqichma-bosqich shakllanish jarayonlari tadqiqi:

- Pedagogik faoliyat kasbiy yutuqlari, motivlari:

Pedagoglarda kasbiy yetuklik traektoriya (yo'l)lari kabilarni ko'rishimiz mumkin.

E.Erikson shaxs "Men"ning rivojlanish bosqichlari jadvali		
Bosqich	Ijoiy ham salbiy jixatlarni	Yoshi
1-bosqich	ishonch-ishonchsizlik	bu hayotning 1-chi yili
2-bosqich	mustaqillik	2-3 yoshlar
3-bosqich	tadbirkorlik va gunokorlik xissi	4-5 yoshlar
4-bosqich	chaqqonlik va	6-11 yoshlar
5-bosqich	shaxs identifikatsiyasi	12-18 yoshlar
6-bosqich	yaqinlik va yolg'izlik	yetuklikning boshlanishi
7-bosqich	umuminsoniylik va o'ziga berilish	yetuklik davri
8-bosqich	yaxlitlik va ishonchsizlik	keksalik

**3. "Pedagogik akmeologiya" bo'yicha assisment tuzish.**

TEST	MUAMMOLI VAZIYA T
<p><b>1. Pedagogning kasbiy va shaxsiy sifatidagi yetuklik darajasi noto'g'ri ko'rsatilgan qatorni ko'rsating.</b></p> <p>A) kasbni egallaganligi, kasbiy mahorati;</p> <p>B) pedagog kasbining faollashuvi, pedagogning ijodkorligi;</p> <p>V) intellektual salohiyati, ijtimoiy kelib chiqishi.</p> <p><b>2. Yosh davrlari darajasi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni ko'rsating?</b></p> <p>A) pedologiya, akmeologiya, gerontologiya;</p> <p>B) pedagogika, androgogika, akseologiya;</p> <p>V) pedologiya, androgogika, akmeologiya</p>	<p>Bir kuni mag'rur tilshunos sohilda turgan qayiqqa minib qarshi tomonga o'tmoqchi bo'libdi. Qayiqqa mingach qayiqchiga qarab: "Sen xayotingda tilshunoslikni o'qidingmi?" – debdi. "Yo'q, men oddiy bir qayiqchiman", –debdi. "Bay-bay, bu gapingga juda xafa bo'ldim. <b>Demak umringning yarmi bekorga ketibdi-ya</b>", – deya qayiqchiga achinib qarabdi tilshunos.</p> <p>Ittifoqo, xuddi shu payt to'fon ko'tarilibdi. To'fon borgan sayin kuchayar, qayiq cho'kish arafasida ekan. Shunda qayiqchi ro'parasida qo'rquvdan dir-dir titrayotgan olimdan: "Xoy bilimdon do'stim. Ayt-chi, suzishni bilasanmi?" – deya so'radi. "Yo'q" degan javobni olgan qayiqchi dedi: "<b>Bay-bay, sen butun umringni bekor o'tkazibsan.</b> Hozir umring zoe ketadi. Chunki birozdan so'ng qayig'imiz cho'kadi. Bilib qo'y, xozir bu yerda tilshunoslik ilmi emas, qayiqchilik ilmi</p>



	qo'l keladi. Agar qayiqchilik ilmini bilsang, xotirjam o'zingni dengizga ot!" – debdi. <b>Muammo: Suhbatdoshlarnng "akme" darajasini aniqlang</b>
<b>SIMPTOM.</b> Pedagogning sifat tasnifini sanab bering.	<b>AMALIY KO'NIKMA.</b> O'zingizning kasbiy va shaxsiy "akme"ingizni baholang.

#### 4.O'quv loyihaning pedagogik annotatsiyasini tuzing.

##### Pedagogik annotatsiya

**O'quv fani:**

**Loyiha mavzusi:** Pedagogik akmeologiya

**Ishtirokchilar:** Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya yo'nalishi tinglovchilari.

**Loyiha doirasida yechimini topish talab etiladigan muammo:** pedagogik akmeologiyaning maqsadi, ob'ekti, predmeti va vazifalari, pedagogik akmeologiya fanining qonuniyatlari, kategoriyalarini aniqlashtirish, pedagogik soha vakillarni pedagogik akmeologiya fani haqida ma'lumot beruvchi axborot bilan ta'minlash.

#### 4-topshiriq. Loyihaning tasnifi va maqsadini shakllantiring.

<b>LOYIHA TASNIFI:</b>	
<b>Loyiha turi:</b>	<b>axborotli ko'rgazmali.</b>
<b>Loyiha doirasi:</b>	<b>bajarilish muddati: 5 kun ishtirokchilar soni: 6 ta</b>
<b>Loyiha bo'yicha ish tarkibi:</b> Darsdan tashqari sharoitda faoliyat bajariladi. Master klass tashkil qilinadi.	
<b>Loyiha guruhi ishtirokchilarining vazifalari:</b>	
Axborot manbalarini aniqlash, uni yig'ish:	
Axborotni tanlash tanlash va tuzulmaga keltirish:	
Ma'lumotlarni rasmiylashtirish:	
Loyiha faoliyati natijalari to'g'risida og'zaki axborot va taqdimot tayyorlash:	
Hisobot tayyorlash.	



**Loyiha maqsadi:** Pedagogika fanining zamonaviy tarmoqlari yuzasidan egalangan bilimlarni chuqurlashtirishda pedagogik akmeologiya to'g'risida ma'lumot yig'ish va uni ko'rgazmali namoyish qilish.


**Yakuniy natija:** Pedagoik akmeologiya to'g'risida ma'lumotni o'z ichiga oluvchi uslubiy qo'llanma.

**Foydalanuvchilar:** Oliy ta'lim tizimi professor-o'qituvchilari, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari hamda ushbu sohaga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

#### **Loyiha tuzilishi va mazmuni**

Kirish – pedagogik akmeologiya maqsadi, vazifalari va mohiyati ochib beriladi. Loyiha mavzusini yoritib beruvchi, axborot.


### **5-topshiriq. Akmeologiya va pedagogik akmeologiya haqida o'rgangan ma'lumotlaringizni bayon eting.**







## 6-topshiriq. Pedagogik akmeologiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini tushuntiring.



### 6-amaliy mashg'ulot: Mutaxassislik fanlariga oid loyiha ishlarini tayyorlash

#### REJA:

1. Mutaxassislik fanlariga oid o'quv loyiha ishlarini tayyorlash va guruhviy taqdimot qilish.

2. O'quv loyihasini tayyorlashda izchillikka amal qilish.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** faoliyat, pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati), pedagogik faoliyat (o'qituvchi mehnati)ni tashkil etish, ta'lim jarayonini loyihalash, loyiha ta'limi, pedagogik loyihalash, pedagogik loyihalash shakllari.

**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:** tinglovchilarda mutaxassislik fanlariga oid loyiha ishlarini tayyorlash bo'yicha ko'nikma va malakalarini takomillashtirish.

Amaliy mashg'ulotni tashkil etish va o'tkazishda qiziqarli ijodiy topshiriqlar, mashqlar, treninglar, so'rovnomalar va interfaol ta'lim metodlaridan foydalaniladi.



**1-amaliy topshiriq: O'zingiz dars beradigan mutaxassislik fanlaridan bitta mavzu tanlang va namunaga qarab o'quv loyihasini tayyorlang.**

**O'QUV LOYIHA (NAMUNA)**  
**“TOSHKENT – SHARQ YULDUZI”**

**I. LOYIHA TOPSHIRIG'I**

**Kirish.** Jahon hamjamiyatida O'zbekistonga qiziqish o'sib bormoqda, bunga sayohatchilar sonini kundan-kunga oshib borishi o'z dalilini ko'rsatmoqda. YuNESKO o'zining tarkibiga kiruvchi davlatlarni O'zbekistonni poytaxti - Toshkentning 2200 yilligini nishonlashda ishtirok etishga chaqirdi. O'zining qadimiy tarixi va navqiron “Sharq yulduzi - Toshkent” bilan tanishishni hohlovchi ko'p sonli mehmonlar kelishi kutilmoqda. Biroq barcha aholi poytaxt to'g'risida yetarlicha ma'lumotga ega emaslar.

**Loyiha doirasida o'z yechimini topuvchi, muammo:** yashovchi aholi va mehmonlarni Toshkent to'g'risidagi qisqa ma'lumotlar bilan ta'minlash.

**O'quv loyiha mavzulari:**

1. Toshkent - O'zbekiston poytaxti
2. Toshkentning tarixiy o'tmishi
3. Toshkent: kecha, bugun, ertaga
4. Toshkent metropoliteni
5. Toshkent xududidagi arxitektura yodgorliklari
6. Toshkent muzeylari
7. Toshkent teatrlari.

**Loyiha maqsadi** (u nima uchun yaratiladi): Toshkent to'g'risida ma'lumotni ishlab chiqish.

**Yakuniy natija:** Toshkent to'g'risida qisqa va tuzilmaviy axborotni o'z ichiga oluvchi ma'lumotnoma.

**Foydalanuvchilar:** Toshkent aholisi va mehmonlar.

**Loyiha doirasi:**

*bajarish muddati: 5 kun*

- *ishtirokchilar soni:* beshtagacha

**Loyiha tuzilishi va mazmuni**

- Kirish – ma'lumotli axborotning mohiyati va vazifasi ochib beriladi.
- Loyiha mavzusini yoritib beruvchi, axborot.
- Foydalanilgan manbalar ro'yxati.

**Loyiha guruhi ishtirokchilarining vazifalari**

1. Axborot manbalarini aniqlash, uni yig'ish.
2. Axborotni tanlash va tuzilmaga keltirish.



3. Ma'lumotnomani rasmiylashtirish.
4. Loyiha faoliyati natijalari to'g'risida og'zaki axborot tayyorlash.
5. Hisobot tayyorlash.

## **II. LOYIHA TOPSHIRIG'INI BAJARISH BO'YICHA TALABALARGA USLUBIY KO'RSATMALAR**

### **1. Loyiha faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun yo'riqnoma**

#### *1 bosqich. Tayyorgarlik*

1.1. Loyiha faoliyati jarayonida yechimini topish talab etiladigan, muammo, maqsad va loyiha natijalari, vazifalar hamda ishtirokchilarning loyiha faoliyati turlarini aniqlang.

1.2. Loyiha faoliyati jarayonida yechimini topish talab etiladigan, muammoni, loyiha maqsadi va natijalarini, loyiha faoliyati ishtirokchilarining vazifalarini aniqlang.

1.3. Axborot manbalarini aniqlang.

#### *2 bosqich. Loyiha faoliyatini rejalashtirish*

2.1. Maqsadga erishish yo'lini ishlab chiqing.

2.2. Ish rejasini tuzing:

- ishtirokchilar o'rtasida loyihani ishlab chiqish bo'yicha hamda uni rasmiylashtirish, taqdimotga va hisobotga tayyorlash bo'yicha vazifalarni taqsmilang.

- bajarish vaqti va tayyor natija turini aniqlang.

#### **Loyihani bajarish bo'yicha ish rejasi (*Lavha*)**

<b>Ishtirokchilar F.I.Sh</b>	<b>Vazifa</b>	<b>Ish mazmuni</b>	<b>Tayyor mahsul turi</b>	<b>Bajarish muddati</b>

#### *3 bosqich. Amalga oshirish*

3.1. Olingan axborotni yig'ing va uni matn, jadval, chizma hamda sharhlash ko'rinishida rasmiylashtiring.

3.2. Natijalarni ma'lumotli materiallar ko'rinishida rasmiylashtiring (oxirgi mahsul).

3.3. *Hisobotni tayyorlash yo'riqnomasi bo'yicha*, hisobotni tayyorlang.

3.4. Loyihani Microsoft Power Point bo'yicha *tayyorlash yo'riqnomasidan foydalanib, taqdimotga tayyorlang.*

3.5. Loyiha taqdimotida guruh a'zolari o'rtasidagi vazifalarni aniqlang. Og'zaki taqdimotga tayyorgarlik vaqtida uning *qoidalariga rioya qiling, og'zaki taqdimot sirlarini esdan chiqarmang.*



## 2. Loyiha ishi to'g'risida hisobotga tayyorgarlik bo'yicha yo'riqnoma

1. Siz taklif, va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi, xulosalarni (1 betdan ko'p bo'lmagan matn) asosida ifodalang.
2. Siz hal etmoqchi bo'lgan muammoni, (5-6 so'z) bilan asoslang.
3. Loyiha maqsadingizni: uni nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulni qanday bo'lishi va u kimga qaratilganligini (1-3 taklif) orqali ko'rsating.
4. Loyiha vazifalarini (qisqa va bir ma'noli) ifodalang.
5. Loyihaning ish rejasini (jadval) bayon eting.
6. Vazifani yechimi natijalarini va loyihada bajarilgan ishlarni ko'rsating.
7. Siz taklif etgan loyiha mahsulini tatbiq etish imkonini tasdiqlovchi, xulosalarni shakllantiring.
8. Bajarilgan ish bo'yicha foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtiring.
9. Baholang:
  - loyiha sifatini,
  - loyiha ustida ishlash jarayoni: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni yengib o'tish yo'llari.
10. Ilovalarni tarkiblashtiring: loyiha ishtirokchilarining Anketalari va loyiha ishining ish materiallarini kiriting (hohishingizga ko'ra).

## 3. Loyihani MS Power Point da taqdimotga tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma

1. MS Power Point da taqdimotga *tayyorlash jarayoni* quyidagilardan iborat:
  - taqdimot turini tanlash;
  - taqdimotni umumiy rasmiylashtirishni tanlash;
  - slaydlarni mazmunli tomonlarini tanlash;
  - yangi slaydlarni qo'shish;
  - slaydlarning belgilashni tanlash;
  - zarur bo'lganda slaydlarni rasmiylashtirishni o'zgartirish;
  - slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozli animatsiyalarni yaratish.
2. Slaydlarni *texnik namoyish etish* quyidagi tavsiflarga javob berishi kerak:
  - Slaydlar *miqdori* (8-12).
  - *Slaydlarni mazmunli ko'rsatkichlari*:
    - birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, № o'quv guruhi, yaratilgan kundan iborat;
    - oxirgi slayd axborot manbasiga bag'ishlangan;
    - boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.
  - Slaydlar o'z-o'zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.
3. *Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasi*
  - Agarda, matn og'zaki bo'lsa, quydagicha bo'lishi zarur:



- yuqori axborotli;
- bog'lovchili;
- aniq va qisqa;
- oddiy sintaktikli (...quyidagilarga e'tibor bering, quyida taqdim etilayotgan... ro'yxatlar kabi aylantiruvchi kirish so'zlari kamroq bo'lishi)- bularni barchasini ma'ruzachini o'zi gapirishi mumkin. Oddiy tuzilgan gaplar o'rni bilan tanishtiradi va yozuvni kattaroq qilishga imkon beradi;

- (asosan termin va ta'riflarda), tushunarli, mantiqiy, aniq bo'lishi zarur. Ommaga taqdim etish oldin matnni tekshirishga erinmang.

➤ Ovoz tiniq bo'lishi kerak. taqdimotni ovozli qilish kerak emas, bunda sharhlovchini ovozini eshitib bo'lmaydi- eng yaxshisi ma'ruzachini jonli ovozi hisoblanadi.

➤ *Rasmlar* aniq va yetarlicha kattaroq bo'lishi zarur. Rasmlarni o'lchamini katta qilishga urinmang –faqatgina Siz sifatni yo'qotasiz.

➤ *Video- tasmalar* taqdimot oynasini uch qismini egallashi zarur. Rasmlar namoyishli bo'lishi kerak. Bezaklar chalg'itishi mumkin.

➤ *Jadvallar* ajratuvchi ma'lumotlarni, xuddi shunday aniq, ularning tagiga yirik yozuvlardan, jadvallar nomlanishi zarur.

Jadvallarni haddan ziyod ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak emas! Jadvalga qancha ko'p ma'lumotlar kiritilsa, ularni ekrandan qabul qilish qiyin bo'ladi.

Taqdimot boshlashdan avval auditoriyada o'tirganlarga jadval va rasm nusxalaridan tarqatish zarur.

➤ *Chizmalar* bir bo'limdan boshqa bo'limga aniq va mantiqiy ravishda o'tishga moslashtirilishi kerak. O'tish chiziqlari ekranda yaxshi ko'rinishini tekshiring.

#### 4. Og'zaki taqdimotga tayyorlanishda rioya etiladigan, qoida

##### Og'zaki taqdimot qoidasi

##### *Taqdimotda nima bo'lishi zarur?*

- Muammoni, loyiha maqsadi va vazifalarini tushunishni ko'rsatish; ishni rejalashtirish va amalga oshirishni uddalashi;
- yechimini topish jarayonining tahlili;
- topilgan yechim;;
- muvaffaqiyatning o'zi tahlil qilishining natijalari va muammoni yechish natijaviyligi;

Shuningdek:

Reglamentga rioya qilish: guruhning umumiy taqdimoti – 7-10 daqiqadan kam bo'lmasligi va 15 daqiqadan ko'p bo'lmasligi.



Guruh a'zolarining tartibli chiqishi va ular harakatida kelishuvchilik  
Barcha chizmalarga sharh berish

*Taqdimotda nima bo'lmash kerak?*

Loyiha ishini batafsil yozilishi va loyiha mahsuli mazmunini qayta gaprib berishi.

Ishtirokchilar chiqishlarida qarshiliklar.

Tushunarsiz, noaniq fikrlar.

**Muvaffaqiyatli taqdimotning sirlari**

- gapirayotganingizda doimo ishonchli bo'ling;
- tugallangan jumla bilan hamda muhim joylariga urg'u berib, ajratgan holda ifoda eting;
- bir maromda va sekin gapirmang, baland ovozda ham gapirmang;
- hushmuomala va ziyrak bo'ling, jahldor bo'lmang;
- doimo kulib turgan holda boshlang va shunday tugating;
- "mumkin bo'lsa", "Uni kim biladi" va shu kabi jumalarni qo'llamang;
- tinglovchilarga qarashga harakat qiling (har bir qatnashchiga 3 sekunddan);
- oyoqni chalishtirmang, qo'lni orqada ushlamang, minbarga suyanmang, kuchli imo-ishora qilmang, ruchka, markerni o'ynatmang, yelpig'ich, qog'oz bilan yelpimang;
- har bir javobga minnatdorchilik bildiring!

**5. Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari**

*Guruhli loyihada quyidagilar baholanadi:*

- Loyiha mahsuli- Ma'lumotnoma (eng yuqori 10 ball);
- hisobot(eng yuqori 8 ball);
- loyiha taqdimoti (eng yuqori 5 ball);
- og'zaki taqdimot (eng yuqori 2 ball).

**Bajarilgan loyiha bo'yicha mahsulotni baholash**

	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Baholash ko'rsatkichlari</b>
1.	Loyiha mazmunini belgilangan maqsadga muvofiqligi	Belgilangan maqsadga loyiha mazmuni mos kelsa, maks. 3 ball.
2.	Loyiha: mavzuga oid bo'lgan yetarli miqdorda, sifatli axborotdan iborat.	Erishilgan natijalar maqsadga muvofiq kelsa, maks. 5,0 ball: -yangi; - loyiha vazifasini to'liq aks ettiradi; -keng manbalarga asoslangan.



3.	Axborotni rasmiylashtirilishi	Agarda axborot talab darajasiga muvofiq kelsa: sarlavha, matn tarkiblashtirilgan bo'lsa, 0,5 ball.
		Namoyish etuvchi material (jadval va chizmalarda) bo'lsa maks.0,5 ball: - ma'lumot mazmunini to'liq aks ettiradi; - standart talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan.

**Loyihani MS Power Point da bajarilgan taqdimotini baholash**

	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Baholash ko'rsatkichlari</b>
1.	Loyiha taqdimoti bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy rioya etish	Yo'riqnoma izchilligi bo'lsa, maks. 2,5 ball.
2.	Slaydlarni texnik namoyish etish yo'riqnomasiga rioya etish	Taqdimot tayyorlashda yo'riqnomaga rioya etilgan bo'lsa, 1,0 ball
3.	Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasiga rioya etish	Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasiga rioya etilgan bo'lsa, 1,5 ball.

**Bajarilgan loyiha bo'yicha hisobotni baholash**

	<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Baholash ko'rsatkichlari</b>
1.	Hisobotni tayyorlash bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy ravishda rioya etilishi	Hisobot tuzilmasi yo'riqnomaga muvofiq bo'lsa, maks.0,5ball.
2.	Tanlangan mavzuni asoslanganligi va dolzarbligi	Tanlangan mavzu dolzarbligi daliliy isbotlangan bo'lsa, maks. 0,5 ball.
3.	Echimi hal etilayotgan muammoni asoslanganligi	Muammo daliliy asoslangan bo'lsa, maks.0,5 ball.
4.	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlarini bayon etilishi	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlari aniq belgilangan bo'lsa, maks. 0.3 ball.
5.	Loyiha vazifalarini belgilanishi	Loyiha vazifalari aniq belgilangan bo'lsa, 0,5 ball.



6.	Loyihaning ish rejasini ishlab chiqish	Ish reja ishlab chiqilgan yondashuvlarga muvofiq tuzilgan bo'lsa, 1,0 ball.
7.	Vazifalar bo'yicha loyiha ish natijalarini keltirish.	Vazifalar bo'yicha loyiha ish natijalari ishtirokchilarni ko'rsatish bilan, aniq va ravshan keltirilgan bo'lsa, maks. 1,0 ball.
8.	Xulosalarni ifodalash	Xulosada taklif va tavsiya etilayotgan loyihani tatbiq etish muhimligini isbotlash bayon etilgan bo'lsa, maks. 1,5ball.
9.	Foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtirish	Foydalanilgan manbalar ro'yxati bajarilgan vazifalar bo'yicha tarkiblashtirilgan va standart talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan bo'lsa, 0,2 ball.
10.	Loyiha faoliyatini o'zi baholashi	Tanqidiy baho: - mahsul sifati, - loyiha ustida ishlash: har bir ishtirokchi ishining natijaviyligi, qiyinchilik va uni yengish berilgan bo'lsa, 1,0 ball
11.	Ilovalarning borligi	Ilovalarda loyiha ishtirokchilarining anketalari va loyiha ishining ish materiallari bo'lsa, 1,0 ball.

**Bajarilgan loyihaning og'zaki taqdimoti va bajarilgan loyiha himoyasini baholash**

	<b>Baholash mezoni</b>	<b>Baholash ko'rsatkichlari</b>
1.	Og'zaki taqdimot qoidasiga rasmiy rio etish	Loyiha ishtirokchilarini tanishtirish bilan boshlanishi; So'zga chiquvchilarni belgilangan vaqtga rio etishlari (7 – 15 min.); Taqdimot vaqtida boadabsizlik holatlariga yo'l qo'yilmasliklari. Maks. 0,2ball;
2.	Loyiha himoyasi	Taqdimotda barcha guruh a'zolari ishtirok etgan bo'lsa, maks. 1 ball. Javoblar asoslangan, mukammal, aniq bo'lsa, maks. 0,8 ball.





Loyiha topshirig'iga ilova

**Loyihada erishilgan yutuqlarni o'zini-o'zi baholash uchun**

**Anketa**

F.I.Sh. \_\_\_\_\_

O'quv guruhi \_\_\_\_\_

**1. Loyihada erishilgan yutuqlaringizni quyidagi mezonlar asosida baholang:**

2 ball - to'liq bilaman; 1 ball – qisman bilaman; 0 ball- bilmayman.

Bilim, malaka, ko'nikma, qobiliyat	Loyihani boshlanishi	Loyihani tugashi
<i>Loyihalashtirishni umumiy izchilligini bajarishi:</i>		
- g'oyani ilgari surish,		
-muammoni ajratish,		
- maqsadni aniqlash va uni yechish vazifalarini ifodalash;		
- vazifalarni yechish vositalarini asoslangan maqbul yo'llarini tanlashni amalga oshirish;		
- loyiha topshirig'ini ishlab chiqish;		
- hamkoriy ishlashni rejalashtirish va loyihada majburiyatlarni taqsimlash;		
- natijalarni rasmiylashtirish; faoliyat natijalarini jamoatli (ma'ruza shaklida og'zaki va texnik vositalardan foydalangan ko'rgazmli) taqdimotini o'tkazish;		
- bajarilgan ish to'g'risida hisobot tayyorlash;		
- o'zini-o'zi baholashni va o'zini qilgan ishlarini tahlil qilishni amalga oshirish.		
<i>2. Hamkorlikka tayyorlik va qobiliyat:</i>		
- guruhda samarali o'zaro harakatni amalga oshirish;		
- murosallarni kuchsiz yo'l bilan boshqarish;		



-murosaga kelishish.		
3. Og'zaki muomalaga tayyorlik va qobiliyat:		
- ikki va undan ortiq kishi bilan og'zaki suhbatni olib borish;		
- tanqidiy muhokama olib borish: boshqalar fikrini eshitish va inobatga olish; o'z fikrini bildirish, isbotlash.		
4. Zamonaviy texnik vositalarni bo'lishi:		
kompyuter;		
faks;		
printer;		
modem;		
kseroks.		
5. Axborot va muloqotning zamonaviy texnik vositalarini bilishi:		
- elektron pochta,		
-Internet.		
6. Izlash, qayta ishlash, qabul qilish, kiritish, yaratish, saqlash, yetkazish va axborotni taqdim etishning dasturlashtirilgan vositalarini bilishi		
7. Axborot bilan ishlash:		
- katalog bo'yicha axborotlarni topish,		
- axborotni Internetda izlash;		
- axborotni tarkiblashtirish, asosiyini ajratish;		
- axborotni chizmalı shaklda berish.		
8. Tayyorlik va qobiliyatga ega bo'lish:		
- shaxsiy xulosalar qabul qilish va ular uchun majburiyatni olish;		



- turli ijtimoiy vazifalarni: sardorlik, ijro etuvchi va boshqalarni bajarishi;		
- tashabbusni o'z qo'liga olishi;		
- tartibga rioya qilishi;		
- o'z kuchiga ishonch.		

**2. Loyihada o'z faoliyatingizni baholang va tahlil qiling:**

1. Loyiha topshirig'ini muvaffaqiyatli bajarishga nima yordam berganini Ko'rsating (keragini tagiga chizing, to'ldiring): bilim, ko'nikma, qobiliyat, boshqalar yordami, o'qituvchini maslahati, \_\_\_\_\_

2. O'z aybingiz bo'yicha nimani uddalay olmadingiz? \_\_\_\_\_ Bunga sabab (keragini tagiga chizing, to'ldiring): tushunmaslik, bilmaslik, axborotni yetishmasligi, \_\_\_\_\_

3. Ob'ektiv sabablarga ko'ra Siz nimani uddalay olmadingiz, bunga sabab va kelgusida bunday muvaffaqiyatsizlikni qanday oldini olish mumkin? \_\_\_\_\_

4. Agarda hammasi muvaffaqiyatli o'tgan bo'lsa, buning siri nimada? \_\_\_\_\_



## V. GLOSSARIY

<b>Termin</b>	<b>O'zbek tilidagi sharhi</b>	<b>Ingliz tilidagi sharhi</b>
<b>Loyiha</b>	Aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqish mahsuli	The product of the development pedagogical activity content that guarantees the productivity based on concrete plan and aim
<b>Loyihalash</b>	Boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqish	The development of an activity or process content by assuming the expected results, predicting and planning based on the initial data
<b>Model</b>	Real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, ichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi	Simplified and decreased (increased) copy or sample of an existing object
<b>Modellashtirish</b>	Hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to'la yorituvchi modelni yaratish	Creating a model that fully expresses general content of the phenomenon, process or system
<b>Pedagogik vaziyat</b>	Pedagogik jarayonning muayyan vaqt va muayyan muhitdagi holatini tavsiflovchi tarkibiy qism	Structural part of the pedagogical process that characterizes its current state in a certain period of time and place



<b>Pedagogik jarayon</b>	Pedagog va talabalarning o'zaro hamkorliklari asosida ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tarkibiy elementlarni yagona, yaxlit holda birlashtiruvchi holat	The state that connects the structural elements that serve to development of cooperation of a teacher and student
<b>Pedagogik loyihalash</b>	Pedagogning pedagogik masalalarni yechishga qaratilgan ketma-ket o'zaro bog'liq harakatlari tizimi	The system of inter-related actions of a teacher directed to solving of pedagogical tasks
<b>Pedagogik faoliyat</b>	O'qituvchi tomonidan aniq maqsadlarga muvofiq tashkil etiladigan kasbiy harakatlar majmui	A complex of actions carried out by a teacher in in compliance with concrete aims
<b>Professiogramma (malaka talablari)</b>	U yoki bu kasb mohiyatini, shuningdek, tegishli kasb yoki ishchi mutaxassisliklariga nisbatan me'yor va talablarni belgilovchi belgilar tizimi	A system of criteria that determine the essence of this or that profession, norms and requirements on a concrete profession or specialty
<b>Reja</b>	Harakatlar, chora-tabdirlarni amalga oshirish tartibi va ularning o'rni yorituvchi hujjat	The document that contains the order of actions and undertaken measures
<b>Ta'lim jarayonini loyihalash</b>	Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning sxemasini ishlab chiqish	Development of the scheme of effective organization of educational process taking into account all factors
<b>Texnologik model</b>	Ta'lim (ma'naviy-ma'rifiy tadbir)ning asosiy	The document that exposes the main



	ko'rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat	educational indicators and spiritual activities and measures as well as their technological characteristics
<b>Texnologik xarita</b>	Pedagogik jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum ob'ektga texnik xizmat ko'rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan hujjat	The document that contains all necessary data and instructions presented to teachers who carry out an activity within pedagogical process or technical service to a certain object
<b>Shtatlar jadvali</b>	Lavozim nomlari, ma'muriy-boshqaruv, o'quv-yordamchi, yordamchi (xizmat ko'rsatuvchi va texnik) xodimlar soni, ularning mehnatiga haq to'lash bo'yicha razryadlar belgilangan hujjat	The document in which the names of positions, number of employees on academic, administrative, technical positions, category of salaries are mentioned



## VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Mirziyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: O'zbekiston, 2008

### II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947- sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi “Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5763-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF- 5789sonli Farmoni.

### III. Maxsus adabiyotlar

10. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. – Routledge, USA, 2012.
11. Slastenin V.A. i dr. Pedagogika. Ucheb. pos. 4-ye izd. –M.: Shkolnaya pressa, 2004.
12. Golovko Ye.A. Texnologiya formirovaniya kommunikativnoy kompetentnosti molodyx specialistov na etape adaptatsii k pedagogicheskoy deyatelnosti. Stavropol, 2004.



13. Akmeologiya - nauka o faktorax dostijeniya vershin professionalizma. Проблемы профессионализма преподавателя. // Sb. tezisov. Resp. konf. - Ust-Kamenogorsk, may, 1999.

14. Xoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

15. Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika. // O'quv qo'llanma. – T.: Fan, 2004

16. Muslimov N.A. va b. Kasbiy malaka va pedagogik mahorat. Uzluksiz malaka oshirish yo'nalishi bo'yicha o'quv materiallari. – T., 2009.

17. Kolesnikova I.A., Gorchakova-Sibirskaya M.P. Pedagogicheskoe proektirovanie: ucheb. Posobie dlya vyssh. ucheb. zavedeniy / Pod red. V.A. Slastenina, I.A. Kolesnikovoy. – 2-ye izd., ster. – M.: Izd-kiy sentr "Akademiya", 2007.

18. Muslimov N.A., Urazova M.B. Proektivnaya deyatel'nost' budushchego uchitelya. Ucheb. posob. – T.: GrandPaper, 2011. – 92 s.

19. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: "Iqtisod-moliya". 2009. – 240 b.

20. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X. Toxtaxodjaeva va b.) – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007. – 380 b.

#### IV. Internet saytlar

14. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

15. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

16. <http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.

17. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet

<http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi.